

ALIMBEKOV ADXAMBEK

Turk adabiyoti tarixi

(XIII-XVIII asrlar)

Toshkent – 2005

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi

Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti

ALIMBEKOV ADXAMBEK

Turk adabiyoti tarixi (XIII-XVIII asrlar)

Toshkent – 2005

Ushbu o'quv qo'llanmasida turk mumtoz adabiyoti tarixida o'ziga xos o'rni bo'lgan ijodkorlar haqida fikr yuritiladi. O'rta asrlar turk adabiyoti mavzusida ilk marotaba darslik-qo'llanma yaratilayotgani uchun, muallif qisqacha turk xalq og'zaki ijodi haqida ham ma'lumot beradi.

Bir kitobda butun turk mumtoz adabiyoti namoyandalari ijodini qamrab olish imkoniyati yo'qligi tufayli, avtor XIII-XVIII asrlarga alohida umumiy xarakteristika berib, asosan har bir asrda yashagan mashhur shoirlar ijodi xususida fikr yuritadi. Kitobni yozishda turk adabiy manbalari va turk adabiyotshunoslari F. Ko'prulu, A. Qaboqli, A. Tanpinar, S. Kora Ali o'g'lining, rus sharqshunoslari akad. V. Gordlevskiy, A.V. Garbuzova, I.V. Borolina va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlaridan foydalanilgan. Qo'llanmada so'z yuritilgan shoirlar ijodidan namunalarning ayrimlari Mirtemir tarjimasida (A.V.Garbuzova "Turk adabiyoti klassiklari" kitobidan olingan), yangi qo'shilganlari A. Tilovov tarjimasida berildi. Matbuotdan olingan tarjimalarning mualliflari asar so'ngida ko'rsatildi. Xalq og'zaki ijodi namunalari "Turk xalq adabiyoti" (Istanbul, 1978 y.) va boshqa Turkiyada nashr qilingan darsliklaridan olindi.

ALIMBEKOV A. Turk adabiyoti tarixi (XIII–XVIII asrlar).
-T.: ToshDShI nashriyoti. 2005. -B.132.

Mas'ul muharrir

filologiya fanlari doktori,
professor **Q. SODIQOV**

© Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti, 2005

KIRISH

Tarixi ming yillar bilan o'lganadigan Sharq adabiyoti o'zining boy adabiy merosi bilan jahon adabiyoti tarixida alohida o'rin tutadi. Sharq badiiy olamida turk adabiyotining o'ziga xos o'rni bor. Ming yillardan beri o'zining yozuv tarixiga ega Sharqda turk adabiyoti nisbatan yoshdir. Turk adabiyoti tarixi hozirgi turklarning ajdodlari bo'lmish turkiy o'g'uz qabilalarining XI-XIII asrlarda Kichik Osiyo yerlarini zabt etilishidan boshlanadi.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, o'g'uz qabilalari VI-VIII asrlarda Markaziy Osiyoda yashaganlar va muntazam boshqa turkiy qabilalar bilan aralashish protsessida bo'lgan. VIII asrda O'rta Osiyoda Sirdaryo bo'ylariga ko'chib kelgan o'g'uz qabilalari islom dinini qabul qilgach XI asrda saljuqiylar sulolasi boshchiligida Kichik Osiyo yerlariga bostirib kiradilar. Bu paytda Kichik Osiyoda Vizantiya hukmronlik qilardi. Umuman turkiy qabilalar VIII-X asrlardayoq Kichik Osiyo yerlarida paydo bo'lib, qarluqlar, qipchoqlar Vizantiya imperiyasiga qarshi doimiy urush olib borganlar. Qabilalardan bir qismi bosib olingan yerlarda joylashar va mahalliy aholiga qo'shilib ketardi ham. XI asrda saljuqiylar sulolasi boshchiligidagi o'g'uzlarning Kichik Osiyo territoriyasiga bostirib kirishi nihoyatda kuchaydi. Shunday qilib, poytaxti Konstantinopol bo'lgan Kichik Osiyodagi Vizantiya imperiyasi o'rnida ikkita turkiy davlat – poytaxti Sivas shahri, Donishmandiylar davlati (1067-1180) poytaxti Konya bo'lgan Saljuqiylar davlati (1077-1307) paydo bo'ldi. Kichik Osiyoning sharqiy-janubida va markaziy qismida joylashgan bu ikki davlat XV asrning o'rtalarida Vizantiya imperiyasining tamoman yemirilishida muhim rol o'ynadi.

Turk yozma adabiyoti manbai xalq og'zaki ijodidir, uning ildizi o'g'uzlar Kichik Osiyoga kelgunlaricha ko'chmanchi bo'lib yashagan yerlariga borib taqaladi. Turk adabiyoti boshqa turkiy xalqlar madaniyati bilan o'zaro chambarchas aloqada paydo bo'ldi va shakllandi. Turkiy qabilalar azaldan bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lganlar va umumturkiy bo'lgan madaniy yodgorliklarni – qadimgi turk yozma yodgorliklarini, yaratganlar. Qadimgi turk yozma yodgorliklari – O'rxun-Enasoy (VI-VIII asrlar) yodnomalari bunga misoldir. Turkiy qabilalar o'rtasida o'zaro adabiy aloqalar bo'lgan. Ayrim obrazlar, syujetlar deyarli barcha turkiy xalqlar og'zaki ijodida

uchraydi. Keyinchalik har bir xalq adabiyoti ma'lum ijtimoiy-tarixiy sharoitda o'ziga xos rivojlanish yo'lidan bordi. Mana shu o'ziga xoslikni, har bir adabiyotning taraqqiyot tendensiyalarini chuqur o'rganish adabiyotshunoslikning vazifalaridandir. Adabiy merosga bo'lgan munosabatga qarab turk adabiyotshunoslarini ikki guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruh olimlari turk adabiyotining boy adabiy merosga egaligini ta'kidlab, hozirgi zamon turk adabiyoti o'tmish adabiy an'alariga suyangan holda rivojlanayotganligini aytsalar, ikkinchi guruh vakillari o'tmish turk adabiyoti taqlid adabiyotidir, asosan fors va arab adabiyotiga taqliddan boshqa narsa emas, bu adabiyot davr haqida to'liq ma'lumot berolmaydi deyishadi va hozirgi adabiyotdagi qusurlarni ham adabiy merosning zaif tomonlarini o'zlashtirishdan deb biladilar.

Jahon adabiyoti tarixida adabiy merosga noto'g'ri munosabatda bo'lish juz'iy hol emas. Bir vaqtlar eronliklar, arablar, hindlar ham o'z adabiy merosiga shunday munosabatda bo'lganlar.

Hozirgi vaqtda adabiy meros turk adabiyotshunoslari va boshqa turkologlar tomonidan har tomonlama jiddiy o'rganilmoqda.

Turk adabiyotshunoslari adabiyot tarixini uch yirik davrga bo'ladilar:

1. Turklarning islom dinini qabul qilgunigacha bo'lgan davr. X asrgacha bo'lgan bu davr adabiy merosi barcha turkiy xalqlarga tegishli deb qarash kerak.
2. Islom dini qabul qilingandan so'nggi davr.
3. Yangi davr, ya'ni g'arb adabiyoti madaniyati ta'siri sezila boshlagandan keyingi davr.

Bular o'z navbatida ijtimoiy muhitdan kelib chiqib yana bir qancha nom bilan kichikroq davrlarga ajratiladi.

Islomiyatdan avvalgi adabiyotni ikkiga ajratish mumkin:

1. Og'zaki adabiyot
2. Yozma adabiyot

Islom dini qabul qilingandan so'nggi turk adabiyoti uch bosqichga bo'lib o'rganiladi.

1. O'tish davri adabiyoti
2. Xalq adabiyoti
3. Mumtoz turk adabiyoti

Yangi, g'arb adabiyoti va san'ati ta'siri sezila boshlagan uchinchi davrni yaratilgan asarlar ruhidan, umuman, zamon talabidan kelib chiqib oltiga bo'lish mumkin:

1. Tanzimot davri turk adabiyoti;
2. "Sarvati - funun" adabiyoti;
3. "Fejri - Ati" adabiyoti;
4. Milliy adabiyot;
5. Milliy mujodala davri adabiyoti;
6. Jumhuriyat davri turk adabiyoti;

Adabiyotni davrlashtirishni nisbiy tushunish kerak, chunki ikki davr o'rtasiga "xitoy devori" qo'yib bo'lmaydi, albatta.

Turk adabiyotshunoslari turk xalq adabiyotini mazmun mohiyatidan kelib chiqib quyidagicha tasniflaydilar.

1. Anonim turk xalq adabiyoti
2. Diniy – tasavvufiy turk adabiyoti
3. Oshiq tarzi turk adabiyoti

Anonim turk xalq adabiyotining nazmiy shakllari:

1. Turku
2. Mani
3. Ayit (yo'qlov)
4. Tekerleme
5. Bilmeje (topishmoq)
6. Ninni (alla)

Nasriy shakllar:

1. Masal (ertak)
2. Doston
3. Afsona
4. Fikra (latifa)
5. Xalq hikoyasi
6. Otaso'zi (maqollar)
7. An'anaviy xalq tomosha o'yinlari

Diniy-tasavvufiy turk adabiyotining nazmiy shakllari:

1. Ilohiy
2. Nafas
3. Nutq
4. Shatxiye

5. Davriye
6. Munajaat
7. Tavhid
8. Naat
9. Mavlud

Nasriy shakllari:

1. Futuvvatnoma
2. G‘azovotnoma
3. Manoqibnoma
4. Battolnoma

Oshiq tarzi turk adabiyotining janrlari:

1. Koshma
2. Varshagi
3. Samoiy
4. Doston
5. Go‘zallama
6. Kochaklama
7. Tashlama

Turk adabiyotining rivojlanishida fors, arab adabiyotlari-ning ta’siri katta bo‘lgan. Shoirlar fors hamda turk tillarida ijod qilganlar. Turkiyaga fors saroy adabiyoti bilan birga xalq og‘zaki ijodi ham kirib kelgan. “Tazkira” tuzish ham turklarga eron adabiyotidan o‘tgan.

Turk adabiyotini o‘rganish, o‘rta asrlardan boshlanadi deyish mumkin. Tanqidiy qarashlar ham bo‘lgan buningdek antologiyalar turk adabiyoti haqida Yevropada ilmiy adabiyotlar paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi. XVIII asrning 70-yillarida Venesiyada e‘lon qilingan turk adabiyoti tarixiga oid kitob va “Turkiyadagi har xil fanlar ahvoli” deb nomlangan Abbat Toderining ilmiy ishi, XIX asr boshlarida e‘lon qilingan Avstraliyalik sharqshunos Hammer Prugshtalning to‘rt tomlik “Istoriya osmanskogo izyashnoy slovesnosti” (“Usmonli so‘z san’ati tarixi”) kitoblari shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda jahon sharqshunoslari tomonidan turk adabiyoti tarixi izchil o‘rganilmoqda.

Tuk xalq og‘zaki ijodi haqida

T U R K U

Turkular maxsus bir ohang, musiqa jo‘rligida aytilgan xalq qo‘shiqlaridir. Qadimda butun xalq qo‘shiqlarini ham turku deb atashgan. Turkularning asosiy mavzusi atrof muhit, tabiat, yoki biror voqea ta’sirida paydo bo‘lgan tuyg‘ularni tilga ko‘chirishdir. Shu jihatdan mavzu rang-barang. Asosiy fikr bir misrada bo‘lib, boshqa misralar shu fikrni to‘ldiradilar. Anonim xalq adabiyotining nazmiy shakli bo‘lgan turku ko‘pincha 11 hijoli bo‘lib,

_____	a
_____	a
_____	a
_____	x
_____	x

_____	v
_____	v
_____	v
_____	x
_____	x

_____	s
_____	s
_____	s
_____	x
_____	x

tarzida qofiyalanadi. Anadolu turkulari xalq orasida mashhur. Turkular turli mavzuda - sevgi, tabiat, go‘zallik, ayriliq, o‘lim va hokazo mavzularda bo‘lishi mumkin. Turkularda har banddan so‘ng bog‘lovchi misralar bo‘ladi. Bu misralar kavushtak deb ataladi (sharqiylardagi naqorat kabi). Turkular millatning tarixi, urf-odatlar, an‘analarining o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi milliy nazm shaklidir. Turkiyaning viloyatlarida turkular naqorat misralariga ko‘ra bo‘zlak, koshma, xo‘yrat, chuqurova nomlari bilan ham ataladi. Turkularning

muayyan bir qoidasi yo‘q. Ba’zi misralar sarbast bo‘lib, naqorat band o‘rtasida kelishi ham mumkin.

T U R K U

Iki turnam gelir, oqli qorali,
Birin shaxin vurmush, biri yarali,
O yavruya so‘run, asli nereli?

Qator, qator o‘lmush, gelir turnalar,
Ayrim, ayrim ne xo‘sh gelir turnalar.

Ketma turnam, ketma xabar so‘rayin,
Qanoting tagiga nomam solayin
Nozli jononima xabar berayin.

Qator, qator o‘lmish, gelir turnalar
Ayrim, ayrim, ne xo‘sh gelir turnalar.

Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar turkularda aks etishi mumkin, ya’ni turkularda so‘z qo‘llanishi, mavzu zamonaviylashadi.

Masalan:

Poezd gelir, xo‘sh gelir
Xonalari bo‘sh gelir

M A N I

Mani to‘rt misralik mustaqil she’rdir. Mani arabcha ma’no so‘zidan bo‘lib, anonim xalq adabiyoti nazm namunasi. Ozariylarda bayoti, qirg‘izlarda o‘lan, o‘zbeklarda xalq qo‘shiqlari kabi. Manilar to‘rt misralik, 7 hijo o‘lchovida aytilib, ko‘pincha

_____ a
_____ a
_____ x
_____ a

shaklida qofiyalanadi. Yozma adabiyotda ruboiy, tuyuq (XIV-XV) janrlari mani asosida paydo bo‘lgan. Mustaqil she’r bo‘lgan manilarda asosiy mazmun so‘nggi ikki misrada bo‘ladi. Manilar turli mavzularda bo‘lishi mumkin. Sof hazil uchun tuzilgan, kulgili manilar ham bor. Ko‘proq ayollar tilidan aytiladigan manilar niyat, fol,

sevgi, maktub, to‘y mazmunida yoki falsafiy va boshqa mavzularda bo‘lishi mumkin.

Manilar shaklan to‘rt xil bo‘ladi:

1) Duz mani (oddiy mani); 2) Jinasli (so‘z o‘yinli) mani;
3) Kesik mani; (oyoqli, zinapoya shaklidagi mani); 4) Yedekli mani;
(qo‘shimchali mani)

1. Duz mani yuqoridagi fikrlarni o‘zida jamlagan.

Tog‘lar tuman bo‘ldi, kel;
Ko‘nglim gumon bo‘ldi, kel,
Oylarga va‘da berdim,
Yilim tamom bo‘ldi, kel.

2. Jinasli (so‘z o‘yinli) manilarda qofiya shaklan bir xil, mazmunan har xil so‘zlar(omonimlar)dan tashkil topadi.

O banim och ko‘zlarim
Yora muhtoj ko‘zlarim
Kechdi go‘zal karvoni
O‘tirdim, boj ko‘zlarim
O, mening baxtiyorim
Ko‘nglingda taxti yorim
Yuzingda ko‘z izi bor
Senga kim boqti yorim.

3. Kesik (oyoqli) manining ilk misrasi 7 hijodan oz, qofiyalari jinosli, misralar soni 4 va undan ortiq bo‘lgan manilar

Bag‘ bana,
Baxcha sana, bag‘ bana,
Deyme zinjir kyar etmez
Zulfing teli bag‘ bana

4. Yedekli (qo‘shimchali) manilarda mazmunni kuchaytirish uchun band so‘ngida yana ikki misra qo‘shiladi.

Dardim var bellar kabi
So‘ylemem yellar kabi
Qalbimi xuzuni var
Yiqilmish ellar kabi
Ko‘zlarimdan yosh oqar
Bo‘shagan sellar kabi

Shoirlar ham mani shaklida she'rlar yozganlar. Orxan Seyfi Beyning quyidagi misralari bunga dalildir:

Ne Hindda, ne Chindaymish
Ajab nerdaymish, neymish
Izlaganim mahalda
Ko'nglimni ichindaymish.

K O' Sh M A

Xalq adabiyoti nazm shakllaridan biri. Asosan 11 hijoli, bandlari to'rt misrali, eng oz uch, eng ko'p 6, gohida undan ortiq to'rtlik bo'ladi. Ko'shmalar mazmuniga qarab turlicha nomlanishi mumkin. Tabiat va inson go'zalligidan bahs etganlari go'zalleme, yigitlik mardlik, urush mavzusi bo'lsa ko'chaklama, o'lim haqidagi ayit, bir kimsa yoki guruhning yomon tomonlarini ko'rsatgani tashlama. Ko'p uchraydigan qofiya shakllari.

_____	a	_____	a	_____	x
_____	a	_____	b	_____	b
_____	b	_____	a	_____	x
_____	a	_____	b	_____	b

Ko'shmalar ohang uslubiga ko'ra, Ajam, Anqara, Kerem, Sivrihisar ko'shmolari nomlari bilan atalishi mumkin. Tuzilishiga ko'ra ko'shmalar duz, yedekli, musammat, ayakli zanjirband ayakli, zinjirleme kabi turlarga bo'linadi.

Musammat ko'shmaning ilk bandidagi birinchi va ikkinchi baytlarida besh hijoli ziyoda bog'lovchi so'z bo'ladi.

Ey banim jononim, jon ichra jonim
Sho'x navjuvonim o'lma bevafo

Rahmayla bana
Men sana qurban kel kes gardanim
To'k yerlarga qonim faqat bo'l oshino
Bo'lma bevafo

Ko'shma so'zi "qo'shoq" fe'lidan. Prof. **Fuad Ko'pruli** qo'shmani "so'zga kuy bog'lamoq va moslamoq" deydi.

K O' Sh M A

Go'zal ko'zlarini sevdigim dilbar

Kel bizim ellarni kez, karam ayla
Go'la qo'llaring var, kezar qalamla
Ol meni daftara yoz, karam ayla

Yiroqtir yo'llarim, adashdim keldim
Totlidir tillaring, aylandim keldim
Vafolim bo'ynuna, endi men o'ldim
Mozor ko'ksinga qaz, karam ayla

I L O H I Y

Diniy mavzulardagi oshiq adabiyoti she'riy shaklidir. Tekkelarda olloh ishqida kuylagan manzumalardir. Ilohiy – Allohga oid demak. Ilohiylarda, asosan, tangri sevgisi va diniy mavzular aks ettirilgan. Xalq adabiyotidagi ilohiy, devon adabiyotidagi “tavhid” va “munojotlarga” o'xshash. Ilohiy diniy – tasavvufiy mavzuda bo'lgani bilan, biror tariqatning o'ziga xosligi, afzalligini targ'ib etmaydi.

Tariqatlarning o'ziga xosligini ifoda etgan ilohiylar bektoshiylikda – nafas, yassaviylikda – hikmat, mavlaviylarda ayin, gulshehrlar – tapuu, xalvatilarda-durak, boshqa tariqatdagilarda jumhur deyilgan.

Ilohiylar 7,8,11,14,16 hijoli vaznlarda yozilgan. 7-8 hijoliklari to'rtlik, 11,14,16 hijoliklari bayt shaklida yozilgan. Bayt shaklida yozilganlari g'azal kabi qofiyalangan. Aruz vaznida yozilgan ilohiylar ham bor. Ilohiylar mavlud va boshqa diniy bayram kunlari ko'pchilik bo'lib tekkelarda (bir tariqat yo'lidagi darveshlarning yigiladigan joyi) ham aytiladi.

Ilohiyning eng yaxshi namunalarini Yunus Emre ijodida ko'rish mumkin.

MANGA SAN KERAKSAN

Ishqing oldi mandan mani,
Manga san keraksan, san!
Jismim yonur kecha-kunduz,
Manga san keraksan, san!

Na borliqqa sevinarman,
Na yo‘qliqqa quvonarman,
Ishqing ila ovunarman,
Manga san keraksan, san!

Ishqing oshiqni o‘ldirur,
Ishq dengizida qoldirur,
Tajallo ila to‘ldirur,
Manga san keraksan, san!

Qayg‘ularing ulug‘ pesham,
Majnun bo‘lib tog‘lar osham,
Sensan umrlik andisham,
Manga san keraksan, san!

So‘fiylara suhbat kerak,
Oqillara oxirat kerak,
Majnunlara Layli kerak,
Manga san keraksan, san!

Agar mani o‘ldirsalar,
Kulim ko‘kka sovursalar,
Tuprog‘im sani chaqirar,
Manga san keraksan, san!

Miskin Yunus manim otim,
Kunu kundan ortar o‘tim,
Ikki jahonda murodim,
Manga san keraksan, san!¹

X. Davron tarjimasi

¹ Хуршид Даврон. Тошкент: Қақнус, 1987. –Б. 7–8.

S A M O I Y

O‘zagi arab kalimasidan bo‘lgan bu so‘z “eshitmoq”, “o‘rganmoq” ma‘nolarini anglatadi. Xalq adabiyotida, ayrim shoirilar ijodida ko‘p uchraydigan bu nazm shakli, aruzning “mafoilun, mafoilun, mafoilun, mafoilun” vaznida, hijoda esa 4+4=8 li vaznda bo‘lib, o‘ziga xos ohang bilan kuylanadi. Tabiat, go‘zallik, sevgi va ayriliq mavzularida ko‘proq yaratilgan samoiylar qofiya va misra tuzilishiga ko‘ra ko‘shmaga o‘xshab ketadi. (Ayrimlar samoiyni ko‘shmaning bir turi ham deyishadi). 3-5 bandli, gohida ortiqroq ham bo‘lgan samoiy o‘ziga xos havoli, hafif musiqiy bo‘lgan. XVIII asrdan xalq shoirilari o‘rtasida keng tarqalib, samoiy o‘qishlar avj olgan.

Karajaoglan.

SAMOIY

Injalikdan bir qor yog‘ar,
Tuzar Alif¹, Alif deya.
Dalli ko‘ngil telba o‘lmish,
Kezar Alif, Alif deya.

Alifin chagvoni naqshli
Qush bolasidek boqishli
Yaylov chechagi ufirushli
Ufifar Alif, Alif deya

Alif qoshlarini chatar
G‘amzasi siynama botar,
Oq qo‘llari qalam tutar,
Yozar Alif, Alif deya.

Uylaring oldi chordoq
Alifin qo‘lida qadah
Go‘yo yashil boshli o‘rdak
Suzar Alif, Alif deya.

¹ Қиз исми.

Sh A R Q I Y

Sharqiylar turk she'riyatida asosan XVIII asrdan yaratila boshlagan nazm shakllaridan. Sharqiylarga kuy bastalangan. Ko'pi bilan ikkidan besh to'rtlikkacha bo'lgan. Turk adabiyotiga sharqiyni olib kirgan Nodim ijodida 3 bandlik sharqiylar ko'p. Ishq va go'zallik mavzulari qalamga olingan sharqiylar xalq she'riyatidagi turku va ko'shma hamda devon adabiyotidagi murakkab shakllarning o'ziga xosliklarini jamlagan deyish mumkin. Sharqiylar ko'proq aruz vaznining foilotun, foilotun, foilotun, foilun o'lchovida, shuningdek hijo vaznida ham yozilgan.

_____ a
_____ a
_____ a
_____ a

_____ v
_____ v
_____ v
_____ a

_____ s
_____ s
_____ s
_____ a

shaklida, gohida

_____ a
_____ v
_____ a
_____ v

_____ s
_____ s
_____ s
_____ v

shaklida qofiyalanib, takror kelgan misraga naqorat deyilgan. Lola davri shoiri Nodim, Enderunlu Vosiflar turk adabiyotida go'zal sharqiylar yozgan shoir sifatida mashhurlar.

Nodim sharqiylaridan:

Yana bazmi chamanga lola furuzan keldi,
Mujdalar gulshanga kim vaqti charog'on keldi
Bulbul ashuftalanip bazmi g'azalxon keldi
Mujdalar gulshanga kim vaqti charog'on keldi.

Sayr olup raqsi yana dilbari mumtozlarin
Yana efloke chikar nolalari sozlarin
Jona otash beradur shulasi ovozlarin
Mujdalar gulshanga kim vaqti chorog'on keldi.¹

Eslatma: Xalq qo'shiqlari oxorini saqlab qolish va ayrim so'zlar o'zbek o'quvchisiga ham tushunarli bo'lgani uchun o'zgartirmadik.

¹ Адабиёт. Дарс китоби. – Анқара, 1991. –Б.103.

ERTAKLAR HAQIDA

Ertaklar turk xalq og‘zaki ijodida muhim o‘rin egallagan, folklorning boy janrlaridandir. Turk tilida ertak, masal deyilib, “Qomusi Usmoniya”da yozilishicha, odob va nasihatni anglatgan arabcha so‘zdir.

Turkiy tillar bilimdoni Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” kitobida ertak so‘zi etuk shaklida berilib, biror voqeani hikoya qilishni bildiradi. XIX asrning 80-yillaridan turk ertaklari yozib olina boshlangan. Tanzimot davridagi (1839-1896) adabiy muhit bunga omil bo‘lgan. Bu ishni boshlaganlardan biri mojaristonlik sharqshunos I. Kunoshdir. XX asr boshlarida G. Yakob, F. Gize, D. Nemet, V.A. Gordlevskiy kabi yevropalik sharqshunoslar turk ertaklarini yozib oldilar va shu mavzuda ilmiy tadqiqotlar olib bordilar. Turk ertaklari xususida samarali ish olib borgan folklorshunoslar ichida Partav Noili Baratovni alohida ta’kidlash kerak. P.P. Baratov XX asrning 20-60- yillarida 3800 dan ortiq ertaklarni yozib oldi va Volfram Eberxard bilan hamkorlikda turk ertaklari katalogini tuzdi. P.P. Baratov 1953 yili “Zamon, zamon ichida” ertaklar to‘plamini Istambulda, 1969 “Oz ketdik, ko‘p ketdik” kitobini Anqarada nashr ettirdi. 1955 yili fransuz, 1968 yili olmon kitobxonlarini turk ertaklari to‘plamlari bilan tanishtirdi.

Mazmunan rang-barang turk ertaklarini 4 guruhga ajratish mumkin:

1. Hayvonlar haqidagi ertaklar.
2. Sehrgarlik ertaklari.
3. Maishiy ertaklar.
4. Kalo‘g‘lon turkum ertaklari.

Hayvonlar haqidagi turk ertaklari xronologik jihatdan qadimiyoq va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. “Ayiqlar bilan tulki”, “Tulki bilan ilon”, “Kampir bilan tulki” va boshqa ko‘pgina hayvonlar to‘g‘risidagi ertaklarda har bir hayvon ma’lum bir ramziylikka ega bo‘lib, spesifik mazmun tashiydi. Ko‘pgina jahon xalqlari ertaklarida tulki ayyorlik ramzi bo‘lib, deyarli salbiy obraz sifatida talqin qilinadi. “Tulki bilan ilon” ertagida buning o‘zgacha variantini ko‘ramiz. Tulki ilon bilan do‘stlashib, bir kuni yo‘lga chiqibdi. Yo‘lda ular bir soyga duch kelishib, tulki suvdan o‘tib ketayotganida,

soydan o'tolmaydigan ilon tulkidan uni ham olib o'tib qo'yishni iltimos qilibdi. Tulki do'stlik qilib, ilonga bo'yniga o'ralishni buyuradi. Suvning o'rtasiga borganda ilon tulkini bo'g'a boshlabdi. Tulkining bo'ynimni bo'shat degan iltimosiga ham quloq solmabdi. Shunda tulki ilonga: «Biroz bo'yningni uzat, tomog'ing tagidagi qirmizi xolingdan bir o'pay» - deb iltimos qilibdi va ilonni tomog'idan tishlab o'ldiribdi. Do'stlikka xiyonat, qalloblik qilmaganida ilonning tirik qolish mumkinligini aytib, yo'lida davom etibdi. Bu ertakda tulki ayyorlik qilib boshqalarni aldovchi emas, aqli, farosati bilan o'limdan qutulib qolgan, jabrlanuvchi sifatida tasvirlangan.

Sehrgarlik ertaklarida ham hayvonlar qatnashadi, ammo bu ertaklarda hayvonlar ko'pincha bosh qahramonga yordamchi yoki bosh qahramonning o'zi ma'lum vaqt sehr-jodu bilan biror hayvon shakliga kirishi mumkin. "Xoldor Bahri", "Qora mushuk" ertaklaridagi kabi. "Benli (Xoldor) Bahri" ertagida shahzoda qora mushuk ko'rinishida paydo bo'ladi va ertak so'ngida ertakning asosiy qahramonlaridan bo'lgan go'zal qizga uylanadi. Turk sehrgarlik ertaklarida ham ko'pincha ijobiy qahramonlar sifatida shohning kenja o'g'li yoki qizi, kambag'al chol, kampirning yolg'iz o'g'li, aql-farosati bilan shohlik darajasiga yetgan cho'pon, bog'bon, o'tinchi farzandlari tasvirlanadi. Turkiyada ertaklar maddohlar tomonidan, ko'pincha esa ayol ertakchilar tomonidan aytilgan. Shuning uchun turk ertaklarida ayollar siymosiga, ularning tasviriga alohida e'tibor beriladi. "Dev bobo", "Quyosh qizi", "Oltin arava", "Pari qiz" ertaklarida asosiy voqealar markazida ayollar turadi. Sehrgarlik ertaklarida voqealar umumiy qoidalar asosida rivojlanadi. Voqea sehrli hodisalar bilan boshlanadi, bosh qahramonlar o'z jasurliklari, aql-farosati, uddaburonligi bilan gohida parilar, qushlar, hayvonlar, sehrgarlar yordamida turli to'siqlarni yengib o'tib murod maqsadlariga yetadilar. Ertaklar kirish, asosiy qism va ertak (xotima) so'ngidan iborat. Boshlama turk tilida tekerlama deyilib, bunda ertakchi tinglovchini o'zi aytmoqchi bo'layotgan voqealar olamiga olib kirishga harakat qiladi. Tekerlama so'z o'yinidan iborat, bunda bir-biriga mazmunan aloqador bo'lmagan so'zlar ma'lum tarzda qo'fiyalanib keladi va go'zal bir shakl yasaydi.

Masalan: «Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Zamon zamon ichida, ig-na somon ichida. Tuya dallol ekan, chivin sartarosh ekan, xo'roz

imom ekan, onam qoshiqda, otam beshikda ekan. Men otamning beshigini ting'ir-ming'ir tebratar ekanman, otam tushdi beshikdan, chiqib ketdi eshikdan, Onam qisqichni oldi, otam kurakni oldi, menga eshik orqasidagi burchak qoldi... Onam yaxshi. Otam yaxshi, qo'llaridan qutulsang undan yaxshi».

Yoki boshqa bir ertak shunday tekerleme bilan boshlanadi. "Bir bormish, bir yo'kmish... Avval zamon ichida, igna somon ichida... Tuyalar dallol emish eski hammom ichida... hammomchining tosi yo'q, go'lahchining boltasi yo'q, qo'ltig'ida bo'g'chasi yo'q... handadir handa bir qo'tos va yetmish ikki tentak banda... Yedik, ichdik, tishimiz et ko'rmadi, barakat bersin otboqarga, bizga bir ot berdi to'riqdir deya, ot bizni bir tepib berdi nari tur deya...

Ertakdir buning oti, so'zlasang chiqar toti, kimki tinglamasa, kel-sin cho'loq tarbiyachi..."

Turk ertaklarining manbalari haqida turlicha nazariyalar bo'lib, bu qarashlarni asosan uch guruhga jamlab, uch ilmiy maktab deb qarash mumkin.

1. Mifologik maktab. Bu nazariyaga ko'ra, ertaklar qadimgi afsonalarning parchalar holda qolgan va bizgacha yetib kelgan bo'laklaridir.
2. Antropologik maktab. Bu maktab vakillari ayni bir ertaklarni rivojlanmagan xalqlar orasida ham borligini aytadi. Biror mifning ertak holiga kelish chegarasini keskin ko'rsatmaydi.
3. Adabiy maktab nazariyasiga ko'ra xalq ertaklarining kelib chiqishini Hindistondan izlaydi. Xalq ertaklarini bugungi kunda unutilgan bir qism qadimiy ohanglarning so'nggi izlari va alomatlari sifatida ko'radi.¹

Ertaklar qaysi vaqtda yaratilganiga qarab, ozmi-ko'pmi zamon ruhini o'zida aks ettirgan. Muhimi bosh mezon adolat bo'lgan. Yaxshilik, ezgulik hamisha yovuzlik ustidan g'alaba qozongan. Ertaklar sinfiylikdan holi. Bir kambag'al nihoyatda boy bo'lib ketishi, yoki aksincha podsho bir bechora bo'lib qolishi mumkin. Ertaklarda bosh qahramon uchun bajara olmaydigan ish yo'q. Qahramonlar o'z idroki va majoziy obrazlar yordamida, albatta, maqsadlariga yetadilar. Turk ertaklaridagi asosiy tiplar jahon xalqlarida ko'p uchraydigan qahramonlardir. Sehrli ertaklarda asosan dev, jodugar kampir,

¹ Қаранг: Турк эртаклари. – Анқара, 1992. –Б. 3-4.

zanji qul, ya'ni qora arab, parilar, ajdarho, ayol dev, darvish, podsholar, Kalo'g'lon, tiplari bo'lsa, ashyolardan: uchar gilam, ur to'qmoq, sehrli ko'za, sehrli qalpoqcha kabilardir. Shuningdek uch, yetti, qirq sonlari bilan bog'liq an'analar ham bor.

Turk xalq ertaklari tugallanmasi ham o'ziga xos. Ertak mazmunidan kelib chiqib yakun to'y-tomosha tasviri, otalar so'zi yoki tinglovchilar ruhiyatini ko'taruvchi adabiy parchalar bo'lishi mumkin. Ko'pincha ertakchilar o'z so'zlarini original shaklda tugatmoq, aytganlarining hayotga yaqinligini ko'rsatmoq uchun chiroyli yakun yasashga harakat qiladilar. Masalan: "To'yga meni ham chaqirdilar. Bordim. Menga bir to'rva shirinliklar berdilar. Eshagimga yukladim. Eshagimning oyoqlari mumdan, ko'zlari shishadan edi. Qancha shoshilsam ham yetolmadim, quyosh chiqdi, mum eridi, shishalar sindi. Shirinliklar tosh qotib qoldi".

Yoki "Qirq kun, qirq kecha to'y bo'ldi. Ular yetmish murodga, biz chiqamiz ayvonga... Ko'kdan uch olma tushdi, biri sizga, biri ertak aytganga, biri menga". Ko'rinadiki, ertakchi nihoyatda so'zga chechan, so'z san'atkori bo'lishi kerak. Ziyo Ko'kalp quyidagi so'zlarni yozganda haqli edi. "Ertakchi o'z sohasida bir san'atkordir. Aytgan har so'zi o'z o'rnida qo'llanilgan. Bu kabi ertakchilarning bir kalimasini ham o'zgartirib bo'lmaydi".¹ Og'zaki nutqning go'zal namunasi bo'lgan ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati juda muhim. Yoshlarni vatanparvarlik, ezgulik ruhida voyaga yetkazib, yaxshilikning yomonlik ustidan hamisha g'alaba qilishiga ishonch tug'dirishda folklorning hech bir janri ertak o'rmini bosa olmaydi.

LATIFALAR

Yumor har bir xalqning o'ziga xos, xarakterli xususiyatlarini yorqin ko'rsatadi. Turk xalq og'zaki ijodida, latifalar rang-barangligi bilan ajralib turadi. Bu latifalar turklar hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, turk xalqi ma'naviy madaniyatining ajralmas qismidir. Turk latifalarining ilk yozma namunalarini XIII–XIV asrga oid bo'lgan adabiy yodgorliklarda ko'rish mumkin. Xo'ja Nasriddin

¹ Турк эртаклари. Анқара. 1992й. 1-жилд. 14-бет.

haqidagi 43 latifani qamrab olgan ilk to'plam sanasi 1571 yil. Nasriddin Xo'ja tarixiy shaxs bo'lib, 1208–9 yili Sivrihisorga yaqin joydagi Horto qishlog'ida tug'ilgan. Otasidan so'ng biroz vaqt qishloqda imomlik qiladi va 1237 yilda mutasavvuf olim Sayyid Mahmud Hayroniyga murid bo'lish uchun Oqshaharga keladi. Umrining oxirigacha (1284) shu yerda yashab qolgan Xo'ja xalq orasida nihoyatda zukko, gapga usta, adolatpesha odam sifatida taniladi. Nuk-tadon, orif inson bo'lgan Nasriddin Xo'ja zamondoshlarining ko'nglidagi gaplarni topib aytganki, bora-bora u haqida latifalar to'qilib, xalq qahramoniga aylanib ketgan. 1837 yildan buyon Xo'ja Nasriddin latifalari kitob holida tez-tez bosilib turibdi. 1857 yildan e'tiboran Yevropa tillariga tarjima qilina boshlangan. 1865 yilda qirqdan ortiq latifalar o'zbek tilida kitobot qilingan. Xo'ja Nasriddin bugungi kunda ko'plab turkiy xalqlarning sevimli qahramonidir. Xo'ja Nasriddindan boshqa Bekri Mustafo, Bektoshiy, Qoraqush, Xobenneka kabi turk xalq qahramonlari borki, bular haqidagi latifalarning o'zi alohida-alohida turkumlardan iborat. Bekri Mustafo erkin fikrlovchi, qotib qolgan, qoloqlikka qarshi kurashuvchi shaxs sifatida tasvirlansa, darvish Bektoshiy topqirligi bilan ayrim kaltabin qozilarning, din peshvolarining ustidan kuluvchi xalq qahramoni si-fatida tasvirlanadi. Go'l, berahm, qaysar hukmdorlar haqidagi lati-falar vazir Qoraqush nomi bilan bog'liq. Qoraqushning kaltafahmliги uning so'zlarida, xizmatkorlariga ish buyurishida ko'rinadi. Xo-benneki haqidagi latifalarda ham sodda, go'l odamlar ustidan kuli-nadi.

Latifalarda mavzu jihatdan o'zga xalqlar folklorida uchraydigan voqealarga qisman o'xshashlari ham bo'lishi mumkin.

Namunalar:

Bir kuni Qoraqushning lochini qafasdan chiqib ketibdi.

- Darvozani yopinglar, lochin chiqib ketmasin, - buyuribdi Qoraqush qorovullariga.

Qozi bo'lgan Afandi da'vogarningmi, javobgarningmi haq-liginimi yecha olmay boshi qotdi-da, ikkalasini ham kaltaklashni buyurdi.

Jazo bajarilgach, xo'rsinib dedi:

- Endi vijdonim toza, qaysi biri aybdor bo'lsa ham jazodan qutulolmadi.

Men buyurganimni aytma

Bir kuni Qoraqush poygada qatnashishga ahd qilibdi. Lekin uning oti marraga eng oxiri kelibdi. Shunda u otboqarga buyuribdi:

- Otni jazolab, bir xafta ovqat berma.
- O'lib qoladi-ku afandim.
- Unda mayli, ovqat beraqol, lekin mening buyurganimni aytma!

Qarzlار

Afandidan so'rashibdi:

- Aytishlaricha, sen qarzlaringni to'lamas emishsan?
- Yolg'on, men faqat eski qarzlarimnigina to'lamayman.
- Unday bo'lsa, yangi qarzlaringni qanday to'laysan?
- Eski bo'lishini kutaman.

XIII-XV asrlarda Turkiyadagi ijtimoiy va adabiy muhit

Turk mumtoz adabiyotining ilk namunalari XIII asrning ikkinchi yarmidan yaratila boshladi. Keyingi asrlarda o'zining eng yaxshi namunalarini yaratgan bu adabiyot XIX asrning ikkinchi yarmigacha, ya'ni g'arb adabiyoti va madaniyati ta'siri sezila boshlagungacha bo'lgan davrda, dunyoga ko'plab talantli ijodkorlarni berdi. Turk mumtoz adabiyoti tarixini shartli ravishda uch davrga ajratish mumkin.

1. Shakllanish (qurilish)
2. Yuksalish
3. Taqlid

Birinchi davrni o'z ichiga olgan XIII-XV asrlarda turk shoirlari Eron adabiyotiga ergashib asarlar yozdilar. Fors tilida yaratilgan mashhur badiiyat namunalarini tarjima qildilar. Anado'li uchun Eron adabiyoti o'sha vaqtda bir namuna edi. Zotan bu asrlarda fors tilida ko'plab jahon adabiyotiga o'rnak bo'lgulik asarlar yaratilgani sir emas.

Turk shoirlari shakl va mazmun jihatidan ham Eron adabiyotiga ergashar, fors tilidagi asarlarni chuqur mutolaa qilib, o'zlashtirishga intildilar.

Fors tili she'riyat tili o'laroq sanalar, turk tilida fors tilida yaratilgandek badiiy yuksak adabiyot namunasini yaratish imkonsizdek tuyilardi. Aruz vazni ham turk adabiyotiga Eron adabiyoti orqali kirib keldi. Aruz vaznida ijod qilgan shoirlar ko'plab arabcha va forsha so'zlarni qo'llardilar. Natijada ma'lum "qolip"ga solingan adabiy til- usmonlicha yuzaga keldi. Bu davr shoirlarining tili, ke-lajakda yaratiladigan asarlarga nisbatan sodda va qusurlardan holi emasdi.

Istambulning fath etilishidan (1453) XVIII asrning oxirlarigacha bo'lgan "Yuksalish" davrida yashab ijod qilgan turk shoirlari turk mumtoz adabiyotining ajoyib namunalarini yaratib, o'zlarini eronlik shoirlardan ustun qo'yadilar. Bu davrda tom ma'nodagi turk mumtoz adabiyoti yuzaga keldi. XV-XVI asrlarda usmonlilar imperiyasi kuchaygan, siyosiy jihatdan Erondan bir qadar ustunlikka erishgandi ham. Istanbul yirik siyosiy markaz va madaniyat, adabiyot gullagan

shaharga aylandi. Eron adabiyotining oltin davri XV asr bo'lsa, turk adabiyotining oltin davri XVI asr bo'ldi. Keyinchalik Usmonlilar imperiyasining zaiflashuvi, o'zaro urushlarning ta'siri adabiy muhitga ta'sir qilmay qolmadi. XIX asrga kelib adabiyot ma'lum darajada o'z tarovatini yo'qotdi.

Uchinchi davr, ya'ni "Taqlid" davri XIX asr boshlaridan Tanzimot adabiyoti deb atalgan XIX asrning 60 yillarigachadir. Tanzimot adabiyoti davri turk adabiyotida Yevropa madaniyatining ta'siri sezila boshlagan davrdir. "Taqlid" davrida adabiy asarlar yaratilib tursa ham, bu asosan ustozlar tradisiyalarini davom ettirish bo'lib yirik shoirlar yetishib chiqmadi.

XIII asrda Anado'lida saljuqiylar hukmronlik qilib, sulton Oloviddin davri bu asrdagi eng porloq davrdir. Ammo 1232 yilda boshlangan mo'g'ul istilosi saljuqiylar hukmdorligiga barham berdi. Istilo davridagi zulm, qaroqchilik, har xil mazhablar o'rtasidagi kurash xalqni holdan toydirdi. 1308 yilga kelib saljuqiylar davlati turli bekliklarga parchalanib ketdi.

XIII yuz yilda urushlar ko'p bo'lsa-da, Anado'lida turk adabiyoti shakllana boshladi. Bu davrdagi istilolarga qaramasdan Konya, Sivas, Arzirum, Karaman kabi shaharlarda karvonsaroylar, jome, madrasa va boshqa me'morlik inshootlari bunyod etildi. Yirik shaharlarda ilm, san'at, adabiyot vakillari to'plandilar. Musulmon davlatlaridan ziyolilarning Anado'lga kelishi ham bu yerdagi adabiy va madaniy muhitga ta'sir qilmay qolmadi. Jamoliddin Rumi kabi davrining yirik allomalari ham Anado'lga kelib qoldi. Ammo ziyolilar ko'proq fors tilida so'zlashar va asarlar ham fors tilida yaratilardi. Bu davrda yaratilgan yirik asarlardan J. Rumiyning "Masnaviy"si ham fors tilidadir. Ayni paytda turk xalq og'zaki ijodi ta'sirida va yosh ziyolilar, turli tariqat vakillarining harakati tufayli turkiy she'rlar ham paydo bo'la boshladi. XIII asrda yashagan Xo'ja Dehqoniy "Saljuqiylar shohnomasini" yozgani ma'lum, biroq bu asar hanuzgacha topilmagan. XIII yuz yilning oxirlarida davlatni birlashtirishga harakat qilgan saljuqiylardan Karaman o'g'illaridan Mehmed Bey 1277 yilda turk tilini qo'llash haqida farmon chiqaradi. "Bundan buyon devonda, mahkamalarda, majlislarda va kishilar to'planadigan joylarda turkchadan boshqa til qo'llanilmasin" mazmunidagi buyruq o'z davri uchun katta ahamiyatga ega edi.

XIV asr boshlarida Sogut yerlaridagi kichik bir beylikka hukmdorlik qilgan Usmonlilar sekin asta kuchayib, kurashlarda g'alaba qozonib davlatni birlashtira boshladi. Anado'lida siyosiy birlik vujudga keldi. Bursa poytaxt shahar sifatida dovuq qozondi. Shoirilar, me'morlar faylasuflar bu shaharga yig'ila bordilar. Davlat mustahkamlanib, yuksalish seziladi. XIV asr turk mumtoz adabiyotining, devon she'riyatining boshlanish asridir. Bu davrda Xo'ja Ma'sud, Ahmadiy, Qozi Burhoniddin kabi ijodkorlar yetishib chiqdi.

XV asrda usmonlilar imperiyasi yanada kengaya bordi. 1453 yil, 29 mayda Istambulning fath etilishi Turkiya siyosiy hayotida juda katta voqea bo'ldi.

Istambulning olinishi bilan turklar Kichik Osiyoda hukmronlikni to'liq qo'lga kiritdilar. Ayni paytda Vizantiya imperiyasi tarixga ketdi. Istambulning boshkent bo'lishi tufayli shaharga butun Usmonlilar qo'l ostida bo'lgan yerlardan shoirilar, fozillar, me'morlar oqib kela boshladi. Istambul ham siyosiy, ham madaniy markazga aylandi. Ko'plab me'moriy yodgorliklar bunyod etildi. XV yuz yil oxirlarida turk devon adabiyoti "shakllanish" davrini o'tib bo'lib "yuksalish" davriga qadam qo'ygandi. O'rta asrlar adabiyotining asosiy adabiy turi bo'lgan she'riyatda an'anaviy yo'l davom ettirilishi bilan birga, yangi janrlarda asarlar ham yaratila boshlandi. Ayniqsa, masnaviy shaklida ko'plab asarlar yaratildi. Xalq og'zaki ijodi yo'lida she'r aytgan "oshiq"lar she'riyatida ham, tasavvuf ruhida asarlar yozgan shoirilar ijodida ham ko'tarilish ko'zga tashlandi. XV asrda nasr va tarixiy asarlar yozish, tazkiralar tuzish ko'paydi. Ammo nasriy asarlar tili juda jimjimador, majozli edi. Sinon Posho, Ashraf o'g'li Rumi, Orif Ali, Oshiq Poshozoda asarlari bunga misol bo'la oladi. "Sulaymon shohning o'limi", "Usmon G'ozining vasiyati", "Usmon G'ozining ro'yosi" (Oshiq Poshozoda) O'gitlar", "Ishq" (Sinon Posho), "O'g'uzxon va Dada Qo'rqu", "Usmon beyni o'g'uzlarga bey saylanishi" (Yoziji o'g'li Ali) kabi asarlar XV asr turk nasrining eng yaxshi namunalidir. Turk adabiyotidagi ilk satirik asar ham XV asrda yaratildi. Shayx, Ahmadi Doiy, Habibiy, Zaynab Xotun, Mehri Xotun, Masihiy, Jamoliy, Ahmad Posho, Ivaz Poshozoda Atoiy, Naqqosh Safiy, Najotiy, Visoliy kabi turk mumtoz adabiyotining go'zal namunalarini yaratgan shoirilar ham XV asrda yashab ijod qildilar.

JALOLIDDIN RUMIY (1207-1273)

O'rta asr Sharqining eng yirik allomalaridan Jaloliddin Rumiylar Xurosonning Balx shahrida tug'ilgan bo'lib, asl ismi Muhammaddir. J. Rumiylar taxallusi bo'lib, turklar Kichik Osiyoni Rum elid derdilar. Uning otasi Bahoiddin Valad o'z davrining yirik ulamalaridan biri edi. Muhammad Xorazmshoh bilan ixtilof tufayli zamonasining "Sultonul ulamo"si bo'lgan Bahoiddin Valad o'z oilasini olib Balxdan chiqib ketdi. Boshqa bir ma'lumotlarga ko'ra, Bahoiddin Valad mo'g'ul istilosi tufayli, oldindan Balx taqdirini sezgani tufayli shaharni tashlab ketgan, degan fikrlar bor.

Darhaqiqat, mo'g'ullar Balxni bosib olgach qatliom qiladi, to'rt yuzdan ortiq mashhur allomalarning boshi kesiladi.

Balxdan chiqqanlarida Jaloliddin 5 yoshda edi. Ularning oilasi Nishopurda, Bag'dodda, Makkada, Madinada, Damashqda, Xalabda, Oqshaharda yashaydilar. Bu mashhur shaharlarning qaysi biriga bormasin, Bahoiddin Valad hurmat-izzat bilan kutib olinadi, siyosat ahli ham, ilm ahli ham birdek e'zozlashadi. Oxiri turk sultoni Qayqubod (1219–1236)ning taklifi bilan 1229 yilda Konya shahriga kelib o'rtnashadilar. Bu vaqtda Jaloliddin balog'atga yetgan yigit bo'lib, otasining muridlaridan, asli samarqandlik bo'lgan Said Burhoniddinning Gavhar ismli qiziga uylangan (1225) edi. Gavhar Xotundan Jaloliddin ikki o'g'il ko'radi, kattasi Sulton Valad ke-lajakda shoir bo'lib yetishadi. Gavhar Xotun vafotidan so'ng, tul Ki-ra Xotunga uylanadi. Bu oilasidan Muzaffariddin, Olim Chalabiy va Malika Xotun ismli farzandlarini ko'radi.

Avvalo otasidan va davrining yirik allomalaridan ta'lim olgan Jaloliddin yirik mutafakkir, faylasuf, shoir bo'lib yetishadi. Uning iqtidori juda yoshligidayoq sezilgan emish. Mashhur mutasavvuf olim Muhiddin Arabiy hali bola Jaloliddinning otasi orqasidan keta-yotganini ko'rib, "Alloh, Alloh bir daryo orqasidan ummon keta-yotir" degan ekan. Darhaqiqat, 1231 yil otasining o'limidan so'ng o'rnga shayx bo'lgan Jaloliddin Rumiylar keyinchalik otasidan ham mashhur alloma bo'lib yetishadi. Uning adabiy-falsafiy merosi ni-hoyatda boydir. "Masnaviy ma'naviy" asari olti daftardan iborat bo'lib, 30000dan ortiq misrani o'z ichiga olgan. Bu asarni Jaloliddin Rumiylar umrining so'nggi 10 yilida yaratgan. "Devoni Kabir" ("De-

von Shamsul haqoyiq” ya’ni, “Haqiqat quyoshining kitobi” deb ham ataladi) 44000 misradan iborat bo’lib, 2073 g’azal jamlangan. Ruboiy va to’rtliklari 4000 misradan ortiq. “Fihi mo fihi” ya’ni “Nimaki undadir-undadir” (o’zbek tilida “Ichingdagi – ichingdadir” nomi bilan 1997 yilda nashr qilingan. Tarjimon Ulug’bek Abduvahobov) falsafiy asari, «Majolisi sab’o» diniy nasihat va o’g’itlardan iborat asari 147 maktubdan iborat “Maktubot” to’plami bor. Bu asarlar, asosan, fors tilida bo’lib, ularning juda oz qismini shoirning o’zi yozgan. Jaloliddin Rumiyning deyarli barcha adabiy merosi kotiblari tomonidan Jaloliddin Rumiylar aytib turganida yozib olingan. Bu narsa ulug’ mutafakkir merosini zarracha kamsitmaydi.

“Fors tilidagi Qur’on” - deb ulug’langan “Masnaviy”, “Nay taronasi”la,

Tingla, nay andoq hikoyatlar qilur,
Ayriliqlardan shikoyatlar qilur.

misralari bilan boshlanadi. Chunki nay tasavvufda oshiq, ya’ni ilohiy ishq oshig’ining ramziy obrazidir. Orif va oqil insonning o’zini ilohiy ishq yo’liga bag’ishlagan insonni komilning lutfi nihoyatda oshiqona va laziz bo’lishi kerak. O’zining toza hayotidan ayrilgan nayning “judolikdan shikoyatlar qilishi” orif insonning ruhi kabi hamisha boqiy ruhoniya olamiga intilishdir. “Masnaviy ma’naviy”da Jaloliddin Rumiylar o’zining ta’limotini, dunyoqarashini bayon qilgan. Hadis va oyatlar, xalq og’zaki ijodidan olgan masallar, naqllar, latifalar, ibratli voqealarga va hikoyatlarga o’ralgan falsafiy fikrlar asarning mohiyatini tashkil etgan. Insonlarga tushunarliroq bo’lishi va tezroq yetib borishi uchun shoir o’z ta’limoti asoslarini she’riyat tili bilan so’zlaydi. Rumiylar mutafakkir shoir sifatida murakkab so’fiyona fikrlarni, ramz bilan ishora qilingan mulohazalarni oddiy hayotiy tafsilotlari bilan tushuntirib beradi. “Rumiylar ming yillar davomida to’planib kelgan Sharq falsafasi va hikmati, islomiy haqiqatlarni omuxta etaolgan, tasavvuf va falsafani qo’shib, inson ruhi dialektikasini ochgan ulug’ mutafakkirdir. Uning qarashlarida biror-bir mutaassiblik, ko’r-ko’rona aqidaparastlik namunasini ko’rmaysiz. U tiyrak va hushyor ko’z bilan dunyoga nazar soladi, insonni qanday bo’lsa, shunday olib o’rganadi, inson qalbi to’ridagi eng nozik, eng inja, eng yashirin sirlarni oshkor etadi, ruhimiz iqlim-

laridagi o‘zimiz sezmagani qonuniyatlar, zaruriyatlarni ko‘rsatib beradi¹ (N. Komilov).

“Masnaviy”da insonning butunligi, ulug‘ligi, musaffoligi ham, nuqsonlari, xudbinlik oqibatida kelib chiqadigan illatlar ham tahlil etiladi. Bu illatlardan, nuqsonlardan qutulish, poklanish fazilatlarini bayon qilinadi. Rumiya uchun insonlar dinidan, irqidan, millatidan qat’iy nazar birdir. Muhimi u inson bo‘lganligi uchun qadrlidir. Tasavvufda, asosiysi, inson ko‘nglidir, kishilar turli tillarda so‘zlashadigan xalqlarga bo‘linishidan qat’iy nazar, ular bir-birini tushunishi, anglashi kerak. “Masnaviy”ning bosh g‘oyalari biri “so‘fiy tilni” ya’ni “tilsiz tilni” bilishga undashdir. Jaloliddin Rumiya mana shunday umumbashariy g‘oyalarni targ‘ib qilib yozadi:

Yana kel, yana
Kim bo‘lsang - o‘sha bo‘l,
Xohi kofir, xohi majusiy, xohi budparast,
Mayli yuz karra tavba qilgan bo‘l,
Mayli yuz karra buzgan bo‘l tavbani
Umidsizlik dargohi emas bu dargoh,
Qandoq bo‘lsang – shundoq kel...
(Mirtemir tarjimai)

Insonni ulug‘lash sharq she’riyatida hamisha birinchi planda bo‘lgan. Bu g‘oya J. Rumiya she’riyatida ham, falsafiy asarlarida ham, va’zlarida ham birdek o‘z ifodasini topgandir. Rumiya davrining buyuk notig‘i edi. Uning va’zlarini eshitish uchun juda uzoqlardan muxlislari kelishar va bu va’zlardan olam-olam ma’no, zavq olib qaytishar edi. J. Rumiya nutqlarini eshitish uchun Tabrizdan Muhammad Shams Tabriziy degan darvesh keladi. 1244 yil, 29 noyabrda davrning ikki ulug‘ insoni uchrashadilar. Hozir ham Turkiyada Jaloliddin Rumiya va Shams Tabriziy uchrashgan joy “ikki nahr uchrashgan” joy sifatida ziyorat qilinadi.

Shams Tabriziy bilan suhbatlar Rumiya yanada ilhom berdi. Bu ikki do‘st soatlab suhbatlashar, zohiriy va botiniy belgilar haqida bir-birining fikrini to‘ldirardi. Ular umrining oxirigacha dili bir do‘st bo‘lib qoldilar.

¹ Қаранг. Ж.Румий. Ичингдаги ичингдадур. Тошкент. "Ёзувчи". 1997й. 6-бет.

Rumiy bir umr ezgulikni, poklikni targ'ib qildi va o'zi komillikning namunasi bo'ldi. Mana hazratning shu ruhdagi ruboiysi:

Yaxshilik qil, zamon yaxshilik olsin,
Yaxshilar boshiga yaxshilik solsin.
Mol-dunyo barchadin, sendan ham qolur,
Yaxshi mol emas, yaxshilik qolsin.
(Sh. Shomuhamedov tarjimai)

Rumiy insonlarni ilm olishga, to'g'rilikka, soflikka yo'naltirdi. Har bir inson "Toji olam" bo'lishga intilishi darkorligini uqdirdi:

Bo'lay desang doimo sen shodu xurram,
Qayga borsang hamki aziz mukarram.
Ilm o'rganu pokiza va to'g'ri yur,
Shunda bo'lajaksan sen toji olam.
(Jamol Kamol tarjimai)

Asarlari fikrlashga, inson o'zligini tanishga boshlovchi Jaloliddin Rumiy umr bo'yi odamlar ongini ruhoniylar bilan charog'on etdi. U tushunchalarni she'riyat, musiqa orqali anglashni o'rgatdi. Rumiy ijodi o'zidan keyingi avlodlarga bir maktab bo'ldi. Ma'naviyatning yuksak cho'qqilarini egallashga chorladi. Sharqning Rumiydan so'ng yashab o'tgan deyarli barcha buyuk shoiralari uni o'ziga ustoz deb bildilar. Abdurahmon Jomiy "Masnaviy ma'naviy"ni benazir kitob, forsiydagi Qur'on deb ulug'lasa, hazrat Alisher Navoiy o'zining "Nasoyimul muhabbat" asarida Rumiyning yuksak hurmat va ehtirom bilan tilga oldi.

Mashhur sharqshunos Ye.E. Bertels "Jaloliddin lirikasi bu sohada bashariyat erishgan eng buyuk yutuqlardan biridir. Agar u G'arbda kengroq ma'lum bo'lganida, uning nomi jahon adabiyotining Shekspir, Gyote, Pushkin kabi gigantlari qatoriga o'tishi shubhasiz edi" - deb Rumiy ijodini juda yuksak baholagan edi. J.Rumiy ijodi bugungi kunda ham insoniyatning ma'naviy kamolotga yetishuvida xizmat qilmoqda.

Jaloliddin Rumiy ijodidan

UCh YO'LOVCHI HAQIDA RIVOYAT

Borishardi turk, arab, forsu yunon,
Shunda bir kimsa - anisu mehribon -

Xayr, deb bir tanga savg‘o ayladi,
Yo‘qki savg‘o, balki g‘avg‘o ayladi.
Fors dedi: “Bozor tushaylik shul zamon,
Aqchaga angur¹ olaylik, do‘sti jon!”
“Qo‘y bu gapni, - deb uni kesdi arab, -
Eynab² olsak aqchaga, bo‘lgay ajab!”
Turk dedi: “Behuda bu gaplar bari,
Mevalar ichra uzumdir sarvari!”
Shunda yunon ham aroga soldi so‘z:
“Hay, xarid etmoqqa stafil³ durust!”
Bas, ular bitta qarorga keldilar
Lek tushunmay, bahsu g‘avg‘o qildilar.
Barchada xohish uzum erdi faqat,
Barchasi birdek, uzum derdi faqat.
Lek aroga shum jaholat tushdi, bas,
Tish, qovurg‘a lat yedi, topdi shikast.
G‘ofilu g‘aflat so‘zidin mojaru,
Bizniki – birlik bila sulhu saloh...

G‘AZAL

Yuzingdan dastayi gul qilsa bo‘lgay,
Sochingdan shoxi sunbul qilsa bo‘lgay.
Egilgan qomatimni misli ko‘prik,
Ko‘zim daryosi maqbul qilsa bo‘lgay.
Qizil atlas kabi qonlig‘ yoshimdan,
Muhabbat otiga jo‘l qilsa bo‘lgay.
O‘shal sochingni har bir tolasini,
Asotir bo‘yniga g‘ul qilsa bo‘lgay.
Sen ul daryoyu men bir tomchi suvman,
Va lekin juzvni kull qilsa bo‘lgay.
Dilim yuz poradur har bir bo‘lakdan,
Fig‘on eguvchi bulbul qilsa bo‘lg‘ay.
Sen ul qand qofiyu men lomi talxman,
Va qofu lomdin qul qilsa bo‘lg‘ay.

¹ Ангур – узум маъносини англатади.

² Эйнаб – узум маъносини англатади.

³ Стафилъ – узум маъносини англатади.

Menga ham shiradir sening xayoling,
Bu shirindin rosa mo'l qilsa bo'lgay.
Uzoqdir yo'lu jonimdir piyoda,
Vale dilni chu duldul qilsa bo'lg'ay.
Xomush qil, ulki bir so'z demasingdan
Bu olam ichra g'ulg'ul qilsa bo'lg'ay⁴.

(Olim Bo'ri tarjimasi)

RUBOIYLAR

Yomonlik etib, yaxshilik istar esa kim,
Bilgilki, o'shal kimsaning iymoni yarim
Besh qo'lddek ayon-ku arpa ekkan kishiga
Bermasligi bug'doyni xudovandi karim!

Men xastayu zoru notavon yor g'amidan,
Ko'zdan yosh emas, oqadi qon yor g'amidan.
Bo'g'zimga yetar bo'lsa-da jon, yor g'amidan,
Yo Rabbim, ayirma hech qachon yor g'amidan⁵.

(Ergash Ochil tarjimasi)

⁴ Жаҳон адабиёти журнали. 1997 йил 5-сон, 179-180 бетлар.

⁵ Ўша ерда.

SULTON VALAD (1226–1312)

Karmanada tugʻilgan Sulton Valad Mavlono Jaloliddin Rumiyn-ing toʻngʻich oʻgʻlidir. U bir umr otasining tarbiyasini olgan, mavlaviylar muhitida tarbiyalanib voyaga yetgan zot. Konya va Shomdagi eng mashhur madrasalarda tahsil olib, ilohiy bilimlarni chuqur egalladi. Otasi J. Rumiylar vafotidan soʻng mavlaviylar suluki shayxi Husomiddin Chalabiy boʻladi, keyin S. Valad shayx boʻlib, Rumiylar taʼlimotini elga tanitmoq uning umrlik maqsadiga aylandi. S.Valadning shaxs sifatida shakllanishida Shams Tabriziyning taʼsiri ham kuchli boʻlgan. Sulton Valad shoir sifatida otasi Jaloliddin Rumiylar darajasiga yetolmasa-da, uning tashkilotchiligi kuchli edi. U bir umr otasining taʼlimotini rivojlantirish va targʻib qilishni oʻziga maqsad qilib qoʻyadi. J.Rumiylar asos solgan “mavlaviylik” tariqat oʻlaroq Sulton Valaddan boshlanadi, keyinchalik oʻgʻli Orif Chalabiy ham shu ishni davom ettiradi.

Sulton Valad buyuk faylasuf boʻlmasa-da, mavlaviylik tariqatining baʼzi qoidalarini ishlab chiqdi. Uning asarlari mazmuni ham mavlaviylik tariqati xususida boʻlib, asosan didaktik ruhdadir. Sulton Valadning bobosi Bahoiddin Valad va boshqa oʻziga zamon-dosh shayxlar haqida yozib qoldirganlari ayniqsa ahamiyatlidir. Rumiyning baʼzi asarlari toʻgʻridan-toʻgʻri Valad yozib qoldirgan man-balardan olingan.

Sulton Valad turk tilida yozilgan ilk sheʼrlar namunasini bergan shoir sifatida ham qadrli. Tasavvufiy ruhda boʻlgan, mavlaviylik ruhiyatini keng xalq ommasiga singdirish uchun yozilgan turkiylar sheʼrlarning uslubi oʻziga xosdir. Sulton Valadning devonida uch masnaviysi – “Ibtidonoma” (1291) “Rubobnoma” (1301) “Intihonoma” va “Maorif” nomli nasriylar asari bor. Shoirning adabiy merosi asosan fors tilida boʻlsa-da, devonda turkcha-forscha, turkcha-forscha-rumcha aralash baytlar, hamda turkcha sheʼrlar uchraydi. Jami 156 baytni tashkil qilgan “Rubobnoma”dagi bu turkiylar sheʼrlar 1301 yilda Kichik Osiyoda yozilgan sanasi aniq boʻlgan ilk turkiylar yozma adabiyot namunasidir. Shoirning turkcha devonini birinchi marotaba 1925 yilda Valad Chalabiy Izbudaq “Devoni Turkiy-i Sulton Valad” nomida jamlab eʼlon qilgan. Devonda asosan shoirning turkiyda yozgan adabiy merosi va masnaviylaridan parchalar olin-

gan. Adabiyotshunos olim Majdud Mansur o'g'li 1958 yili "Sulton Valadning turkcha manzumalari"ni tayyorlab nashr ettirdi. Shoirning turkiy tildagi adabiy merosi adabiyotshunoslikda "ilk saljuqiy she'rilar" nomida ham ataladi.

Sulton Valadning adabiyot oldidagi asosiy xizmati tasavvufiy, falsafiy ruhda turk tilida birinchi bo'lib asar yaratganidir. S.Valad asarlari mazmunan va shaklan yangilik bo'lmasa-da, o'sha davr adabiy mahsuli, til xususiyatlari jihatidan qimmatbaho merosdir. Turk tilida adabiy asarlar yaratishga turki bergan shoir mavlaviylikni sodda tilda, oddiy misollar bilan tushuntirishga harakat qiladi. Tomchi suv ummonga singib ketganidek, inson ruhi ham abadiyatga singib ketishini uqtiradi. Ko'zni ochib "tomchidek dengiz sari to'g'ri yurish, tomchidek dengizga qorishib mangu qolish" ya'ni abadiy ruh saltanatida bo'lish har bir so'fiy uchun maslakdir. Sulton Valad so'fiy shoir sifatida, asarlarida davr adabiy muhitini aks ettiraoldi-ki, bugungi kun uchun bu juda ahamiyatlidir.

"Maorif" asaridan

- Birov menga savol beribdi. Dedi: ba'zi darveshlarni ko'rdim, boshqa joylarda ta'qiqlangan samo' va qo'shiq majlislarini qizitadilar. Qanday bo'lar ekan, bu darveshlik mazhabiga to'g'ri keladimi, bunday ishlar ravomi?

Men javob berib dedim: Buni batafsilroq qilib, kengaytirib tushuntirish kerak edi, ammo muxtasar aytadigan bo'lsam, shuni bilginki, agar darvesh sidqu vafoli bo'lsa, jahd bilan yillar namozu ro'za, zikru xilvatninishlik shartlarini ado etib, Xudo talabida yurgan bo'lsa, botini mezon orqali Uni tark etgan va o'zining ham kamu ko'sti (nuqsoni)ni anglagan bo'lsa, u samo' (majlisida ishtirok etib), doira va nay, tanbur va rubob (ovozini) eshitganda Xudovandga yana ham yaqinlashadi, holati o'zgarib, ilohiy shavq ilhomida yonadi. Ishq va faqr muftilari buni u haqda ravo ko'radilar. Negaki, uning bundan maqsadi qurb (yaqinlashish) va Iloh jamolidan lazzatlanishdir.

Ammo namoz vaqtida hol va vajdga berilishga qo'ymadilar, chunki har bir maqsadning o'z mavridi, suratu rusumi bordir. Biroq bular bilan birga (ya'ni namozu ro'za bilan birga) samo'ga berilib, huzurlansa (ruhiy halovat topsa), uni boshqalarga qiyoslab hukm chiqarmaslik kerak. Zero, uning ibрати zohiran kufr bo'lib tuyulsa-

da, lekin aslida bu kufr zamirida din bordir va ma'ni yuzasidan ayni iymondir. Ammo boshqalarning ishratlari kufr ustiga kufr va zulmat ustiga zulmatdir. Faqr yo'lida qilinadigan qolgan barcha ishlar ham shariatning mag'zidir, demak, har bir narsaning mag'zi uning muxolifi bo'lolmaydi. Yong'oqning mag'zini shaftoli yoki o'rik mag'zi demaydilar. Shariat ommaning ibodatu toatidir – osonlashtirilgan yo'ldir, toki kishilar o'z yumushlarini bajarib, besh vaqt namoz vositasida Xudoyim taolo ibodatini ado etsinlar va Xudoni yodga olib tursinlar. Ularning mayl va ishlari kuchsiz bo'lganligi uchun bundan ortiqqa chidolmaydilar. Quruqlikdagi qushlar doimo suvda yurolmaydilar va tuproqdan butkul xalos bo'lolmaydilar, illo, goh-gohida suv atrofida yuradilar, suvdan ichadilar va u bilan badanlarini tozalaydilar, yana o'zlarining quruqlikdagi maskanlariga uchib boradilar. Bu (ish) baliqning vazifasidirki, “Alo salotihi doimuna” (namozlari doimiydir). Baliqlar dengizdan ajralib yashashlari mumkin emas, ularning haqiqati dengizdan paydo bo'lgan va dengiz bilan birgadir: “Rashsha alayhim min nuri” (nur yomg'iri yog'ilsin unga).

Shariatdan maqsad suvga va daryoga yuz burishdir, ammo xos bandalar bamisoli baliqlardek butkul daryo ichidadirlar va daryo ularning jonidir, ular daryo tufayli tirikdirlar, taomlari, kiyimlari, maskan-manzillari, oromu uyqulari, rizqu-ro'zlari ham daryodir, ya'ni: “Allazina yazkurunalloha qiyoman va qu'udan va alo junubihim va yataffakkuruna fi xaqqis samovati val-arzi” (Yeru ko'kning maxluqoti Alloh zikridadirlar va uning fikri bilan banddirlar).

Sulton Valad g'azallaridan

Qaro qoshlar, qaro ko'zlar jonim oldi, jonim oldi,
Musulmonlar neder bu, kim menga keldi, menga keldi?

Birodarlar, oshiq bo'ldim, ichib mayni dalli bo'ldim,
Kim aytur chaqirib endi: “Davo qildi, davo qildi!”

Seni ko'rdim, senga keldim, qo'lim tutgil, o'tga tushdim,
Nido berdi, dalli bo'ldim, meni Tangrim senga soldi.

Ne totlidir sening ishqing, ki mendan ko'nglimni oldi,
Anga bir jon fido etdim, ikki ming jon menga berdi.

Aning, kim joni nurlidir, Iso yanglig' ko'kka boqdi,

Ulovi jonli yer uzra ikkilanib ortda qoldi.

Seni ko‘rdim, senga keldim, ko‘zim ochdim, yuzing ko‘rdim,
Sado berdi, dalli bo‘ldim, meni ishqing senga soldi.

Seni ko‘rdim: kechar eding, jonim yo‘lin ochar eding,
Oshiqlaring sechar eding⁶, qolganin yildirim⁷ oldi.

Keksa-yu yosh seni sevar, seni istar, seni so‘ylar,
Quyosh yanglig‘ yuzing porlar, butun olam nurga to‘ldi.

Ey xaloyiq, jonni asrang, bu dunyodan qo‘lni siltang,
Ko‘zni oching, ko‘zni oching, ko‘ring Tangri nelar qildi.

Valad keldi, sizga aytar, ne istarsiz – sizingladir,
Oqil bo‘lgan meni bildi, dengiz bo‘ldi, guhar topdi.

* * *

Sening yuzing quyoshdir, yo‘qsa oydir,
Jonim oldi, ko‘ngil dag‘i ne aytur?

Mening ikki ko‘zim, bilgil, jonimsan;
Meni jonsiz qoldirding, bil, bu qaytur.

Ko‘zimdan chiqmagin, bu yer seningdir,
Mening ko‘zim senga yaxshi saroydir.

Ne o‘qdir bu, ne o‘qki tegdi sendin,
Mening bo‘ynim sundirdi; endi yoydir.

Tomosho-chun buyon kel va ko‘rgil sen,
Netay: ko‘zim yoshi daryoyu soydir.

Bu kun ishqing o‘tidan bahra oldik,
Biz(g)a qayg‘u emas, gar qoru loydir.

Valad yo‘qsil edi sensiz jahonda,
Seni topdi, demakki endi boydir.

* * *

⁶ Сечар эдинг – танлар эдинг.

⁷ Йилдирим – чақмоқ.

Mavlonodur avliyai barhaq, biling,
Ul neni buyursa gar, uni qiling.

Tangridan rahmatdur aning so‘zlari,
Tinglasa ko‘rlar – ochilgay ko‘zlari.

Qay kishikim bu so‘zla yo‘l olgay,
Tangri aning mukofotin tom bergay.

Yo‘q oxir molim ham mulkim-ki beray,
Do‘stligim mol birla ravshan ko‘rsatay.

Molni, ki Tangri menga berdi, budir,
Kim bu molni istayur, ul eslidir.

Esli kishining moli so‘zlar erur,
Molini berur, bu so‘zlarni olur.

Mol tuproqdir, bu so‘zlar esa qolur,
Eslilar moldin qochur, bunda turur.

So‘z qolar boqiy, dunyo foniy bo‘lur,
Boqiyni tut, quvgil anikim o‘lur.

Yolvorib zori-zori qilib anga;
Rahm ayla, Sen lutfingdin manga.

Ko‘zimni och, ki seni ravshan ko‘ray,
Tomchi kabi dengizga kirib, turay.

Men dag‘i tomchi kabi dengiz bo‘lay,
o‘lmayin, dengiz bo‘lib tirik qolay.

Eslilar hayron qolurlar bu so‘za,
Kim: “Xaloyiq xoliqi netgay biza?”

YuNUS EMRE (1239-1321)

O‘rta asrlarda yashagan turk shoirlari ichida turk tilida asarlar yozib, yozganda ham keng xalq ommasiga tushunarli tarzda ravon she‘rlar yaratib mashhur bo‘lgan shoir Yunus Emredir. Yunus Emre 1239 yilda Eski shahardan uncha uzoq bo‘lmagan, Porsuq daryosining Sakaryaga quyilish qismida joylashgan Sariko‘y qishlog‘ida

dunyoga keldi. Emre uning taxallusi bo'lib, tasavvuf suluklaridan biri "Tekke" sulukiga mansubligini bildiradi. Yu. Emre xalq orasida mashhur shoir bo'lsada, o'rta asr tazkiralarda u xaqda ma'lumot kam. Uning tavallud va vafoti sanalari ham nisbiydir. Ammo xalq orasida shoirning hayoti va ijodiga oid ko'plab rivoyatlar mavjud. Garchand bu rivoyatlar Yu. Emre mashhurligidan, keng ommaning unga muhabbatidan dalolat bersa-da, ayni paytda shoir hayoti haqida aniq haqiqatni bilishni mushkullashtiradi. Masalan: Turkiyada Bursa, Sivas, Sariko'y va boshqa o'n beshga yaqin joyda Yu. Emre qabrini ko'rsatadilar. Mulada esa Yu. Emre qabri, shoirning piri bo'lmish Tabduq Emrega murid bo'lganligi va uning eshigida qirq (ayrim ma'lumotlarga qaraganda o'ttiz) yil xizmat qilganligi, Yu. Emre ustoz fotihasini olib shoir bo'lganligi xaqida shunday rivoyat bor": Ocharchilik boshlanib, Yunusning oilasi qiynalib qoladi. Shunda Yunus chora izlab shayx Hoji Bektoshiy⁸ huzuriga keladi. Biroq nima maqsadda kelganini aytolmay turganida Hoji Bektosh "Duo istab keldingmi?",-deb so'raydi. Yunus bug'doy so'rab kelganligini aytadi. Hoji Yunusga so'rganidan ortiq bug'doy beradi. Uyiga qaytayotib Yunus o'zining xato qilganini sezadi, duo emas bug'doy so'rganidan pushaymon bo'ladi va orqaga qaytib Xoji Bektoshiydan duo so'rab kelganini aytadi. Hoji Bektosh Yunusni Tabduq Emrega yuboradi. Yunus butun qalbi bilan Tabduq Emrega murid bo'lib, uning uyida o'tin tashib xizmat qiladi. Kunlardan bir kun o'tin tashib keltirgan Yunusga Tabduq: "Yunus sen biror marta xam egri o'tin olib kelmading", - dedi. Shunda Yunus: "Bu dargohga egri bo'lgan hech bir narsa kirolmas", - deb javob beradiki, bu Yunusning piriga e'tiqodi yuksakligidan dalolatdir. Oradan qirq yil o'tadi. Tabduq Emre dargohida tez-tez fozillar majlisi bo'lib turar, bu majlislarda Yunus Go'yanda ismli ovozi shirali kishi ham albatta qatnashardi. Tabduq Emre: "Yunus Go'yanda kuyla" deb buyuradi. Go'yanda jim. "Qo'shiq aytgin Yunus, bizlar seni eshitmoq istaymiz" - deb takrorlaydi Tabduq. Yunus Go'yanda yana jim. Shunda Tabduq Yunus Emrega: "Tangrining inoyati ila senga murojaat qilish vaqti yetdi, biz bu xazinaning qulfini ochurmiz, sen kuyla", - deydi. Shunda Yunus Emre qirg'oqlaridan toshmoqchi bo'lgan daryodek toshib, jo'shib kuylaydi va keyinchalik xalq orasida mashhur bo'lib ketadi.

⁸ Хожи Бектош – шайх, Бектоший сулукининг асосчиси.

Bu rivoyatdan qat'i nazar Yunusning Tabduq Emrega murid bo'lganligi va shoir dunyoqarashida, uning shaxs sifatida voyaga yetishida Tabduq Emrening ta'siri katta bo'lgani aniq. Buni Yunus Emre asarlaridan ham ko'rish mumkin. Shoir adabiy merosi ancha boy bo'lib, uning xalq yo'lida yozilgan ko'plab she'rlari, g'azallari va "Risalat-al nusxiya" nomli didaktik ruhdagi dostoni bizgacha yetib kelgan. Shoir hayotligida devon tuzganmi, yo'qmi? Bu haqda turk adabiyotshunoslari turlicha fikr bildiradilar. Abulboqi Gulpinarli Emre hayotligida devon tuzgan desa, boshqa mashhur turk adabiyotshunosi M. Fuad Ko'prulu shoir devoni uning vafotidan ancha so'ng, izdoshlari tomonidan tuzilganligini aytadi. Ammo Yu. Emre she'rlarida shunday satrlarni uchratamiz:

Yunus o'lsa ismim ne ajab

O'qiyurlar mening bu devonimni.

Bundan ko'rinadiki, A. Gulpinarli fikrlari haqiqatga yaqinroq. Rivoyatlarga ko'ra Yu. Emrening 3000 dan ortiq she'rlari meros qolgan. Shoir vafotidan so'ng uning devoni Mulla Qosim ismli kimsa qo'lig'a tushib qoladi. Qosim dengiz qirg'og'iga borib Emre asarlarini o'qishga kirishadi. Birinchi marta mingta she'rini "shariatga qarshi ruhda" deb yoqib tashlaydi, ikkinchi mingtasini suvga oqizadi. Uchinchi ming she'rlarini o'qiyotganda Mulla Qosim o'ziga atalgan shunday misralarga ko'zi tushadi:

"Darvesh Yunus so'zlarini yolg'on dema,

Seni sinamoqqa Mulla Qosim keladi".

Mulla Qosim Yunusni valiy bilib, devonini o'pib peshonasiga surtadi. Aytishlaricha Qosim yoqib yuborgan mingta she'rni qushlar, dengizga tashlaganini baliqlar kuylarmish. Qolgan mingtasini odamlar o'qib zavqlanarmish. Balki haqiqatan ham Emredan ko'pdan-ko'p she'rlar qolgandir. 1986 yil Anqarada prof. F. Temurtosh nashr etgan Yu. Emre devonida, shoirning 325 dan ortiq g'azallari, she'rlari berilgan.

Yu. Emrening shu asarlari ham shoir badiiy mahorati, falsafiy qarashlari, o'sha davr she'riyatining saviyasi va turk tili haqida fikr yuritishga asos beradi. Shuning uchun ham shoir ijodini puxta o'rganish darkor.

XV asr oxirida yaratilgan "Viloyatnoma"da Emre haqida ham ma'lumot berilgan. Yu. Emre hayoti va ijodini o'rganishni boshlab

berganlardan biri avstraliyalik turkshunos Hammer Prugshtaldir. U XIX asrning birinchi yarmida turk adabiyotiga oid bir qancha tadqiqotlarni e'lon qiladi. Shoir shaxsiga qiziqish so'nggi paytlarda ancha kuchaydi. F. Ko'pruluzoda, Ali Hasan, A.S. Levend, N.S. Banarli, N. Qosim, K.G'. Temirtosh, S. Ayubo'g'li, A. Gulpinarli va boshqa turk adabiyotshunoslari shoir ijodi ustida ilmiy izlanishlar olib boradlar. Rus sharqshunoslari akademiklar A.E. Krimskiy, A.V. Gordlevskiy, adabiyotshunolar V.S. Garbuzova, L. Alkayeva, A. Boboyev, G.A. Gorbatkina, I.V. Borolina, V.B. Kudelinlarning ilmiy ishlarida xam Yu. Emrega taalluqli qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin. Masalan turkiyshunos olimi I.V. Borolina Yunus Emre she'rlarining sodda, ravon tildaligini ro'kach qilib, Yu. Emrening savodi bo'lganligiga gumon qiluvchilarga qarshi shunday yozadi: "Yunus Emra she'rlarini chuqurroq tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, u o'z davrining nihoyatda ma'lumotli kishisi bo'lgan. Arab va fors adabiyoti, o'tmish faylasuflarining ta'limotini yaxshi bilgan, zamondosh so'fiy shoirlarning ko'pchiligi bilan shaxsan tanish bo'lgan"⁹. Umuman adabiyotshunoslikda Yunus Emre devoning o'nga yaqin nusxasi ma'lum va mashhur.

Tasavvuf ta'limoti VIII asrda Sharqiy Arabiston, aniqrog'i Iroqda paydo bo'lib, so'fiylar dunyo boyliklariga qarshi chiqqanlar. Murakkab ta'limot bo'lgan tasavvufning asosi inson va uning xudoga munosabatidir. So'fiy shariat, tariqat, ma'rifat bosqichlaridan o'tgachgina haqiqatga erishadi, ya'ni "xudoning jamoliga" yetishadi. Tasavvuf tariqatining murakkabligi, yunalishlarining ko'pligi tufayli mutasavvuf shoirlarni bir yoqlama tushunish xollari xam ko'p bo'lgan. M. F. Kuprulu, M.A. Ayniy kabi turk olimlarining ilmiy tadqiqotlarida so'fizmning mingga yaqin ta'rifi va tavsifi borligi aytilgan. Ma'naviy boylikni haqiqiy boylik deb bilgan Boyazid Bistomiy, Mansur Xalloy, Attor, Jalolidin Rumi, A. Yassaviy, Ibn al-Arabi kabi tasavvuf tarixida alohida o'rni bo'lgan allomalar ijodi Yunus Emrega ilhom bag'ishlagan. Ayniqsa Ibn al-Arabi (1165-1224) va J. Rumiylarning ta'siri kuchli bo'lgan. Yu. Emre Rumi va'zlarini eshitish uchun Konya shahriga keladi va Rumi asos solgan mavlaviy suluki zikrlarida ishtirok etadi. Rumi bilan uchrashuv

⁹ Литература Востока в средние века. – М., 1970. –Стр.336.

Emreni yanada faol tasavvuf targ'ibotchisiga aylantiradi. Shoir Rumi bilan ko'rishganligini shunday ta'riflaydi.

Mavlono Xudobennigor bizga nazar qiladi
Uning ko'rkli nazari ko'nglimiz oynasidir.

Yu. Emre she'riyatida so'fiyona g'oyanigina emas, so'fiyona obraz va razmlarni ham ko'ramiz. Tasavvuf shoirlari ijodda ma'shuqa, do'st deb xudoni nazarda tutganlar, shamga o'zini urayotgan parvona - ilohga intilish, may ichib mast bo'lish - ilohiy zavq, jazava, yor bilan visol iloh bilan birlashib ketish kabi.

“So'fiyona poeziya qonunlariga ko'ra xudo to'g'risida faqat allegorik tarzdagina so'zlash mumkin. Shuning uchun ham uni do'st yoki makkora ma'shuqa deb ataganlarki, telbalarcha sevib qolgan darvishning qalbi unga intiladi. Tasavvuf poeziyada lirik muxabbat poeziyasining obrazli tilidan ustalik bilan foydalanilgan”.¹⁰

Emre she'rlaridagi real, dunyoviy obrazlar tagida ilohga intilish yotadi:

Yo'ldosh bo'laylik ikkimiz,
Kel, do'stga boraylik ko'ngil
Holdosh bo'laylik ikkimiz,
Kel, do'stga boraylik ko'ngil

Yu. Emre panteist sifatida xar bir narsani xudoning bir zarrasi deb biladi. O'zini tabiat bilan qorishib ketgandek his qiladi. U insonni ham xudoning bir zarrasi deb bilar ekan, xudoni ulug'lash bilan insonni ulug'lagandek bo'ladi. har bir narsa asliga intilganidek, inson ham asliga intiladi, ya'ni xudoga intilish kerak, intilish ilohiy ishqda ko'rinadi. Bu yo'lda inson, ya'ni oshiq turli holatlarga tushishi mumkin.

Goh esaman yellar kabi
Goh shoshaman yo'llar kabi
Goh toshaman sellar kabi
Kel, ko'r meni ishq nayladi!
Men Yunusi bechoraman
Boshdan-oyoga yaraman
Yor elida ovoraman

¹⁰ Гарбузова А.В. Турк адабиёти классиклари. – Т., 1960. – Б. 22.

Kel, ko‘r meni ishq nayladi¹¹.

Oshiq (shoir)ning ma’shuqa (xudo)ga ishq, ilohga yetishuvga intilishi tasavvuf shoirlari ijodida ko‘p uchraydi. O‘zidan keyin yashagan va turkiy tilda ijod qilgan deyarli barcha mutasavvuf shoirlarga ta’siri kuchli bo‘lgan Ahmad Yassaviy “Hikmat”ida buni yanada yaqqol ko‘ramiz:

Ishq bozori ulug‘ bozor, savdo harom,
Oshiq'larga sendan o‘zga g‘avg‘o harom,
Ishq yo‘liga kirganlarga dunyo harom,
Harna qilsang, oshiq qilg‘il parvardigor¹².

Hoja Ahmad Yassaviy satrlari bilan yuqorida keltirgani-miz Yu. Emre misralarida hamohanglik Yunus Emre A. Yassaviy ijodi bilan tanish bo‘lgan degan fikrni tasdiqlagandek bo‘ladi. Darhaqiqat, Yu. Emre misralarida ham mazmunan, ham shaklan hazrat Yassaviy ijodiga hamohang misralarni uchratamiz. Yassaviy: “turli-tuman kiyganlar, totli-totli yeganlar, tuproq aro yotmishlar” desa, Emre “Tongla qabristonga bordim, ko‘rdim jumla jahon yotar” matlasi bilan boshlanadigan g‘azalida Yassaviy fikrlarini davom ettirgandek “Yunus sen agar haqiqiy oshiq bo‘lsang, o‘zingni boylik bilan bezama, o‘zini boylik bilan bezaganlar bunda tuproq bo‘lib yotibdirilar”, - deydi. Emre ijodidagi bunday ohanglarni tarki dunyochilikning targ‘ibi sifatida emas, aksincha shoirning ruhiy isyoni sifatida tushunmoq lozim. Yunus Emre ham ijtimoiy voqelikdan noroziliklarini shu tariqa ifodaladi. Uningcha haqiqiy oshiq (so‘fiy) jannatni orzu qilmasligi, do‘zaxdan qo‘rqmasligi kerak. Oliy mukofot qalbni poklab, qalban Allohga (haqiqatga) yetishmoqlikdir. Shoir fikrlarini ifodalashda badiiy timsollardan keng foydalanadi. Uning asarlarida an’anaviy san’atlardan, Jolinus, Mansur Xalloy, Rumi, Xusrav, Anushervon kabi ko‘plab tarixiy shaxslar nomlarining uchrashi, Qorun, Majnun, Layli kabi folklordan yozma adabiyotga kirgan timsollar va “Qur’on”, “Tavrot”, “Injil”dek muqaddas kitoblardagi rivoyatlarga ishorani, bu kitoblardagi ramzlardan foydalanishni ko‘ramiz, bu shoirning chuqur ma’lumotli bo‘lganidan dalolat beradi.

¹¹ Хуршид Даврон. Қақнус. –Т., 1987. –Б. 79.

¹² Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. – Т., 1991. – Б. 106.

Hayot va o'lim, mutlaq borliq, ilohiy ishq, tabiat bilan uzviylik Emre ijodining asosiy mavzuidir. Shoir o'z fikrlarini ifodalashda tarixiy va afsonaviy shaxslar, folklordagi obrazlardan ko'ra ham ko'proq real hayotdagi, tabiatdagi narsalardan foydalanadi. Masalan, shoir oddiy daraxt umrini insonga qiyoslaydi. Niholning o'sib ulkan daraxt bo'lishi, gullashi, bir qancha vaqt gurkirab yashnashi va oxiri qurib halok bo'lishida insoniy hayot falsafasini ko'radi. Fasllar – qish va undan so'ng bahor kelishi esa uzoq hijronda bo'lgan oshiqning yor visoliga yetishi sifatida namoyon bo'ladi, kishi ko'nglidagi bahor, uning yorini ko'rib diliga nur yugurgani, qalbidagi chechaklari ochilgani. Emre so'fiy shoir sifatida inson va tabiatni doimo uyg'unlikda ko'radi. Jonli, jonsiz tabiat ilohiylikning turlicha ko'rinishlaridir xolos. Emre she'rlarida uchraydigan bulbul, qarg'a, bulut, daraxt va boshqa ko'pgina obrazlar shoirga haqiqatni aytishga xizmat qiladi. “Kul-il-haq” - to'g'ri so'zni aytish Yunus Emre shioridir. Emre haqiqatni ulkan dengizga, yolg'onni shu dengizda g'arq bo'lgan kemaga qiyoslaydi. Bashariyatning ilg'or farzandlari inson erki, haqiqat uchun qaysidir shaklda kurashganlar. Yunus Emre “xudo” inson qalbida, inson o'z qalbida “iloh”ni topmasa, boshqa hech qayerda topolmasligini aytib, insonni ilohiy darajada ulug'lar ekan, bundan “inson hech qachon qul bo'lishi kerak emas”, - degan mazmun chiqadi. Shoir lirikasidagi insoniy “may” ham botiniy, ham zohiriy, ham avvaliy, ham oxiriydir. Shoirning falsafiy qarashlari didaktik ruhdagi “Risalat-al-Nushiya” (risola kichik kitobcha, nussha (nasihat), aqldir. “Nasihatlar risolasi” deyish mumkin) dostonida yana ham ravshanroq aks etgan. “Risalat-al-Nushiya” dostoni 1307 yili yaratilgan bo'lib, 600 baytdan oshiqroqdir. Asarning kirish qismi nazm va nasrda yozilgan. Doston o'z navbatida yana olti qismga bo'linib, har bir qism alohida nomlangan. Allegorik ruhdagi “Risalat-al-nushiya” ichidagi har bir doston mustaqil syujetli va fikran tugallangandir.

Bular quyidagicha nomlangan:

1. “Ruh va Aql” dostoni.
2. “Qanoat” dostoni.
3. “Nafrat” dostoni
4. “Sabr ahvoli”.
5. “Nokaslik hollari”.
6. “Aql” dostoni.

“Risalat-al-nushiya”da Yunus Emre qarashlari yanada yorqinroq aks etgan. Dostonda shoirning dunyoni idrok qilishi, borliqni bilishda Aql va E’tiqod asosiy qurolligi ko’rsatildi. Unga muvofiq inson atrofidagi aniq moddiy borliqni bilishdan boshlab, moddiy borliqdan tashqari bo’lgan “mutlaq aql” haqiqatni bilishgacha bo’lgan yo’lni o’z aql-idroki, qalb shuuri bilan his qilib bosib o’tishi kerak. Asarning kirish qismida shoir to’rt unsur – yer, olov, suv, shamol (havo) haqida so’z yuritadi. Inson ham dunyoning bir bo’lagi sifatida shu to’rt unsurdan yaratilgan. Odamdagi yaxshi va yomon xususiyatlarning asosi ham, inson xarakteri – sa’jijasidagi qarama-qarshiliklar ham mana shu unsurlardandir. Yu. Emre nazdida insonda, umuman hayotda, yaxshilik urug’i ko’proq, shuning uchun doimo oxir oqibatda yaxshilik yengib chiqadi. Majoziy bu asarda voqealar “Aql” deb nomlangan shaharda kechadi. Shahardagi kurash, insondagi ziddiyatlarning – Kibr va Kamtarlik, Xasislik va Saxiylik, Ochko’zlik va Qanoat, Yolg’on va Haqiqat o’rtasidagi kurashidir. Insondagi “Rahmoniy va shaytoniy” kuchlarning kurashidir, bu. Nafs, ochko’zlik balosini shunday ta’riflaydi shoir:

Bu nafs o’g’lonlari to’qqiz kishidir,
Nifoq va shirk keltirmoq alar ishidir
Katta o’g’il Xasislik yaxshilik qilmas
Jahon mulki aning bo’lsada unga yetmas.¹³

Inson o’zidagi illatlardan – ochko’zlik, xasislik, xudbinlik, man-manliklardan qutulishi lozim, zero, insonning imkoniyatlari cheksiz, ruhiy kamoloti benihoya yuksakdir, - deydi shoir. Inson qudratiga ishonch, agar u xohlasa har qanday to’siqlarni yenga olishini ko’rsatish dostonga gumanistik ruh bag’ishlaydi. Zotan, odam qalb qusurlaridan o’zi qutulmasa, o’zligidan qochib hech qaerga borolmaydi. Didaktik dostonning ajoyib namunasi bo’lgan “Risalat al-nushiya” Yunus Emrening inson ruhiy qudratiga ishonchi, hurfikr shoirning haqiqatga yetishishi yo’lida hech qanday mashaqqatlardan qaytmasligining nazmiy in’ikosidir.

Yu. Emre turk she’riyati tarixida “oshiqlar she’riyati” deb nom olgan yo’nalishning asoschisidir. O’zbek kitobxonlari Yu. Emre she’rlarini Xurshid Davron, Azim Suyun, Jamol Kamol, Tohir

¹³ Али Чичекли. Юнус Эмре. Истанбул, 1971. –Б.164 (асар турк тилида).

Qahhor, Nafisa Sultonqulova tarjimasida biladilar. Shoir ijodi xaqida mazkur asar muallifining “Ishq asiri bo‘lgan jon” (“O‘zbekiston”, 1996 yil) kitobchasi va bir qancha ilmiy maqolalari matbuotda e‘lon qilingan.

Yunus Emre she‘rlaridan

So‘rdim guldin, chechakdan ...

So‘rdim sari chechakdin
Yuzing nedan saridir,
Chechak aytir ey darvish,
Ohim tog‘lar eritir.

Yana so‘rdim chechakdin
Sizda o‘lim bormidir,
Chechak aytir ey darvish,
O‘limsiz yer bormidir.

Yana so‘rdim chechakdin
Qishin narda bo‘lirsiz,
Chechak aytir ey darvish,
Qishin tuproq bo‘lirmiz

Yana so‘rdim chechakdin
Tamug‘a¹⁴ kirarmisiz,
Chechak aytir ey darvish,
Ul munkirlar yeridir.

Yana so‘rdim chechakdin
Uchmag‘a¹⁵ kirarmisiz
Chechak aytir ey darvish,
Uchmag‘ odam shahridir.

Yana so‘rdim chechakdin
Gul sizni neniz bo‘lir,
Chechak aytir ey darvish,
Gul Muhammad teridir.

¹⁴ Тамуга – жаҳаннам.

¹⁵ Учмақа – жаннат.

Yana soʻrdim chechakdin
Atoni¹⁶ bilarmisiz,
Chechak aytir ey darvish,
Ato mingdan biridir.

Yana soʻrdim chechakdin
Qirqlarni bilarmisiz
Chechak aytir ey darvish,
Qirqlar ¹Oллоh yoridir.

Yana soʻrdim chechakdin
Rangni nerdin olursiz,
Chechak aytir ey darvish,
Oy ila Kun nuridir.

Yana soʻrdim chechakdin
Boʻyning nedin egridir
Chechak aytir ey darvish,
Koʻnglim Haqqa toʻgʻridir.

Yana soʻrdim chechakdin
Ona-otang bormidir.
Chechak aytir ey darvish,
Bu ne ajab soʻrovdir.

Yana soʻrdim chechakdin
Sen Kaʼbani koʻrdingmi,
Chechak aytir ey darvish,
Kaʼba Oллоh uyidir.

Yana soʻrdim chechakdin
Boqqa kirsam ne boʻlur,
Chechak aytir ey darvish,
Meni isla - ketaver.

Yana soʻrdim chechakdin
Sen Sirotni koʻrdingmi,
Chechak aytir ey darvish,
Ul hammaning yoʻlidir.

¹⁶ Ато – Одам Ато назарда тутилмоқда

¹ Қирқлар ғайб валиларининг бир гуруҳи

Yana soʻrdim chechakdin
Koʻzing nechun yoshlidir,
Chechak aytir ey darvish,
Bagʻrim yara - toshlidir.

Yana soʻrdim chechakdin
Yunusni bilarmisan,
Chechak aytir ey darvish,
Yunus Qirqlar yoridir.

(Azim Suyun tarjimai)

* * *

Ilm ilm bilmakdur, ilm oʻzni bilmakdur,
Sen oʻzingni bilmasang necha bor oʻqimoqdur.
Oʻqimoqdan maʼni ne – kishi Haqni bilmoqdur,
Chun oʻqiding, bilmasang, ha, bir quruq emgakdur,
Oʻqidim, bildim dema, koʻp toat qildim dema,
Haqni taniy olmasang, abas yerga yelmakdur.
Toʻrt kitobning maʼnosi jam boʻlgan bir alifda
Sen alif dersan, Xoʻja maʼnosi ne demakdur.
Yunus Emra der, Xoʻja, mayli borgil ming hajga,
Hammasidan yaxshisi bir koʻngilga kirmoqdur.

(Nafisa Sultonqulova tarjimai)

AHMADIY (1329-1413)

Tojiddin Ahmad ibn Ibrohim hayoti va ijodi xaqida bizgacha yetib kelgan maʼlumotlarda chalkashliklar mavjud. Manbalarda, shoir tugʻilgan va vafot etgan sana koʻrsatkichlarida ham farq bor. Garmiyonda (baʼzi manbalarda Sivas, Istambul koʻrsatilgan) tugʻilgan Ahmadiy boshlangʻich maʼlumot olgach, bilim olish uchun Qoxiraga joʻnaydi. Qohirada oʻz davrining mashhur tabibi Shamsiddin Muhammad al Fanoriydan tabobat ilmini oʻrganadi. Ahmadiyning Qoxirada necha yil yashaganligi va qachon vataniga qaytganligi haqida aniq maʼlumotlar yoʻq. U 1403 yili Amasega kelganda, Anqara yaqinidagi jangda Boyazid ustidan gʻalaba qozongan Amir Temur ham oʻsha yerda ekan. Ahmadiy Temurga bagʻishlab qasida yozadi va Temur uni oʻziga nodim qilib oladi. Lekin, tez orada Ah-

madiy Amasedan qochib, Boyazidning to'ng'ich o'g'li shahzoda Sulaymon hukmdorlik qilayotgan Edirna shahriga boradi.

Text talashgan shahzoda Mexmet o'z akasi Sulaymonni 1410 yilda o'ldiradi. Ahmadiy yana Amasega qaytib kelib umrining oxirigacha shu yerda qoladi.

Shahzoda Sulaymon saroyida yashagan vaqt Ahmadiy uchun sermahsul ijodiy davr bo'ldi. U hukmdorni ulug'lovchi bir qancha qasidalar va g'azallar yozadi. Ahmadiy nomini turk adabiyoti tarixiga olib kirgan mashhur "Iskandarnoma" dostonini ham shoir o'sha vaqtda yaratgan.

Iskandar Zulqarnayn mashhur tarixiy shaxslardan bo'lib, uning haqida ko'plab afsona va rivoyatlar to'qilgan. Sharqda birinchi bo'lib Iskandar obrazini badiiy adabiyotga olib kirgan shoir Abulqosim Firdavsiydir. Firdavsiyning "Shohnoma"si bu paytda xali turk tiliga tarjima qilinmagan bo'lsa ham arab va fors adabiyoti bilan yaxshi tanish bo'lgan Ahmadiy "Shohnomada"dan xabardor bo'lishi mumkin. Ahmadiy o'z dostonini yaratishda asosan Nizomiyya suyansada, shunchaki ergashgani yo'q, balki ijodiy yondashdi. U dostoniga Kichik Osiyo tarixidan hikoya qiluvchi butun bir bob kiritdi. Ahmadiy "Iskandarnoma"sida o'z davrining ilm-fani xaqida ancha keng ma'lumotlar berganki, bu ayniqsa qimmatlidir. Shuningdek u Usmoniylar sulolasining tarixini ham ancha mukammal yozadi. Tradision Sharq adabiyotida Iskandar obrazi olijanoblikka xizmat qiluvchi hukmdor, adolatparvar, ideal shoh sifatida tasvirlangan. Bu narsa Ahmadiy dostonida xam ko'rinadi. Ahmadiy Iskandarni Eron taxtining vorisi, makedoniyalik Filippning qiziga uylangan Doroning o'g'li sifatida tasvirlaydi. U buyuk allomalar Arastu, Suqrot, Aflotun, Gippokratlardan ta'lim oladi. U harbiy yurish qilib, Hindiston, Xitoy, Misr va boshqa ko'pgina mamlakatlarni o'ziga bo'ysundiradi. Iskandarning sarguzashtlari nihoyatda qiziqarli qilib hikoya qilinadi. Iskandar Zulqarnayn muqaddas shahar Makkani ham zabt etgach, o'zini butun dunyo hukmdori deb bilib, endi o'lmaslikning, bu dunyoda boqiy qolishning yo'lini qidiradi. U tiriklik suvini topish uchun Zulmat mamlakatiga safar qiladi. Ammo tiriklik suvini topish unga nasib qilmaydi va tez orada Iskandar vafot qiladi. Ahmadiy doston yozishda faqat Firdavsiy va Nizomiy asarlarigagina suyanib qolmadi. U Iskandar haqidagi xalq to'qigan afsonalardan ham foydalandi. Shuning uchun Iskandar bilan Gulshohning muhabbati haqida ishqiy-

romantik tarixni dostoniga kiritdi. Soʻfiyona asarlarga xos boʻlgan ikki yoʻnalishlik, yaʼni real borliq va majoziylikning qorishib ketishi “Iskandarnoma”ning xarakterli xususiyatlaridan. Ahmadiy ilm-fanni tiriklik suvi deb biladi. Ilm-fanni chuqur egallagan kishining nomi abadiylikka erishadi. Iskandar bilan olishadigan yovuz kuchlar insondagi illatlar timsolidir.

Soʻfiy adabiyotida ilm-fan haqiqatga olib boruvchi yoʻl sifatida qaralgan. Shuning uchunmi shoir dostonida ilm-fan haqida keng maʼlumot berilgan. Badiiy jihatdan doston juda yuksak darajada emas. Ammo, 16500 misradan iborat boʻlgan bu doston, turk tilida, dunyoviy temada yaratilgan ilk masnaviy sifatida, oʻsha davr adabiy saviyasi, maʼrifiy darajasi, til namunasi sifatida ahamiyatlidir. Ahmadiyning ikkinchi dostoni “Jamshid va Xurshid” xam fors adabiyoti taʼsirida yozilgan. Chin podshosining oʻgʻli Jamshid tushida goʻzal bir qizni koʻrib sevib qoladi. Jahonning koʻp mamlakatlarini kezgan sayyoh rassomdan tushida koʻrgan qiz yunon hukmdorining qizi – Xurshid ekanligini biladi. Jamshid yuz minglik qoʻshin bilan Rum eliga qarab joʻnaydi. U suvsiz sahrolardan, qalin oʻrmonzorlardan oʻtib, yirtqich hayvonlar bilan olishadi, jang qilib ajdarhoni, devni yengadi. Dengizda kemasi halokatga uchrab, oʻzi tasodif bilan qutulib qoladi va Rumga keladi. Xurshid ham bir koʻrganda Jamshidni yaxshi koʻrib qoladi. Ikki sevishganlar oʻrtasidagi muhabbatga Xurshidning onasi qarshi chiqadi. Koʻpgina sarguzashtlar, raqiblar bilan yakkama-yakka jang qilishlar va gʻolib kelish oqibatida ikki sevishgan murodlariga yetadilar va Jamshidning vatani Chin yurtiga keladilar. Ahmadiyning bu dostoni ham tasavvufiy ruhda boʻlib, obrazlar allegorik maʼnoga ega. Jamshid va Xurshid haqiqat va iloh boʻlsa, ajdaho – manmanlik, uning yetti boshi – hasad, kibr, ochkoʻzlik va boshqa illatlarning timsolidir. Ahmadiy oʻz dostonlarida tasavvufni targʻib qilishga intilgan boʻlsa, lirik sheʼrlarida real hayotga bir muncha yaqinlashadi. Fuzuliy Ahmadiyni xayot shodliklarini kuylashda Abunuvosga tenglashtirgandi. Ahmadiy shoir boʻlibgina qolmay, mohir tarjimon ham edi. Ibn Sinoning “Al-qonun” kitobini turk tiliga tarjima qilgan.

Sakkiz ming baytdan ortiq devoni qasidalar, gʻazallar, tarkibandlardan iborat. Qasidalarning koʻpi Amir Sulaymonga bagʻishlangan. Zamonasining mashhur shoiri boʻlgan Ahmadiy xat-totlik ham qilgan, musavvir boʻlgan.

Ahmadiy “Iskandarnoma”sidan

Bundan ham ot surdi tag‘in shahriyor,
Anda bordiki bo‘ldi zulmat oshkor.
Dedilar shohgaki: ey shohi zamin,
Chashma shu zulmat ichidadir, yaqin.
Bundan-unga garchi oz manzil turur,
Lek yo‘li boshdan-oxir mushkul turur.
Shoh dediki; xaq bizga oson etar,
Mushkulu osonini yakson etar,
Ranj ichida o‘rin olmish chu ganj.
Ne bo‘lur ganj izlagan ham cheksa ranj.
Chekmaguncha ishqi yo‘lida balo,
Ma‘shuqin ko‘rmoqqa yo‘q o‘zga davo.
Bas sipoxi birla surib qayta roh,
Naq o‘sha zulmat ichiga kirdi shoh.
Ketdilar zulmat ichida bir zamon,
Bir kecha barobar qo‘pdi nogihon,
Birdaniga ra‘du raxshon bo‘ldi barq,
O‘ylagaysan, o‘tga yondi g‘arbu sharq.
Bahri to‘kildi havodan mavji-mavj,
Selu sel oqardi yerdan, favji-favji
Shundoq to‘fon qo‘pdikim, - to‘foni Nuh,-
Fath edi oning qoshida ul fatuh
Zulmat qo‘ydi zulmat ustiga qadam,
O‘ylagaysan, qo‘pdi zulmati adam,
Lashkaru shox saflarini buzdilar,
Yo‘l-yo‘lakay bir biriga ozdilar.
Chunki ko‘rmaslardi bir-biri ayon,
Ozdilar bir-biridan begumon.
Hizirkim – bu yo‘lda erdi kadxudo,
Bizzarura shohdin tushdi judo.
Kimini ul xalqning etdi seli g‘arq
Kimin oldi yel va kimin yiqdi barq,
Kim adashdi-andin bo‘lmadi nishon,
Kim o‘lik yoki tirik – ermas ayon.
Bu qabili ishni ko‘rib – bildi shoh:
Hech topilmas bu topilmas suvga roh,

Narsakim odamga qismat bo‘lmagan –
Garchi ko‘p jahd etsa ham topolmagan.
Chunki nochor bo‘ldi, ketga qaytdi ul,
Lek topilmas erdi hech kelgan u yo‘l.
Ketisharkan, bo‘ldilar bu yerga duch,
Toshlari gavhardi oning g‘uj va g‘uj.
Biri yoqut edi, biri la‘li nob,
Yoki feruza to‘kilmish behisob.
To‘rt taraf gavhar sochilmish shab chirog‘,
Ravshan o‘lmish gavharning nuri-la tog‘,
Shohu-lashkar u guhardan begaron –
Olishib bo‘ldilar u yerdan ravon.
Jahd etib chun yurdilar mo‘l, bir zamon –
Chiqdilar zulmat ichidan nogahon,
Ko‘rdilarkim, lashkarning bir nisfi pok –
Qolibon u yerda bo‘libdi halok
Xizrni izlashib topolmadilar,
Qaerga yo‘qolibdi – bilmadilar.
Sezmadilar oni kim ketmishdi,
Be ta‘ab obi hayotga yetmishdi,
Chunki u anga etilmishdi ta‘yin,
Lojaram ro‘zi anga bo‘ldi hamin.

G‘azallaridan

* * *

Eltgin mening salomimni dildorga, ey sabo,
Arz aylagin payomimni ul yorga, ey sabo.
Sochgil binafsha sochlarni gul yonoq ustiga,
Taratgin mushki anbarni gulzorga, ey sabo.
Pinhonavor yorning eshigiga borsang agar,
Ko‘rsatma zinhor o‘zingni ag‘yorga, ey sabo.
Bechoraligimni mening ul yorga bayon qil,
Shoyadki topar dardimga bir chora, ey sabo.
Vuslat mayiga yetmas qo‘lim, notavonman,
Qancha taxammul aylaram ul xorga, ey sabo.

Degilki, Ahmadiyga necha zahmat berarsan
Ayyor, g'amzali ko'zi makkorga, ey sabo.

HOJI BAYRAM (1352–1429)

O'z davrida shoir va shayx sifatida juda katta e'tiborga sazovor bo'lgan Hoji Bayram Chubuk daryosining vodiysidagi Zulfozil qishlog'ida dunyoga keldi. Uning otasi Ahmad dehqonchilik bilan shug'ullangan. Boshlang'ich ma'lumot olgach, tahsil olishni madrasada davom ettiradi. Hijoza va Shomga borib tasavvuf shayxlaridan ta'lim oladi. Bursa va Oqsaroyda bo'lib, so'ngra Anqaraga kelib mudarrislik qiladi. Tasavvuf ta'limotini puxta o'rgangan Hoji Bayramning o'zi ham pirlik maqomiga yetib "Bayramiylik" (Malomatiylik) tariqatiga asos soladi. Malomatiy tariqatidagilar o'zlarining fazilatlarini ko'z-ko'z qilmas, keng xalq ommasidan o'zlarini yuqori qo'ymas, aksincha xalqning og'irini yengil qilishga harakat qilardilar. Hoji Bayram asos solgan tariqat darveshlari o'zlarini ko'pchilikdan olib qochmay foydali ish bilan shug'ullanishi darkor edi. Dehqonchilik, tijorat, hatto lozim bo'lsa askarlik ham qilishardi. Umuman, xalqqa foydali bir ish bilan shug'ullanish ularning maslaklaridan bo'lgan. Bayramiylik tariqati tasavvuf oqimining xalqqa foydali, xalq manfaatini ko'zlovchi yo'llaridan biri desa bo'ladi. Bayramiylik tariqati xalvatiylik va naqshbandiylik tariqatlari asosida vujudga kelgan deyish mumkin. Bunda Hoji Bayramga Oqsaroydagi Shayx Hamidiy Valining ta'siri kuchli bo'lgan. Hoji Bayramning tasavvufiy ruhda she'rlar aytuvchi tekke shoiri va shayx sifatida obro'si shu qadar oshib ketdiki, undan cho'chigan sulton Murod II uni Edirnaga yuboradi. Keyinchalik yana Anqaraga kelishiga ruxsat berib, hatto uning darveshlarini soliqdan ozod qiladi. Hoji Bayram Anqarada jome mudarrisi bo'lsa ham dalada muridlari bilan barobar mehnat qilgan. Tirikchilik uchun lozim narsalarni o'zlari ishlab topib, ortiqchasini muhtojlarga ulashgan. Tasavvufning buyuk shayxlari va fozillari orasida Hoji Bayram juda obro'li bo'lib, uni Anqaraning ma'naviy qiyofasi sanardilar. Mavlono Jaloliddin Rumidan keyingi ulug' shayx va shoir deb bilardilar. Hoji Bayram tekke shoiri sifatida dovuq qozongan ekan, turk tekke she'riyati haqida biroz ma'lumot berish o'rindir.

Tekke-ma'lum bir tariqatdagi darveshlarning yig'iladigan dar-gohi. Ilk tekke Shomda (Suriya) VIII asrda Abu Hoshim tomonidan qurilgan. Har bir tariqatdagi darveshlarning salomlashishi, kiyinishi, soch-soqol qo'yishlari o'ziga xos bo'lgan. Tariqatdagi zikr tushish usullari ham turlichadir. Tekkelarda asosan tasavvufiy ruhda she'rlar o'qilib, musiqaga solingan. Tekke shoirlarining ko'pchiligi tariqatlardan yetishgan shayx va darveshlardir. Fikriy asosi islomiyat va tasavvuf. Ollohning go'zal sifatlarini madh etish, jamoli mutlaqqa oshiqlik, ishq ilohiy ular she'riyatining asos mazmunidir. Tekke shoirlari devon shoirlaridan farqli o'laroq, keng xalq ommasiga xito-ban she'rlar yozganlar. Tariqatlarning markazdan uzoq qishloqlarda ham keng tarqalganligi, ommaning asosiy qismi savodsiz bo'lganligi sabablari ham tekke shoirlarining sodda tilda, xalq ommasiga tushunarli tarzda yozishlarini talab qilgandir. Tekke shoirlari o'z as-arlarini o'qimishli fozillardan savodsiz cho'pongacha tushunishlarini istardilar. Ko'pchilik tez ilg'ab olishi uchun asarlarni kuyga solib, qo'shiq tarzida kuylashardilar.

Tekke shoirlari ko'proq Anado'li shahar, qishloqlarida yashab ijod etganlar. Ommaning ma'naviy yuksalishida, bilim va hunar egasi bo'lishida bu shoirlarning xizmati kattadir. Ularning o'zlari ham ilmi kishilar bo'lib, arab, fors tillarini bilar va zamonaviy bilim saviyasidan ham xabardor bo'lganlar. Chuqur falsafiy fikrlarni xalq tushunadigan tarzda, sodda tilda anglata olganlar.

Tekke shoirlari asarlarini devon shoirlaridek g'azal, masnaviy shaklida yoki xalq qo'shiqlari (ko'shma, turku) tarzida yozganlar. Maxsus tekke nazm shakli yo'q. Vazn asosan barmoq vazni bo'lib, aruz ham qo'llanilgan. Tekke shoirlari nazm tiliga alohida e'tibor berganlar. Tekke she'riyati tili devon she'riyatidek murakkab, yoki soz shoirlarinikidek juda sodda ham bo'lmagan. Buning sababi ularning she'rlarida tariqat tushunchalari, ilmi, falsafasi aks etishi va ayni paytda ko'pchilik anglay oladigan bo'lishi kerakligidir. Aytish mumkinki, tekke shoirlari tili devon va soz shoirlari tili oralig'idagi she'r tilidir. Tekke shoirlari asosan so'fiyona ishq, dunyoning fo-niyligi, nafsning qabohati, insoniy axloq mavzularini qalamga olib jo'shqinlik bilan kuylaganlar. Ruhning holati, sog'inch va istaklar ilohiy va real hayotning go'zal tasvirlari bilan qorishiq holda aks et-tiriladi. Bu yo'lda tekke shoirlari devon she'riyatida xalq she'riyatida qo'llangan majozlar, ramzlardan, xalq maqol, matallaridan, tariqat

atamalaridan ustalik bilan foydalanadilar. Turk tekke she'riyati XIII asrdan boshlanib, XIV–XV asrlarda eng gullagan davridir. XX asrgacha tekke shoirlari asarlar yaratsa-da, avvalgi shukuhi susaygan edi. O'rta asrlar turk she'riyatidagi asosiy uch yo'nalishning biri bo'lgan tekke she'riyati (yana devon shoirlari va soz shoirlari ijodi ko'zda tutiladi) o'ziga xos fikrlash tarzi bilan ajralib turadi.

Ana shunday o'z yo'liga ega bo'lgan shoir Hoji Bayram tariqatda o'z yo'lini ochganidek, she'riyatda ham "maktab" yaratganini turk adabiyotshunoslari alohida ta'kidlaydilar (mn: A. Qaboqli). Uning xalifasi bo'lgan yoki tariqati shayxlaridan yetishib chiqqan shoirlar Vizoli Qayg'usiz (?-1562) Ahmad Sarbon (1545-1646), Shayx Ibrohim (?-1655), G'oibiy (?-1663), Idrisiy Muxtefiy (?-1615), Sari Abdullah (?-1660) kabi shoirlarni Hoji Bayram izdoshlari deyish mumkin.

Hoji Bayramning she'rlari Yunus Emre she'rlariga hamohangdek. Bir misra yoki baytda ishq ilohiy haqida, biror falsafiy fikrni tushunarli tarzda bayon qilib berish Hoji Bayram she'rlarining xususiyatlaridan. Turkiy tilda so'fiyona qarashlarni nozik lirik uslubda ifodalash, o'ynoqilik xos uning she'rlariga. Shoir yonib yashamoqni, ko'ngli hamisha ilohiy ishq o'tida yonishini istaydi.

Ne bo'ldi bu ko'nglum, ne bo'ldi bu ko'nglum
Dardu g'am ila to'ldi bu ko'nglum
Yondi bu ko'nglum, yondi bu ko'nglum
Yonmoqda darmon topdi bu ko'nglum
Yon, ey ko'ngul yon, yon ey ko'ngul yon!
Yonmoqdan bo'ldi dardimga darmon
Parvona kabi, parvona kabi
Sha'm ishqida yondi bu ko'nglum¹⁷.

(tarjima bizniki – A. A.)

XIV asr oxiri XV asrning birinchi yarmida yashab o'tgan tekke shoirlarining peshqadami, faylasuf, bayramiylik tariqatining asoschisi Hoji Bayram millat ma'naviyatining yuksalishida muhim xizmati singgan shaxslardandir.

¹⁷ Қабоқли А. Турк адабиёти. 2-жилд. – Истанбул, 1997. – Б.394.

Hoji Bayram she'rlaridan

Na bo'ldi ko'nglim, na bo'ldi ko'nglim,
Dardu g'am ila to'ldi bu ko'nglim.
Yondi bu ko'nglim, yondi bu ko'nglim,
Yonmoqqa darmon topdi bu ko'nglim.

Yon ey ko'ngil yon, yon ey ko'ngil yon,
Yonmoqdan topdi dardiga darmon.
Parvona kabi, parvona kabi,
Sha'miga oshiq yondi bu ko'nglim.

Garchi u yondi, garchi u yondi,
Rangiga jumla olam bo'yandi.
O'zida topdi, o'zida topdi,
Matlabini xush bildi bu ko'nglim.

Savodi a'zam, savodi a'zam¹,
Balki bo'libdir arshi muazzam.
Matlabi jonon, matlabi jonon,
Bo'lsa ajabmi, endi bu ko'nglim.

Sayri billohdr, sayri billohdr,
Li ma allohdr, fano fillahdr.
Ayinasinda, oyinasinda,
Kirdi, sivoni² topdi bu ko'nglim.

“Al faqru faxru, ol faqru faxri”³,
Demadilarmi Ul olamlar faxri.
Faqr faxrini, faqr faxrini,
Mahvu fanoda topdi bu ko'nglim.

Bayramiy endi, Bayramiy endi,
Bayram etarsan yor ila endi.
Hamdu sanolar, hamdu sanolar –
Yor ila bayram qildi bu ko'nglim.

¹ Саводи аъзам – 1) катта шаҳар, 2) Маккаи мукааррама.

² Сиво – бошқа, ўзга.

³ “Ал фақру фахри” - “Фақрлик фаҳримдир” (ҳадис).

Bilmoq istasang o'zni,
Jon ichra izla jonni.
Jondan kechib top uni,
Sen seni bil, sen seni.

Kim bilsa af'olini,
Ul bildi sifotini.
Unda topdi zotini,
Sen seni, bil sen seni.

Ko'ringan sifotingdir,
Uni ko'rgan zotingdir.
O'zga na hojatingdir;
Sen seni bil, sen seni.

Kimki hayratga toldi,
Qalbi nurga g'arq bo'ldi.
Tavhidi zotni topdi,
Sen seni bil, sen seni.

Bayram o'zini bildi,
Bilganni unda topdi.
Topgani o'zi bo'ldi,
Sen seni bil, sen seni.

* * *

Hech kimsa torta olmas, og'ir falakning yoyi,
Dardiga ko'ngil berma bir kun oladi voyi.

Chun u yuzini burdi, bir lahza qaror etmas,
Necha sarni poy etar, do'nar-sar etar poyi.

Bir foniy vafosizdir, qavliga inonma hech,
Goh boyni etar yo'qsil, goh yo'qsil etar boyni.

Bayram, hamma olimlar bu ma'ning ostinda,
Qofdan Qofga hukm etar, bilmas bu muammoni.

Vohiddir ul vahbatda, kasratda fikr tafriq,
Xizr yetmadi bu sirga, bildirmadi Musoni.

Miskin hoji Bektosh, sen dunyoga ko'ngil berma,
Bir ulug' imoratdir, olma boshga savdoni.

* * *

Mening maqsudim olamda emasdir, lekin illo hu,
Bu mening dardima darmon emasdir, lekin illa hu.

Emasdir huru-yu g'ilmon, na jannat ko'shki, na Rizvon,
Bu mening ko'nglima sulton emasdir, lekin illa hu.

Aning naqshi hayotinda jahon bir zarra bo'lmishdir,
Nazar etsang u zarradan ko'rinmas, lekin illa hu.

Ey Bayramiy, agar idrok etarsan sen bu olamda,
Bu sirning sirriga kimsa erishmas, lekin illa hu.

YuSUF SINON ShAYXIY (1371/1422-23)

Turk adabiyoti tarixida shayx ash-shuaro, ya'ni shoirlarning shayxi nomi bilan ulug'langan Yusuf Sinon Garmiyoniy - Shayxiy Garmiyon (Kutaxya) beyligida 1371 yil dunyoga keldi. Shayxiy xaqida adabiy manbalarda bizgacha ancha-muncha ma'lumotlar yetib kelgan. U o'z yurtida boshlang'ich ma'lumot olgach, bilim olish uchun Eronga ketadi va u yerda oftalmologiyani (ko'z tabibi) chuqur o'rganib, malakali tabib bo'lib yetishadi. Yu. Shayxiy Erondan Edir-naga kelib 1410 yilgacha sulton Sulaymon saroyida, so'ngra Bursada Mehmed I ni (1403-1451) davolaganligi uchun saroy bosh hakimi lavozimiga erishadi. Yu. Sinon Shayxiy davrining ulug' tabiblaridan bo'lsa ham uning mashhurligi shoirligi tufayli edi. G'azallari bilan tanilgan Shayxiy Sulton Murod II chidan Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"sidan biror dostonni turk tiliga tarjima qilish topshirig'ini oladi va "Xisrav va Shirin" dostonini turk tiliga tarjima qiladi. Ma'lumki, somoniylar hukmdori bo'lgan Xusrav Parviz (VII asr) va uning go'zal, sadoqatli rafiqasi Shirin haqida, adabiyot olamida birinchi bo'lib Firdavsiy mashhur "Shohnoma"sida yozgandi. Nizomiy dostonini birinchi marotaba turkiy tilga Oltin O'rdalik shoir Qutb erkin tarjima qilgan. 1367 yilda Faxriddin Yoqub ibn Muhammad-Faxr taxallusli shoir Oydin begining iltimosiga ko'ra, Nizomiy asarini usmonli turkchasiga erkin tarjima qiladi. Ammo, Faxriy o'z dostoniga "Shohnomadan" ba'zi boblarni (M; Bahrom Go'r haqida) ki-

ritadi. Yu. Shayxiyning “Xusrav va Shirin” dostoni usmonli turk tilida, shu mavzuda bo‘lgan ikkinchi doston edi.

Shayxiy Sulton Murod II ning buyrug‘iga ko‘ra, Nizomiy “Xamsa”sining Xusrav va Shirin dostonidan 1000 bayt tarjima qilib, sultonga taqdim etadi. Mamnun bo‘lgan Murod II shoirga Doquzlar qishlog‘ini in‘om qiladi. Shayxiy Doquzlarga ketayotganda qishloqning avvalgi egasi tomonidan uyushtirilgan qaroqchilar hujumiga uchraydi va o‘zi zo‘rg‘a qochib qutuladi.

Mana shu voqea ta’sirida Shayxiy “Xarnoma” satirik asarini yozadi. “Xarnoma” turk adabiyoti tarixida yozilgan ilk hajviy asar bo‘lib, bu doston xaqida birinchi marotaba 1917 yil prof. Fuad Ko‘prulu ma’lumot bergan. Asar 126 baytdan iborat bo‘lib, ilk 12 bayt tavhid va na’tidir. Podshohga bag‘ishlangan 26 baytlik madhiya bor. Doston masal shaklida bo‘lib, asosiy mavzu eronlik shoir Amir Husaynning asaridan olingan bo‘lsa ham, Shayxiy ilk bor yuqori mansabli shaxslar haqida hajviy gap ayta oldi. Xo‘kizga hasad qilib, uningdek shoh istab, quloqlaridan ayrilib qolgan eshak haqidagi masal Shayxiy dostonida ijtimoiy mazmun kasb eta olgan.

Shayxiyga katta shuhrat keltirgan “Xusrav va Shirin” 6944 baytdan iborat bo‘lib, shoir tarjimini to‘liq oxiriga yetkaza olmagan. Nizomiy dostoniga erkin yondoshgan Shayxiy bu dostonida Xusrav, Farhod va Shirinlar tomonidan aytilgan 26 g‘azalni kiritgan. Farhod obrazi ham juda yorqin yaratilgan. Nizomiy “Iskandarnoma”sini erkin tarjima qilgan, Ahmadiy asar tilini soddalashtirishga harakat qilgan bo‘lsa, Shayxiy “Xusrav va Shirin”da aksincha arab, fors so‘zlaridan ko‘proq foydalanadi. Shayxiyning bir devoni bizgacha yetib kelgan va devon ikki marotaba nashr qilingan. Devonda 20 qasida, 2 tarkiband, 3 tarjiband, 2 mustahzod, 200 g‘azal bor. Prof.Ali Nihod Tarlan 1946 yilda devonning birinchi nashrini tayyorlagan. Devondagi g‘azallar asosan so‘fiyona ruhda bo‘lib, shoir o‘zini bir oshiq darvesh deb biladi. Uning nazarida butun dunyo daftardir, unga gullar bilan sevikli yor tasvirini yozish kerak. “Jon bulbuli yor yuzini ko‘rmasa g‘amni unutmas, jannat bog‘i ham ko‘zga qafas ko‘rinadi”.

Shayxiy g‘azallari tasavvufona majozlarga boyligi, badiiy an’analar mohirona qo‘llanganligi, nafisligi bilan ajralib turadi.

Shayxiy gʻazallaridan

Bahor mavsumidir, hamdami sabo boʻlaylik,
Gul va doʻst boʻyi ila oshino boʻlaylik.

Chun davri loladir, ixlos ila qadah tutaylik,
Negakim nargis boʻlur, masti beriyo boʻlaylik.

Zamona sirrini qoʻy gʻuncha kabi sarbastga¹,
Chaman safosiga gul kabi dilgusho boʻlaylik.

Bul jahonning fathiga Jam jomdir demish miftah²,
Keling, mulozimi jomi jahonnamo boʻlaylik.

Bahor tavbaga Shayxiy junun demish oqil,
Bugun muvoffaqat et, erta porso boʻlaylik.

* * *

Ne xabar berdi sabo zulfi parishoning uchun,
Ki binafsha motamsaro koʻrinur oning uchun.

Ne sabab bosh ochar-u, qoʻl koʻtarur sarvu chinor;
Ki duo aylar ular qaddi xiromonning uchun.

Oy yuzing koʻrgach boʻlur ravshan yeru osmonlar,
Har na vajh aytar esam shul mohitobonim uchun.

Lola chok etdi yuzing gul yonogʻing rashkidin,
Gʻuncha chok etdi oʻzin laʼli durafshoning uchung.

Dur-u gavhar sochilur, nozik kalomlar yozilur,
Shayxiy insho qilajak shul lab-u dandoning³ uchun

AHMAD POSHO (?-1497)

XV asr turk adabiyotining eng yorqin yulduzlaridan boʻlgan shoir Ahmad Posho, oʻsha vaqtda Usmonlilarning poytaxti boʻlgan Edirna shahrida tugʻildi. Uning otasi Valiyuddin Ilyos Murod II ning qoziaskari, yaʼni bosh harbiy qozisi edi. oʻz davrida yaxshi maʼlumot

¹ Сарбастга – эркинча, озодликка.

² Мифтах – калит.

³ Дандон - тиш

olgan Ahmad Posho faoliyatini Bursadagi Murodiya madrasasida mudarrislikdan boshladi. Tez orada Edirna qozisi bo'ldi. 1451 yil taxtga o'tirgan Fotih Sulton Mehmet nazariga tushgan Ahmad Posho qoziaskar, shahzodalar otabegi va vazir lavozimigacha ko'tarildi. Vazir Ahmad Posho ko'plab shoirlarga valine'matlik qiladi, ustozi Malihiyni sultonga tanishtirib, hurmatini bajo keltiradi. Ammo saroydagi kurashlar shoir Ahmadiyni ham chetlab o'tmaydi. Shoirning "axloqsiz"ligi haqida podshoga chaquv bo'ladi va Ahmad Posho zindonga tashlanadi.

Yedi-Kule (Yetti minora) zindonida yotgan shoir "Karam qasidasi"ni yozib sultonga yetkazadiki; "Qullarning adashmog'i mumkin, ammo podshoning avfi qaerda" misralarini o'qigan shoh shoirni avf qilib Bursaga jo'natadi. Shoir Bursada Orxan va Murodiya madrasalarida dars beradi. Keyinchalik Anqara sanjaqbeyi etib tayinlanadi, Mehmet II ni vafotidan so'ng taxtga chiqqan Boyazid II Ahmad Poshoga iltifot ko'rsatib Bursa sanjaqbeyligini beradi. Ayrim manbalarda Ahmad Posho oila qurmaganligi aytilsa, boshqalarida Fotih Mehmet Ahmadni To'ti ismli joriyaga uylantirgani, shoirning bir qizi bo'lib, qizi ham, xotini ham erta vafot etgani, undan so'ng Ahmadning oila qurmaganligi aytiladi. Ahmad Posho umrining oxirigacha Bursada yashaydi va 1497 yil qazo qilgach o'zi qurdirgan madrasaga dafn qilinadi.

Ahmad Posho lirik shoir bo'lib, uning she'riyati turk adabiyoti tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. Ahmad Posho dunyo go'zalligini ta'rif etar ekan, inson mana shu go'zallikdan bahramand bo'lishini kuylaydi. Shoir sifatida u Hofiz Sheroziy ijodini bir namuna deb bilgan va ijodda unga ergashgan. Ahmad Posho g'azallari o'zining nafisligi, arab, fors so'zlarini qo'llashi bilan ajralib turadi. Shoir ijodini ikki davrga bo'lish mumkin: 1. A. Poshoning zindonband bo'lguniga qadar yozgan ijodi. Bu davrda shoir qasidalar va g'azallar yozib ijodda ko'proq fors shoirlariga (Hofiz) ergashgan. 2. Hazrat A. Navoiy ijodi bilan tanishgandan keyingi she'riyati. Manbalarda ko'rsatilishicha 1481 yil A. Navoiy o'zining 33 g'azalini Sulton Boyazid Ilga yuborgan. Sulton bu g'azallarni Bursaga, Ahmad Poshoga jo'na-tadi va Navoiy g'azallariga nazira bag'ishlashni shoirdan so'raydi. Ahmad Poshoga A. Navoiy g'azallari shunchalik ma'qul keladiki, A. Posho Navoiyning 33 g'azaliga nazira bag'ishlaydi. Mana shu naziralardan biri:

Zulfingki uzoringda etar jilvalar, ey do‘st,
Tovusi junondirki ochar bolu par, e do‘st.
Xattinki tilsim etdi labing doirasiga,
Shirinlik uchun mushk ila afsun yozar, e do‘st.
Qo‘y, borma qo‘nog‘iga raqibingki, bilursen,
It bo‘lgan yerga hech malak etmas guzar, e do‘st.
Zulfi siyohing chiqmadi zebo kulohingdan,
Zeroqi harir ichra bo‘lur mushki tar, e do‘st.
Voiz so‘ziga voqif o‘lub, yosh tukmadi chashmim.
Sard bo‘lsa-havo bo‘lmagay mardumda gar, e do‘st.
Ne vajah ila yuz surmag‘ay Ahmad ayog‘ingga,
Ne bosh ila tark etmagay yo‘lingda sar, e do‘st.

Shoir o‘zining Fotih Mehmet zamonidagi kunlarini eslab, o‘zini A. Navoiyga, Fotihni Husayn Boyqaroga qiyoslashga ishora bor.

Ahmad Posho g‘azallarida muhabbat – bosh mavzu. Shoir o‘zini “muhabbat kuychisi”ligini aytadi. Sevgi jamiki shodliklarning, ayni paytda g‘am-anduhning sababchisidir, u oshiq-ma’shuq munosabatlarini tasvirlarkan, tabiat ko‘rinishlaridan ustalik bilan foydalanadi.

Har kiminkim hamdami gul yuzli bir jonon o‘lur,
Xonasi jannat kibi doim bahoriston o‘lur,
Oshig‘u ma’shuqqa o‘xshar oftob ila zamin
Kim biri yig‘laguncha birisi xandon o‘lur.

(Tarjima bizniki A.A.)

Ahmad Posho ijodining undan keyingi ko‘plab turk shoirlari ijodida ta’siri kuchli bo‘lgan.

Ahmad Posho devonida usmonli turk tilida yozilgan g‘azallar bilan barobar, arab, fors tilida yozilgan g‘azallar borkim, bu shoirning shu tillarni yaxshi bilganligini ko‘rsatadi.

Ahmad Posho g‘azalnavis sifatidagina emas, qasidanavis sifatida ham mashhur bo‘lgan. Birinchi yozgan “Saroy qasidasi” 1461 yil Sulton Mehmet Fotih Istanbulda qurdirgan, Yevropada Several nomi bilan mashhur, nihoyatda go‘zal saroy xaqidadir. Shoir saroyni foto-grafik aniqlikda tasvirlash bilan cheklanmay, shohona odob-axloq haqida ham fikr yuritadi. Asar badiiy jihatdan ham, madaniyat obidasi haqida ma’lumot berishi jihatidan ham ahamiyatlidir. Ikkin-

chi qasida “Karam qasidasi” olijanoblikni madh etsa, uchinchi “Quyosh qasidasi” Sulton Mehmed II ga bag‘ishlangan.

Umuman Ahmad Posho usmonli tilining keng imkoniyatini o‘z she’riyati misolida ko‘rsata oldi va o‘rta asr turk adabiyotini yanada yuksaklikka ko‘tardi.

Ahmad Posho g‘azallaridan

Har kishining hamdami gul yuzli bir jonon o‘lur,
Xonasi jannat kabi doim bahoriston o‘lur.

Oshiqu ma’shuqqa mengzar oftob birla zamin-
Kim biri yig‘lay deguncha, birisi xandon o‘lur.

Bilmasam-maktubimni kim arz etar dildorakim,
Qosid¹ ul husni jamolin ko‘rsa gar hayron o‘lur.

Shiddati ishq-u baloyi hajr-u anduhi raqib,
Uzayib zulfing kabi borguncha bepoyon o‘lur.

Nola qilsa Ahmado-g‘unchasining kulgani,
Go‘yo bulbullar fig‘on etsa bu gul shodon o‘lur.

Kun yuzli taqvimina ey dil, nazar qil doimo,
Oy boshingda fitnalar bordir, hazar qil doimo.

Bir quruq maktubdir, yuborganim dildora men,
Ey ko‘zim, mardumlik et, yoshimla tar¹ qil doimo.

Bir nazarda kimyo etmak istarsan tufroqni,
Xokini mayxonaning kuhli basar qil doimo.

Ruxsoring och, aksi husnigla bahor et olamni,
Sochlaring soch, yer yuzin pur mushki tar qil doimo.

Dil niyoz aylar nigorning qoshi mehrobinda kim,
G‘amzasi tiyg‘in Ilohi, korgar² qil doimo.

¹ Қосид – қасд қилувчи, истовчи, ният қилган.

¹ Тар – ҳўл.

² Коргар – иш бажарадиган.

Holi Ahmad husnula ey mohtobona oyinadir,
Husnini sayr etmakka bori nazar qil doimo.

ALISHER NAVOIY VA TURK ADABIYOTI

Buyuk Alisher Navoiyning go‘zallikni kuylagan asarlari, umum-bashariy g‘oyalari jahon madaniyati va adabiyoti tarixidagi ulug‘ siymolarning ijodi bilan hamohangdir.

Akademik N.I. Konrad uyg‘onish davri haqida gapirib, uning VIII–IX asrlarda Xitoyda boshlanganligini IX–XV asrlarda O‘rta Osiyo, Eron, Hindistonning bir qismida davom etganligini va XVI–XIX asrlarda Yevropada nihoyasiga yetganligini yozgan edi.

Uyg‘onish davrining buyuk vakillari ijodida qandaydir umumiylikni ko‘rish mumkin. V.M. Jirmunskiy haqli ravishda “Alisher Navoiyning ulkan figurasi jahon adabiyotidan alohida ajralib qolgan emas. O‘zbek adabiyotining buyuk asoschisining ijodi bevosita g‘arbdagi hamfikrlarining uyg‘onish davri shoir va mutafakkirlarining ilg‘or g‘oyalari bilan qo‘shilib ketadi” - deb yozadi. Sharq adabiyoti tarixini qiyosiy-tipologik o‘rgangan olimlar, boshqa xalqlar adabiyotining ma‘lum tarixiy davriga xos xarakterli xususiyatlarning ayrim tendensiyalari turk adabiyoti tarixida ham ko‘rinishini ta’kidlashadi. Turk uyg‘onish davrini XV asrning ikkinchi yarmidan XVII asrning o‘rtalarigacha deb belgilaydilar.

Uyg‘onish davri turli vaqtlarda har joyda o‘ziga xos tarzda kechgani bilan barcha xalqlar madaniyati va adabiyotida umumiy o‘xshash tomonlarni ham vujudga keltirgan. Bu davr titanlarining umuminsoniy g‘oyalarni ko‘tarib chiqqanligi, bashariyat taqdiri uchun qayg‘urganligidandir. Uyg‘onish davri allomalarining ijodi bir xalq doirasidan chiqib, boshqa xalq ijodkorlariga ta’sir qilishi shubhasiz.

Hazrat Navoiyning asarlari o‘zi hayotligidayoq Vatani sardhadidan uzoq-uzoqlarda mashhur edi. Uning g‘azallarini birinchi bor o‘qigan, tinglagan kishi, beixtiyor shoir muxlisiga aylangan, boshqa asarlarini topib o‘qishga harakat qilgan. Hech bir xalq Navoiy ijodi bilan tanishgach, unga befarq bo‘lgan emas.

Sharq xalqlari o‘rtasida, ayniqsa turkiy xalqlar o‘rtasida A.Navoiy mashhur bo‘lgan. Shoir g‘azallari sevilib o‘qilibgina

qolmay, uning gʻazallariga naziralar bagʻishlangan, epik asarlaridan ilhomlanib dostonlar yaratganlar. Turk adabiyoti misolida buning yaqqol namunasini koʻrishimiz mumkin.

XV asrda Turkiyadagi eng yaxshi shoirlardan hisoblangan, turk adabiyoti tarixida oʻziga xos oʻrni boʻlgan shoir Axmad Posho (tugʻilgan yili nomaʼlum, 1497 yilda vafot etgan) turk shoirlari ichida birinchilardan boʻlib A.Navoiy ijodiga murojaat qilgan. Zamon-doshlari koʻproq fors, arab poeziyasining ulugʻ siymolariga taqlid qilgan bir davrda Ahmad Poshoning Navoiy ijodiga yondoshishi ijobiy holdir.

Edirna shahrida tugʻilgan Ahmad Posho Sulton Mehmed 11, Fotih, uning oʻgʻli Boyazid 11larning homiyligida boʻlib, yuqori la-vozimlarda ishlagan. 1481 yili Boyazid 11 Ahmad Poshoni Bursa shahrining hukmdori qilib tayinlaydi. Ilmiy manbalardagi maʼlumotlarga qaraganda xuddi shu yillari A. Navoiyning bir qancha gʻazallari (33ta) Turkiyaga yetib borgan. Sulton darhol bu gʻazallarni Bursaga, Ahmad Poshoga yuboradi va ularga nazira bagʻishlashni shoirdan iltimos qiladi.

Bu gʻazallar Ahmad Poshoga juda yoqqanligidan, shoir oʻz qoʻlida boʻlgan Navoiy gʻazallarining hammasiga nazira bagʻishlaydi. Ahmad Posho Nizomiy, Jomiy kabi ulkan soʻz sanʼatkorlari ijodi bilan tanish boʻlgan. Lekin Navoiyning gʻazallarigina uning ijodiga juda katta taʼsir oʻtkazadi. Ahmad Poshoning Navoiy gʻazallariga bagʻishlangan naziralari uning devonlariga ham kiritilib, el orasida juda mashhur boʻlgan va bizning davrimizgacha ham yetib kelgan.

Navoiy gʻazallarida yuksak badiiy mahorat, insonparvarlik gʻoyalari Ahmad Poshoni shoir sifatida rom qilgan boʻlishi shubhasiz.

Ahmad Posho Navoiy gʻazallariga naziralar bagʻishlar ekan, demak u shoir ijodini juda qadrlagan, undan badiiy mahorat sirlarini oʻrganishga intilgan.

Koʻrinadiki, Ahmad Posho lirikasining barkamollanishida Navoiy gʻazallarining ahamiyati katta boʻlgan.

Turk adabiyoti tarixiga nazar tashlasak, ulugʻ Alisher Navoiy ijodi faqat turk lirik poeziyasiga taʼsir qilibgina qolmay, balki yirik epik asarlarning yaratilishida ham sezilarli taʼsiri boʻlganligini his qilish mumkin. Umuman, XV–XVI asrlar turk adabiyoti tarixida

yaratilgan dostonlarga buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy (1140–1207), o‘lmas “Shohnoma”ning muallifi Abulqosim Firdavsiy va Alisher Navoiylarning ta’siri katta bo‘lgan, masalan, dunyoviy mavzuda yozilgan ilk turk masnaviysi “Iskandarnoma”ning avtorlari Tojiddin Ahmad ibn Ibrohim (Ahmadiy) (1329–1413) Nizomiyning dostonidan ta’sirlanib, uni o‘ziga namuna qilib olganligini aytgan. Shoir Shayxii (1371–1429) Nizomiyning “Xisrav va Shirin” dostonidan ming bayt tarjima qilganligi ham ma’lum.

Toshliji Yahyo (tug‘ilgan yili noma’lum – 1582) turk adabiyoti tarixida “Xamsa” yaratganlardan biri bo‘lib, u Navoiy “Xamsa”sini juda yuqori baholaydi.

“Mir Navoiy guli behordir, “Xamsa”si bir shofei totordir”. Toshliji Yahyo “Xamsa”si quyidagi dostonlardan iborat: “Ganjina Roz”, “Usulnoma”, “Shoh va gado”, “Yusuf va Zulayho”, “Gulshani Anvor”. Dostonlar Navoiy “Xamsa”si singari bo‘lmasa ham muallif T. Yahyo Navoiyni ulug‘ “Xamsa”navis sifatida ta’riflarkan, uning ijodidan ilhomlanganligi shubhasiz.

XVI asrlarda yashagan turk shoiri Lomiy Navoiyning “Farhod va Shirin”i ta’sirida shu nomda doston yozgan. S. Erkinov “Asrlar osha mushoira” kitobida bu haqda shunday yozgan edi: “Farhod va Shirin”ning ta’siri turkiy xalqlar adabiyotida ayniqsa katta bo‘ldi. Keyingi davrlarda “Farhod va Shirin”ning ijobiy tradisiyalari asosida yuzaga kelgan qator asarlar: XVI asr turk shoiri Lomiyning “Farhod va Shirin” XVIII asr uyg‘ur shoiri Abdurahim Nizoriyning “Farhod va Shirin” dostonlari bu fikrning yorqin dalili bo‘la oladi. (77 bet) Ogoh Sirri Levent Lomiyning dostoni Navoiydan ixcham tarjima, Navoiyga nazira tarzida yozilgan, degan fikrlarni aytgan. A. Navoiy dostonlarining ta’siri, asarlarni qiyosiy o‘rganish, obrazlar tahlili Navoiy “Xamsa”sining ham turk shoirlarining doston yozishida ta’siri bo‘lganini ko‘rsatdi. Usmonli shoirlari orasida birinchilardan bo‘lib “Xamsa” yaratgan Hamdulla Hamdi Chalabiydir. Chalabiy “Xamsa”sining ikkinchi dostoni, arab adabiyotida keng tarqalgan, sevimli syujet bo‘lgan, “Layli va Majnun” dostonidir. (1499 yilda tugatilgan).

Hamdulla Hamdi va Alisher Navoiy dostonlarini qiyoslab o‘rgangan adabiyotshunos V. Garbuzova Hamdining doston yozishiga Navoiyning ijodiy ta’siri bo‘lganligini aytadi.

“Garchi Hamdi o‘z dostonida A.Navoiyning shu dostoni bilan tanishligi to‘g‘risida oshkor biror narsa aytmasa ham (Navoiyning “Layli va Majnun”i 1484 yilda yozilgan) Hamdini Navoiyning genial asari bilan tanish bo‘lgan deb taxmin qilish mumkin. Hamdi dostonidagi voqealar rivojlanadigan muhit tasviri Navoiy tasvirini juda-juda eslatadi. Bundan tashqari, Navoiy singari Hamdi ham o‘z dostonida Qays (Majnun)ning telba muhabbatining ayanch tarixiga asosiy kuchni bermaydi, balki Laylining og‘ir ahvolini tasvirlash orqali O‘rta asrda ayollarga buyum sifatida qaralishiga qarshi norozilik bildiradi.

Hamdining dostoni shu jihatdan ham e‘tiborga sazovorki, u Navoiyning chinakam ta‘sirini sezish mumkin bo‘lgan birinchi turk masnaviysidir (Turk adabiyoti klassiklari. –T., 1960. –B. 47).

“Xamsa” yaratishni oldiga maqsad qilib qo‘ygan har bir shoir, o‘zidan oldin yaratilgan “Xamsa” lar bilan, umuman “Xamsa” yozgan shoirlar ijodi bilan tanishishga xarakat qilgan. Tabiiyki, “Xamsa”lar ichida o‘ziga ko‘proq ma‘qul bo‘lgan dostonlarni namuna qilib olganlar. Ko‘rinadiki, olimning mulohazalarida jon bor. U bevosita obrazlar tahlilidan kelib chiqib xulosaga kelgan. Jahon adabiyoti tarixida biror avtorning nomini aniq aytmay, lekin uning ijodidan baxramand bo‘lib ajoyib asarlar yaratgan adiblarni ko‘plab topish mumkin. Navoiyning asarlari usmoniylar davlatiga dastlab ayrim-ayrim yetib kelgan bo‘lsa, to‘la devoni 1501 yilda shoir Vaziri tomonidan olib kelindi.

Navoiy ijodiga turk shoirlarining muxabbati, uning g‘azallariga bag‘ishlangan naziralar shoirni usmonlilar Turkiyasida juda mashhur qilib yubordi. Navoiy asarlaridagi insonga bo‘lgan mehr, go‘zallikni ulug‘lash, vatanni kuylash, yorga muxabbat, do‘stlik g‘oyalari, g‘azal, dostonlarning yuksak badiiy saviyasi turk shoirlarini maftun qildi.

“Navoiyning ajoyib lirikasi turk shoirlariga, ularning ijodiga juda katta ta‘sir ko‘rsatdi. Buyuk mutaffakir lirikasidagi chuqur falsafiy fikrlar, inson tafakkuriga zo‘r ta‘sir qila oladigan yorqin poetik obrazlar va tasviriy vositalar hammaning e‘tiborini o‘ziga tortdi. Ular Navoiyning shoirlik qudratiga, uning juda katta san‘atkorlik kuchiga qoyil qoldilar. A. Navoiy asarlarining turklarga g‘oyat manzur bo‘lganligini shundan ham ko‘rish mumkin”, - deb yozadi adabiyotshunos V. Garbuzova (“Turk adabiyoti klassikasi”, 56-bet).

Turk adabiyotshunoslari Navoiy ijodining turk shoirlari ijodiga ta'siri haqida ko'plab ilmiy ishlar yozganlar.

N.S. Banarli A. Navoiy ijodini juda yuqori baholab, uning Ahmad Posho, Sulton Salim, Nodim ijodiga ta'siri to'g'risida "Rasmli turk adabiyoti" kitobida yozgan. N.S. Banarli Navoiy ijodini qadrlab shunday yozadi: "Navoiy faqat O'rta Osiyo turkiy xalqlarininggina emas, butun turkiy xalqlar adabiyotimizning buyuk vakilidir" (126-bet). "Navoiy o'z davri va undan so'ng ham ijodkorlar uchun ideal bo'lib qoladi. Navoiydek yozish har bir shoirning orzusi edi" (127-bet).

Mashhur turk adabiyotshunosi F. Ko'prulu 1934 yil Istambulda e'lon qilingan "Turk tili va adabiyoti ustida tadqiqotlar" kitobida Navoiy ijodiga alohida to'xtalib "Alisher Navoiy va ta'sirlari" mavzusida alohida izlanishlarni kiritgan. Turk navoiyshunoslari orasida prof. Kamol Eraslanning xizmatlari diqqatga molik. U "A. Navoiyning "Nasoyimu-l-muhabbat min shamoyimi-l-futavva" asarining matn va til xususiyatlari" nomli doktorlik dissertatsiyasini 1970 yilda himoya qilib, bu asarni va yana "Holoti Sayid Hasan Ardasher", "Pahlavon Muhammad" risolasini nashr qildirdi.

Turkiya kutubxonalarida Navoiy asarlari qo'lyozmalari anchagina. To'pqopi Revan saroyi kutubxonasida saqlanayotgan Muhammad Darvesh Toqiy tomonidan Hirotda 1496–97 yillarda, Navoiy hayotligida ko'chirilgan qo'lyozma, ayniqsa, xarakterlidir. Bu qo'lyozmaning fotonusxasini O'zbekistonga olib kelgan prof. H. Sulaymon shunday yozgan edi: "Sulton Husayn kutubxonasining mahoratli, peshqadam xattotlaridan bo'lgan Darvesh Muhammad Toqiy ko'chirgan kulliyotning mazkur qo'lyozmasini Navoiyning o'zi ham ko'rgan bo'lishiga shubha bo'lmasligi kerak. Chunki bu qo'lyozma shoirning o'zi tuzgan kulliyot nusxasi bo'lib, unda kulliyot uchun Navoiyning o'zi yozgan so'zboshi "Munojot" bor".

Turk adabiyotshunoslari Navoiydan oldin o'tgan va unga zamondosh bo'lgan shoirlar ijodini baholashda ham Navoiyning fikrlariga "Nasoyimu-l-muhabbat", "Majolisun-nafois"ga suyanadilar. Prof. Ismol Hikmat o'zbek klassik shoiri Lutfiy haqidagi monografiyasida Navoiy asaridan ko'chirma keltiradi va asosan Navoiy fikrlariga tayangan holda Lutfiy ijodi haqida fikr yuritadi.

Asrlar davomida buyuk Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan qiziqish kuchaymoqda. "Muhokamatul-lug'atayn" o'tgan asrdayoq Turkiyada

nashr etilgan. 1973 yilda Istambulda akad. V.V. Bartoldning Navoiy haqidagi ilmiy ishi Mahmud Ja'far tarjimasida e'lon qilindi. Shoir tavalludiga 525 yil to'lishi munosabati bilan ham Istambulda Navoiyning bir qancha asarlari chop etildi. A.S. Levent Navoiy asrlaridan tanlangan parchalarni 4 tomlik holida nashr ettirdi.

“GUL ILA ALISHER” dostoni

Ulkan tarixiy voqealar, buyuk shaxslar haqida xalq doim o'z fikrini aytib kelgan. Shunday yorqin siymolar borki, ularning xotirasi hamisha xalqning qalbida. Bunday kishilarning olijanob ishlari, qahramonliklari umumbashariy ahamiyat kasb etib, ularning o'zlari ham, bir xalq vakili doirasidan chiqib, jamiki insoniyatning farzandiga aylanadilar. Ulug' Alisher Navoiy ana shunday zotlardan bo'lib, hayotligidayoq xalq u haqda ko'plab rivoyatlar to'qilgandi. Navoiy haqida o'zbek, turkman, uyg'ur, turk va boshqa sharq xalqlari to'qigan afsonalar uning umumbashar farzandiga aylanganligining yorqin misolidir.

Navoiy haqidagi “Gul ila Alisher hikoyasi” deb nomlanuvchi turk xalq dostoni shu jihatdan xarakterliki, ko'pgina A. Navoiy haqidagi xalq afsonalari ulug' shoirning donoligi, olijanob ishlari, xalqparvarligi, adolatgo'yligi xaqida bo'lsa, bu doston ishqiy-romantik bo'lib, Alisher va Guli o'rtasidagi muhabbat haqidadir.

Dostonni mashhur turk folklorshunosi Partav Noili Baratov 1941 yilning 27 fevralida baxshi Mudomiydan yozib olib, 1946 yilda Anqarada nashr qilingan “Xalq hikoyalari va xalq hikoyachilari” kitobida e'lon qilgan.

Doston hamd bilan boshlanib, baxshi Mudomiy 1501 yildan beri bu rivoyat xalq orasida yashab kelayotganligini aytadi va voqealar bayoniga o'tadi. Samarqand hukmdori Husayn Boyqaro nihoyatda badavlat, fuqaroparvar, adolatli shoh ekan. Xalqi to'q yasharkan. Ko'chmanchi qabilalardan birining begi bo'lmish Alisher Samarqandga mol suruvini haydab keladi va uni kambag'allarga nasiyaga berishini, haqini esa Husayn Boyqaro vafotidan so'ng olishini aytadi. Bu gap shohga yetgach u Alisherni huzuriga chaqirtirib keladi. Alisher shoh huzurida ta'zim bajo aylab, shoh ko'rsatgan joyga o'ttiradi. Boyqaro Alisherdan nima uchun mollarini nasiyaga berib, haqini sulton vafot etgandan so'ng olmoqchi bo'lganligini so'raganda, Alisher xalq Husayn Boyqaroning umri uzoq bo'lishini

tilab duo qilishlarini istaganligi uchun shunday qilganligini aytadi. Bu gap sultonga yoqib tushib Alisherni vazir qilib tayinlaydi. Alisher bir kun ovga ketayotib, kir yoyayotgan go'zal qizni ko'rib qoladi va u bilan ikki og'iz gaplashadi. Keyin qo'shnilaridan surishtirib, u Xo'ja Solihning qizi ekanligini biladi. Oradan bir hafta o'tgach Alisherning o'zi Xo'ja Solihnikiga sovchi bo'lib boradi. Xo'ja Solih Alisherga javob berishdan oldin qizi bilan maslahatlashadi va Gulining roziligini aytadi. Alisher bu haqda hech kimga aytmaydi.

Ittifoqo kunlardan bir kun sulton Husayn ham Gulini ko'rib oshiq bo'lib qoladi va qozi kalonni sovchilikka yuboradi. Guli rad javobini beradi. Xo'ja Solih qizining unashtirilganligini aytadi-yu, lekin Alisherning hayoti xavfsizligini o'ylab kimligini aytmaydi.

Rad javobini olgan Boyqaro bu ishni Alisherdan o'zga bitira olmaydi deb, dardini Alisherga aytadi. Alisher oqibatda Gulinikiga sovchilikka boradi. Guli Alisherga shart qo'yadi, rozi bo'lgan Alisher Guli yozib bergan qog'oz (resept) bo'yicha baqqolga borib ikki xil dori olib keladi. Dorining birini Guli, birini Alisher ichadi. Guli ichgan dori sekin-asta, qirq kunda ta'sir qiladigan zahar, Alisher ichgani esa uni bir umr farzand ko'rishdan benasib qiladigan dori ekan.

To'yi bo'lib, Guli saroyga keltirilgach, u Husayn Boyqarodan qirq kungacha unga tegmasligini iltimos qiladi. Gulini qattiq sevganidan shoh ham rozi bo'ladi. Zahar ichganidan o'ttiz besh kun o'tgach Guli xastalanib qoladi.

Qayg'urgan Husayn Boyqaro ovga chiqib ketadi. Alisher kasalligi (Gulining xizmatkori ogohlantirgani uchun o'zini kasallikka solgan edi) tufayli shikorga borolmaydi. Vidolashish uchun joriyasi Alisherni ayol kiyimida Gulining oldiga, haramga boshlab keladi.

Alisher haramdan chiqmasdan Boyqaro ovdan qaytadi, xizmatkorlar Alisherni katta qozonga solib yashirinch a olib chiqib ketayotganida, shoh qiziqib qozonning qopqog'ini ochib qaraydi. Alisherni ko'rsa ham azbaroyi indamaydi. Bu voqeadan so'ng Alisher hajga jo'naydi, ammo sulton chopar yuborib, uni yo'ldan qaytaradi. Doston Gulining o'limi va uning qabri tepasida Alisherning ertalabgacha o'tirib chiqqanligi va umrining oxirigacha Guliga vaf o qilib uylanmay o'tganligini aytish bilan yakunlanadi.

Ko'rinadiki, dostonda haqiqat va badiiy to'qima qorishib ketgan. Asarda Alisher Navoiyning Guliga bo'lgan sevgisi asosiy mavzu

qilib olingan. Alisher ko'chmanchi qabilalardan birining begi, so'ngra vazir sifatida tasvirlanadi. A. Navoiyning buyuk shoirligi, xalq farovonligi yo'lida amalga oshirgan ishlari, ulkan davlat arbobi sifatida ko'rsatgan faoliyati haqida hech nima deyilmaydi. Doston boshlanishida jasur, sahiy, bilimdon tasvirlangan Alisher obrazi, o'z sevgilisiga yetishish fursati kelganida passivlashadi, ya'ni u sulton Husayn Boyqaroga qarshi hech nima qilolmaydi, hatto bunga harakat ham qilmaydi. "Ta'qdir ekan" deb Gulidan voz kechadi. Dostondagi Guli obrazi ayniqsa xarakterli. Ko'pgina sharq dostonlaridagi ayollar obrazi kabi Guli obrazi ham yorqin tasvirlangan. U sevgan kishisiga bir umr sodiq qoluvchi sharq ayolining timsolidir. Alisher "ta'qdir ekan" - deb, sevgilisiga yetish yo'lida passivlik qilganida, Guli undan o'zganiki bo'lmasligi aytib, sekin ta'sir qiluvchi zahar ichadi. O'z qadrini yaxshi bilgan Guli, malika bo'lishdan ko'ra Alisherga vafo qilib, dunyodan o'tishni afzal ko'radi. Gulining ana shunday olijanob, vafodor qiz bo'lib yetishuvida oilaviy tarbiyaning ahamiyati katta bo'lgan, albatta. Gulining otasi Xo'ja Solih o'zi oddiy kishi bo'lsa ham ma'naviy olami yuksak inson. U musulmon odaticha qiziga o'z hukmini o'tkazishga intilmaydi. Guliga Alisher sovchi bo'lib kelganda ham, Husayn Boyqarodan sovchi kelganda ham, oilada hech nima sevgining o'rnini bosolmasligini aytib, qizining fikrini bilib, so'ngra javob qiladi. O'sha o'rta asrlar davridan kelib chiqsak bu juda katta olijanoblikdir.

Dostondagi yetakchi obrazlardan biri Husayn Boyqaro obrazidir. Husayn Boyqaro Samarqand hukmdori sifatida, fuqaroparvar, adolatli shoh qilib tasvirlangan. Xalq o'zi orzu qilgan adolatli shoh timsolida Boyqaro obrazini yaratgan. Albatta, har qanday badiiy asardagi obraz, xalq dostonlaridagi faktlarni ham ayni haqiqat deb qabul qilib bo'lmaydi. Biror tarixiy shaxs haqida yaratilgan folklor namunalarida o'sha shaxsning o'zida bo'lmagan xususiyatlarni ham xalq unga nisbatan berishi mumkin. Bir tarixiy shaxsning obrazi ikki xalq og'zaki ijodida ikki xil yaratilishi mumkin. Shuning uchun ayrim rivoyatlarga qarshi o'laroq Boyqaro obrazi sadoqatli do'st, sahiy, olijanob inson sifatida sodda tasvirlanganligiga ajablanmaslik kerak.

Doston turk xalqi turmushiga oid ularning urf-odatlarini ko'rsatuvchi badiiy detallarga boy. Masalan, A. Navoiy Xo'ja Solih-nikiga mehmon bo'lib kelganda, Solih uning oldiga boshqa sharq xalqlaridek choy emas, balki chilim va qahva quyib mehmon qiladi.

Dostonning tuzilishi ham an'anaviy xalq dostonlari yo'lida. Aytuvchi nazm bilan boshlangan bo'lsa ham asosiy voqealar nasrda bayon qilinadi. Faqatgina qahramonlarning dialoglarida she'r formasidan foydalanilgan. Dostonda A. Navoiyning ulug' shoirliği haqida bir og'iz ham so'z yo'q. Shuningdek, uning boshqa ko'pgina oliyjanob ishlari haqida ham gapirilmaydi. Lekin dostondagi qahramonlar tilidan aytiladigan she'rlar bevosita yodingizga Navoiy satrlarini soladi. Masalan, dostonda Alisher qizning yuzini gulga qiyoslab:

Senga o'xshar gulistonda qaysi gul
Ismda gul, jismida gul, rangi gul - deydi.

Bu misralar "Farhod va Shirin" dostonida Shirin ta'rifida aytilgan "Yuzi gul, lek yuz gul xirmanidek..." hamda "Sab'ai sayyor" asaridagi satrlarini yodingizga soladi yoki Guli vafot qilgach Alisher Husayn Boyqaroga shum xabarni she'riy satrlarda yo'llaydi:

Chun foniydır bu jahon, har kelgan ketmoq kerak,
Sarv toli soyasinda gul so'ldi, netmoq kerak,

Boyqaro:

Bo'lar ish bo'ldi na chora, naylamoq, netmoq kerak,
Sarv tolidān tobutin, guldān kafan etmoq kerak.

(So'zma-so'z tarjima- A. A)

Yuqoridagi misralar beixtiyor yodingizga Navoiyning mashhur

Qora ko'zim, kelu mardumlug' emdi fan qilg'il,
Ko'zim qarosida mardum kabi vatan qilg'il

matlasi bilan boshlanadigan g'azal va uning yozilish tarixi bilan bog'liq afsonani soladi. Navoiy haqidagi dostonda, shoir asarlarini esga soluvchi, uning misralariga ohangdosh misralarning bo'lishi, Navoiy ijodining turk xalqi o'rtasida keng tarqalganligi va unga bo'lgan mehrining nishonasidir.

Dostonda turklarga xos yumor elementlarini ham ko'rish mumkin. Alisherning ayol kiyimida Gulining oldiga kelishi, Boyqaro kelib qolgach xizmatkorlarning uni katta qozon ichida olib chiqib ketishlari kabi holatlar tasviri A. Navoiy haqidagi boshqa birorta xalq dostonlarida uchramaydi. Buni aslo Navoiy shaxsini kamsitish deb qarash kerak emas. Aksincha o'sha sharoitda Navoiydek odam ham

shunday yo‘l tutishga majbur bo‘lganligi, qolaversa sevgilisi bilan vidolashmoq uchun har qanday ishga tayyorlik deb baholamoq kerak. “Gul ila Alisher” dostoni ulug‘ Navoiy haqida xalq to‘qigan ishqiy-romantik dostonning yaxshi namunasidir. Dostonda turk xalqi uchun hazrat Navoiy qanchalik ardoqli shaxs ekanligi ko‘rinib turibdi. Zero, turk xalqi o‘rtasida Navoiy asarlarining mashhurligi va xalq Alisherning shaxsiy hayotiga juda qiziqqanligi uchun ham buningdek doston yuzaga kelgan.

HAMIDULLA HAMDI – OQShAMSIDDIN ChALABIY (1448-1509)

Turk adabiyoti tarixida birinchilardan bo‘lib “Xamsa” yozgan shoir Hamdi Bolu yaqinidagi Go‘ynukda tug‘ildi. Uning otasi Oqshamsiddin bayramiya tariqati shayxlaridan bo‘lib, Hamdining yoshligi so‘fiylar davrasida kechadi. 10 yoshligida yetim qolgan Hamdini akalari o‘z tarbiyasiga oladilar. Hamdi Chalabiy oilada 12-farzand edi. Tazkiralarda H. Chalabiy haqida ma‘lumotlar kam. Uning Bursa madrasalaridan birida mudarrislik qilgani va Shayx Ibrohim Tannuriyning muridi bo‘lganligi ma‘lum. Hamdining hayoti qashshoqlikda kechgan. Akalari uning fiqh ilmini o‘rganib, qozi bo‘lishini istashgandi, ammo bo‘lajak shoir bu yo‘ldan bormadi. Akalari bilan orasi buzilgan Hamdi shoir sifatida o‘ziga homiy ham topmagan. U “Yusuf va Zulayho” asarini yozib, Sulton Boyazid II ga taqdim qilganligi, biroq shoir e‘tiborsiz qolgani haqida yozadilar. Shuning uchun shoir “Yusuf va Zulayho”ga o‘z taqdiridan shikoyat qilib yozilgan bobni kiritgan. Bir umr moddiy muhtojlikda yashagan shoir Hamdi Chalabiy Go‘ynukda vafot etadi va otasining yonida dafn qilinadi.

Shoirning asosiy adabiy merosi bo‘lgan “Xamsa” dostonlari quyidagilar:

1. “Yusuf va Zulayho”; 2. “Layli va Majnun”; 3. “Tuhfat-ul ushshoq”; 4. “Qiyofatnoma”; 5. “Mavlud”.

“Yusuf va Zulayho” dostoni 1491–92 yillarda yozib tugatilgan. Bu dostonni “Xamsa”ning birinchi asari qilib olishni shoir o‘z taqdiri ham Yusuf taqdiriga o‘xshab ketganligi uchunligini aytadi. Hamdi o‘z dostonini yozishda mashhur tojik shoiri A. Jomiyning “Yusuf va Zulayho”siga suyanagan. Yusuf obrazi sharq adabiyotida keng tarqal-

gan obrazdir. Bu obraz dastlab “Tavrot” va “Injil”da, soʻngra “Qurʻon”da oʻz ifodasini topgan. Xalq ogʻzaki ijodi va yozma adabiyotda Yusuf nihoyatda goʻzal, olijanob, dono shaxs sifatida tasvirlanadi. Sharq xalqlari adabiyotining bir qancha yirik namoyandalari “Yusuf va Zulayho” nomida dostonlar yaratganlar. Dostonlarda Yusufning hasadgoʻy akalari tomonidan savdogarlarga qul qilib sotilishi, oqibat Yusuf Misr firʻavnining amaldorlaridan Potifarning xonadoniga kelib qolishi hikoya qilinadi. Potifarning xotini Zulayho Yusufni sevib qoladi va unga izhori dil qiladi. Xojasiga sadoqatli Yusuf Zulayho ishqini rad qiladi. Alamzada Zulayho tuhmat qilib Yusufni zindonga tashlatadi. Zindonda Yusuf firʻavnni soqiysi va novvoyi bilan birga boʻladi. Ularning tushlari taʼbirini aytadi. Maʼlum vaqtdan soʻng firʻavn qoʻrqinchli tush koʻrib, taʼbirini soʻrash uchun Yusufni zindondan chiqaradi. Yusuf firʻavnga yurtida yetti yil toʻqchilik, yetti yil ocharchilik boʻlishini aytib, toʻqchilikda gʻalla gʻamlashni maslahat qiladi. Firʻavn bu ishlarni Yusufning oʻziga topshiradi. Qahatchilik boshlangach boshqa ellardan ham Misrga gʻalla izlab odamlar kela boshlaydi. Yusufning akalari ham keladilar. Xullas, Yusuf oʻzini tanitgach akalari kechirim soʻrashadi. Yusuf otasi va boshqa qarindoshlarini Misrga oldirib keladi. Yusuf dardida yigʻlab-yigʻlab koʻr boʻlib qolgan Yoqub oʻgʻli Yusufning barmoqlari koʻziga tekkach koʻra boshlaydi (Yusufning koʻylagini koʻziga surtish varianti ham bor.) Yusuf va Zulayho oʻrtasidagi munosabatlarga ham shoirlar turlicha yondoshganlar.

Yusuf va Zulayho haqidagi rivoyatlar asosida Firdavsiy (X-XI asr), Baxtiyoriy (X asr), Shiod Hamza (XIII), Ali (XIII asr), Suli Faqix (XIII), Shahobiddin Oshiq (XIV), Rabgʻuziy (XIV), Dariy (XIV), Durbek (XV), A. Jomiy (XV), H.H. Chalabiy (XV), Nozim Xiraviy (XVII), Hoziq (XIX) va yana boshqa koʻpgina fors-tojik, oʻzbek, turk, ozarbayjon shoirlari dostonlar yaratganlar. Dostonlarda har bir shoir oʻz davrining muhim voqealari, axloqiy va falsafiy qarashlarini aks ettirishga intilganlar. Masalan, Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostonida shaharning qamal qilinish kartinasining berilishi, shuningdek dostonlarda Yusuf obrazining talqini ham turlicha. Yusuf haqidagi ilk dostonlarda Yusuf va Zulayho ilohiy obraz markazida tasvirlansa (masalan Yusuf va Zulayhoning qayta yosharishi), keyinchalik Yusuf va Zulayho muhabbati dunyoviy talqin qilina bosh-

landi. Durbek va Abdurahmon Jomiy dostonlarida bosh qahramonlar tarixiy shaxs, Zulayhoni go‘zal qiz sifatida tasvirlaganlar.

Yusuf va Zulayho obraziga XX asrning yirik so‘z ustalari Nozim Hikmat va T. Mannlar ham murojaat qilganlar. T. Mann “Yusuf va uning akalari” asarini, Nozim Hikmat “Go‘zal Yusuf” asarini yaratdi. O‘zbek shoiri Ramz Bobojon ham “Yusuf va Zulayho” nomli asar yaratgan.

Hamdi o‘z obrazlarining yanada hayotiyroq chiqishi uchun dostonga o‘z davriga xos xususiyatlarni, turmush tarzidagi detallarni kiritadi.

“Layli va Majnun” Hamdi “Xamsa”sining ikkinchi dostoni bo‘lib, Nizomiy dostoni asosida yozilgan. 1499–1500 yillarda yozilgan bu dostonga A. Navoiy “Xamsa”sining ta’siri ko‘proq bo‘lgan.

Uchinchi doston “Tuhfat-ul ushshoq”ning yozilgan sanasi aniq emas. Tasavvuf ruhidadagi bu asar ikki yoshning sevgisi haqidadir.

“Qiyofatnoma” va “Mavlud” Hamdining to‘rtinchi, beshinchi dostonlaridir. 150 baytlik “Qiyofatnoma” insonning ichki va tashqi dunyosi uyg‘unligi haqida bo‘lsa, “Mavlud” payg‘ambarning tug‘ilishi to‘g‘risidadir.

H. Chalabiyning kichik bir devoni ham bizgacha yetib kelgan va u Sulaymoniya kutubxonasida saqlanadi.

“Yusuf va Zulayho”dan

Karvon chun yo‘lga ravon bo‘ldi,
Yusufning ko‘zlariga qon to‘ldi.

Ashki yo‘llarni lolazor etdi,
Yig‘labon har yerni pinor⁴ etdi.

Bir-ikki marhala chun ketdilar,
Modarining qabriga ham yetdilar.

Ul maqomga erishdi, chunki murur⁵
Tushdi modar mozori uzra bu nur.

Tushdi Rohil uzra rohiladan⁶,

⁴ Пинор – булоқ.

⁵ Мурур – ўлган.

⁶ Роҳил – қўчган, рихлат этган.

Ayrilib qoldi magar qofiladan.
Ul mozorni quchib, qilib zori;
Dedi yuz dard ila shu guftorni:
“Ayri tushdim padardan, ey modar,
Menga zulm etdilar birodarlar.
Gul kabi avval olib bordilar,
Gul kabi so‘ngra yerga urdilar.
Guldayin avaylaganim badanni,
Surdilar tuproqqa ul rasanni.”⁷
Tosh ila urdilar; zabun bo‘ldim,
Lola yanglig‘ g‘ariqi xun bo‘ldim.”
Ohkim sarvi nozparvardin,
Bo‘ldi ustuni xonai dardin.
Qahr ila choh qa‘riga otdilar,
Oqibat banda debon sotdilar.
Koshki men ham o‘lsam, ey onajon,
Senga hamxona bo‘lsam, ey onajon.
Roviylar deydiki, ul vaqt bul mozor,
Zori qildi go‘yokim oshiqi zor.
Dedi: “Yig‘lama, ey ko‘zim nuri,
O‘tda yoqma bu xoki mansurni.
Mendan senga bashoratlار,
Hali qo‘ngay boshingga davlatlar.
Ki podshoh bo‘larsan Misr shahriga,
Egilibon kelgaylar eshigingga.
Yana bo‘lar xoki poying ularga toj,
Kelgaylar huzuringga bo‘lib muhtoj.
Dargohingga arzi hol aylagaylar,
Sadoqatin bayon aylagaylar.”

⁷ Паса – ёлғиз.

Bu xitobni chun Yusuf ayladi go'sh,
Bo'ldi dardu firoq ila behush.

Yotib anda bu hol ila qoldi,
Karvoni ancha-muncha yo'l oldi.

Iso Najotiy (1460–1509)

O'z davrining atoqli shoirlaridan bo'lgan Iso Najotiyning qaerda tug'ilganligi ma'lum emas. Uni edirnalik bir ayol qul sifatida sotib olib, so'ng farzandlikka qabul qilgan. Bu noma'lum ayol bo'lajak shoirga yaxshi tarbiya beradi, tahsil olishiga imkon yaratadi. Yoshligidanoq badiiy ijodga havasi kuchli Iso Najotiy Kastomonuga kelib shoir Soiliy qo'lida tarbiyalanadi, xattotlik san'atini o'rganadi. Tabiatan iste'dodli bo'lgan Najotiy g'azallari tezda kastomonuliklar og'ziga tushib, mashhur bo'lib ketadi. Iso Najotiyning shuhrati Bursa sanjoq beyi bo'lib turgan mashhur shoir Ahmad Poshogacha yetib boradi. Keyinchalik Iso Najotiyning o'zi ham Bursaga kelgan degan taxminlar bor. I. Najotiyning Bursadagi kaplijalar (tabiiy shifobaxsh suv bilan davolovchi oromgoh) haqida yozganligi bu farazni tasdiqlaydi. Shoirning Ahmad Posho bilan uchrashganligi, Ahmad Posho uyushtirgan mushoiralarda qatnashganligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Ammo Iso Najotiy shuhrati ortib, uni Ahmad Poshodan ham ulug'roq shoir ekanligini aytishganda, Najotiy she'r bilan javob qilib, Ahmad Posho ijodiga juda hurmat bilan qarashini aytgandi. Iso Najotiy Ahmad Posho g'azallariga naziralar bag'ishlagani ham, hurmatning ifodasidir. Sulton Mehmed II hukmronligi davrida Najotiy Istanbulga keladi. Sultonning e'tiboriga sazovor bo'lish yo'llarini izlaydi. H. Chalabiy tazkirasida yozishicha Mehmed II shaxmat o'yinini yaxshi ko'rar va har kuni tushlikdan so'ng bosh vazir Mahmud Poshoning yaqinlaridan bo'lgan Yorgi Amiruniy bilan shaxmat o'ynar ekan. Iso Najotiy Yorgi Amiruniy bilan tanishib do'stlashadi. Bir kuni do'sti saroyga borishga hozirlanayotgandi g'azal yozib, bildirmay uning sallasiga qistirib yuboradi. Sulton bu qog'ozga ko'zi tushib, ochganda Iso Najotiyning "sana" radifli g'azalini o'qiydi. O'zi ham she'rlar mashq qiladigan sultonga shoirning g'azali ma'qul kelgani yoki Najotiy o'ziga e'tibor qilishini so'ragani uchunmi, Isoni saroyga chaqirtiradi. 17 tanga

maosh bilan devonga kotib qilib tayinlangan Iso Najotiy o'z minnatdorchiligini izhor qilib sulton Mehmed II ga bag'ishlab uchta, ulug' vazir Mahmud Poshoga bitta qasida yozadi.

Textga Boyazid II o'tirgach Iso Najotiy Karamon viloyatiga, shahzoda Abdulloh huzuriga jo'naydi. 1483 yil shahzodaning vafotidan so'ng yana Istanbulga qaytadi. Iso Najotiy shahzoda Abdulloh vafoti munosabati bilan marsiya yozib sultonga taqdim qiladi. Boyazid II ning zafarli yurishlari haqida qasidalar bitsa-da, sulton Boyazid II va uning vazirlari iltifotiga sazovor bo'lolmaydi. Bir necha yillar shoir moddiy muhtojlikda yashaydi. Saroyda yashaganligida Iso Najotiy qozi askar Muyadzoda Abdurahmon Chalabiy bilan do'stlashgan edi. M.A. Chalabiy Iso Najotiyga og'ir kunlarida hamdard bo'ladi. Muyadzoda Chalabiy vositachiligida Iso Najotiy shahzoda Mahmudning yaqin kishilari safidan o'rin oladi. 1504 yilda shahzoda bilan Manisaga jo'naydi. Shahzoda Mahmudning farmonbardori bo'lib turgan shoir, 1508 yil Mahmud vafotidan so'ng Istanbulga qaytadi. Iso Najotiy Manisadalik davrida devon tuzgan. Ko'plab g'azallar va qasidaları bilan mashhur bo'lgan Najotiy davrining zabardast shoirlari Ravoniy, Mashhiy, Farruxiyar bilan do'st bo'lgan. Shavqiy, Suniy, Mehri Xotun va boshqa o'sha davrda yashagan ko'pgina shoirlar Iso Najotiyni o'ziga ustoz bilganlar. Shahzoda Mahmudning vafotidan qattiq ta'sirlangan Iso Najotiy shahzoda o'limi munosabati bilan marsiya yozadi va o'zi ham saroy ishlaridan is'tefo beradi. Qolgan umrini do'stlari, shogirdlari davrasida ijodiy ish bilan mashg'ul bo'lib o'tkazadi. Iso Najotiy vafot qilgach, uni Vafo maydonidagi Shayx Vafo maqbarasi yoniga dafn etadilar.

Shoir vafoti munosabati bilan zamondosh shoirlar tarix yozganlar. Ayniqsa, Sahiy yozgan tarix mashhur.

Naqli Najoti olamga tarix bo'lmog'in
Tarixini dedi Sahiy, ketdi Najotiy hey!

Iso Najotiyning bir o'g'il va bir qizi bo'lib, ularning hayoti haqida ma'lumotlar kam.

Iso Najotiyning devoni bizgacha yetib kelgan. Shayxiyning ma'lumot berishicha shoirning "Gulu Sabo" va "Mehru Moh" nomli asarlari bo'lganini aytib, baytlar keltirsa, Latifiy "bu haqda hech

qanday ma'lumot yo'q"¹ deb bu da'voni rad etadi. Najotiy Manisadagi davrida shahzoda Mahmudning talabi bilan G'azzoliyning "Kimyoi saodat", Avfiyning "Jome'ul hikoyat" asarlarini tarjima qilganligi hamda "Layli va Majnun" masnaviysini yozganligi haqida Oshiq Chalabiy ma'lumot bergan. Oshiq Chalabiyning aytishicha, "Kimyoi saodat"ni shoir o'z qo'li bilan ko'chirgan nusxasi shahzoda Mahmudning qizlarida bo'lgan. Biroq hozircha bu faktlar o'z tasdig'ini topgani yo'q.

O'rta asrlar turk she'riyatiga fors tilidagi adabiyotning ta'siri katta bo'lgan. Iso Najotiy ijodida ham bu holatni sezishimiz mumkin. Ammo, Najotiy xalq og'zaki ijodidagi iboralaridan ustalik bilan foydalangan va g'azallarida mahalliy kolorit, milliy ruh kuchli bo'lishiga intilgan. Najotiy asarlari latifligi, go'zal tasbehlarga boyligi, tabiat tasvirini nozik, jozibali berishi bilan zamondosh shoirlar ijodidan ajralib turadi. Uning go'zal xayoliy olamga chorlovchi she'rlari ifoda shakli, ta'sirchanligi, fikr injaligi bilan kitobxonni o'ziga rom qiladi. Shoir g'azallaridan ikki baytni keltiramiz:

Bu jafodanki qadah og'zing o'par yuz o'rgulib.

Nori rashk ichra kabob o'ldi jigar yuz o'rgulib.

Na ravodir buncha men qomatimi halqa qilay,

Inja belingni o'rab olmish kamar yuz o'rgulib.

Buningdek nafis va juda o'xshatib aytilgan badiiy san'atlarni shoir g'azallarida istagancha topish mumkin.

Oshiq Chalabiy, Kinalizoda Hasan, Latifiylar tazkira-larida Iso Najotiyi ko'klarga ko'tarib maqtaydilar. Uni o'ziga xos buyuk shoir deb ulug'laydilar.

Latifiy Qur'on o'zidan avval tushirilgan kitoblarni qan-chalik to'ldirgan bo'lsa, Najotiy ham turk nazmini shunchalik mukammallashtirganligini aytadi⁸. Amaselik Rafiqiy mash-hur turk shoirlari haqida fikr yuritar ekan, masnaviyda Yu.S. Shayxiy, qasidada Ahmad Posho, shaharangiz yozishda Masihiy, g'azalda Iso Najotiy yagonaligini ta'kidlaydi.

¹ Қаранг: Нажотий девони. Мехмед Чавушўғли тайёрлаган. – Истанбул, 1971. –Б.18.

⁸ Қаранг: Нажотий девони. Мехмед Чавушўғли тайёрлаган. – Истанбул, 1971. –Б.21-бет.

Najotiy turk shoirlaridan birinchi bo‘lib she‘riyatga zarbulmasal usulini qo‘llaganligini ayniqsa ahamiyatlidir. Bu narsa she‘riyat tilini xalq tiliga yaqinlashtirishda muhim omildir.

Iso Najotiy hayotligidayoq ko‘plab zamondosh shoirlar uning g‘azallariga naziralar bag‘ishlaganlar, ijodiga ergashganlar. Mehri Xotun ana shunday naziralar bag‘ishlab shoirga yuborgani va Najotiydan so‘ng yashagan turk shoirlari ham uning g‘azal-larini yoddan o‘qir, g‘azallariga nazira, tahmislar bog‘lardilar. Valihiy, Subhiy, Vasfiy, Soqiy, Zoriylar yozgan naziralar bunga misoldir.

Iso Najotiy ijodi o‘rta asrlar turk she‘riyatining eng xarakterli xususiyatlarini o‘ziga jamlagan deyish mumkin. Najotiy so‘z ruhini kashf qila oladigan, sehrlovchi misralarni tuzgan shoir sifatida turk mumtoz adabiyotining yirik vakillaridan bo‘lib qoldi.

Iso Najotiy g‘azallaridan

Har kun ul ruxsori gulzori jinonni⁹ ko‘zlaram,
Har kecha ul zulfi umri jovidonni¹⁰ ko‘zlaram.

Zulfi ruxsoring firoqila yiroqlardan turib,
Kecha otash shu‘lasin, kunduz duxonni¹¹ ko‘zlaram.

Husnina insu malak hayronu men devonavor,
Goh zaminga boqaram, goh osumonni ko‘zlaram.

Xalqa yanglig‘ ko‘zlarim eshikda qoldi do‘stim,
Fathi bob¹² bo‘lg‘ay debon ul ositonni¹³ ko‘zlaram.

Necha sundi charx chinni kosa birla nukli g‘am¹⁴,
Davv qo‘lindan menki jomi shodumonni ko‘zlaram.

Rohatu qahriga dahrin bosh egib yolvormam,
Men Najotiy, himmati shohi jahonni ko‘zlaram.

* * *

⁹ Жинон – жаннат.

¹⁰ Жовидон – узоқ умрли, абадий.

¹¹ Духон – тутун.

¹² Фатҳи боб – 1. эшик очилиши, 2. ман кутганимга эришаман.

¹³ Оситон – остона

¹⁴ Нукли ғам – ғам маззаси.

Xattingda kim ul zulfi parishon yozilibdur,
Go‘yo g‘ubor ustina rayhon¹⁵ yozilibdur.

Ul ho‘qqayi¹⁶ marjon uzarinda xatti mushking,
“Dilxastalarning dardina darmon” yozilibdur.

Diltangu parishon edi, vasfingni eshitgach,
Gullar ochilib, g‘unchayi xandon yozilibdur.

Naqsh bo‘ldi xating dilda-yozuqdur o‘tda yoqma,
Shul sahfaqim oyati Qur‘on yozilibdur.

Ey husn debon oshiq bo‘lgan ko‘z ila qoshga,
Bu sheva kalisoda farovon yozilibdur.

Gul daftarin yig‘sin, ki orazi do‘st yuzindan,
Ash‘ori Najotiy ila devon yozilibdur.

MEHRI XOTUN (1460-1506)

O‘rta asrlarda yashagan turk shoirlarining eng mashhurlari-dan biri Mehri Xotundir. Mehri ijodi va hayoti haqida ma‘lumotlar ko‘p emas. Uning tug‘ilgan va vafot etgan sanalari ko‘rsatilgan manbalarda tafovutlar bor. Masalan, ba‘zi kitoblarda Mehri 1456–1514 yashab, ijod etganligi ko‘rsatilgan. Mehrining otasi Mehmet Chalabiy Yahyo qozi bo‘lib, Baloiy taxallusi bilan g‘azallar yozib turgan. Ma‘rifatli inson Mehmet Chalabiy qizi Mehriga juda yaxshi ta‘lim beradi. U turk, fors, arab tillarini yaxshi bilgan, adabiyot, tarix fanlarini chuqur o‘rgangan. Oshiq Chalabiy va Avliyo Chalabiy o‘z tazkiralarida Mehri Xotunni Mehir-un-niso, Faxr-un-niso, Mehrushoh deb ulug‘langanligini yozadilar. Shoira jismonan juda go‘zal bo‘lganligini zamondoshlari bir ovozdan ta‘kidlaganlar. Ammo Mehri bir umr turmush qurmasdan o‘tgan. Mehri yoshlikdan birga o‘sgan Muyadzoda Abdurahmon Chalabiyga ko‘ngil bergan. Abdurahmon Chalabiy Xotimiy taxallusi bilan she‘rlar yozgan. A. Chalabiy yuqori davlat lavozimlarida ishlab, ko‘pgina ijodkorlarga homiylik qilgan. Lekin, taqdir ularga kulib boqmad.

¹⁵ Фубор, райхон – ёзув турлари.

¹⁶ Хўққа – мушки анбар солиб қўйиладиган, қимматбаҳо идиш.

Mehri g‘azallarida ko‘p uchraydigan ismlardan biri Iskandar Chalabiy nomidir.

Uyqudan ochdim ko‘zim nogah, ko‘tardim men sari¹⁷,
Ko‘z solib, ko‘rdim turar bir mohi chehra dilbari.
Toleim keldi vayo maqsadga yetdim g‘olibo,
Kim yotog‘im ichra ko‘rdim tunda tug‘mish mushtari
Nur oqar, ko‘rdim jamolidan agarchi zohiran,
O‘zi o‘xshardi musulmonga, libosi kofari,
Ko‘zni ochib yumgunimcha bo‘ldi chashmimdan nihon
Shundoq tashhis etamanki -yo malakdir, yo pari.
Yetdi chun obi hayotga, Mehri o‘lmas to hashr¹⁸
Ko‘rdi chun shab zulmatida ul ayon Iskandari.

Boyazid IIning vaziri Sinon Poshoning o‘g‘li Iskandar juda qobiliyatli, ma‘rifatli inson bo‘lgan. Rivoyatlarga ko‘ra, Mehri va Iskandar Chalabiy bir-birini juda qattiq yaxshi ko‘rganlar, biroq nima uchun turmush qurmaganliklari noaniq.

Mehridagi ishq aflotuniymi yo botiniy, bundan qat‘i nazar, shoira g‘azallarida otashin ishqiy misralar, ehtirosga to‘liq satrlarda aniq yor obrazi yorqin chizilgan. Shoiraning tabiatan erkparvarligi, otashnafasligi qalbi muhabbatga to‘liqligi va ishq yo‘lida qurbon bo‘la olishi uning g‘azallaridagi yoniq satrlarda ko‘rinadi:

Goh hajri yor-u, goh meni g‘amlar o‘ldirur.
Goh vasli dilbar ila kechgan damlar o‘ldirur

Mana shoiraning shu ruhdagi mashhur g‘azallaridan biri:

Oshiqsen ishq yo‘linda saqlama nomus-u or
Jahd idub bu yo‘lda jon ber, yo‘qsa qo‘ldan ketti yor.
Forig‘ o‘lub gar ko‘ngilsiz istar ersang yorni sen,
G‘ofil o‘lma, ne hazar qil, g‘ayrining bo‘lgay nigor.
Yer yuzin g‘arq aylar ersang kimsa silmas ko‘z yoshing,
So‘ngra gar qon yig‘lar ersang kunda ming qat zoru-zor,
G‘unchaning gulzorda turgan chog‘ida faryod qil,
Yo‘qsa ertan gul so‘lar, qolursen ey miskin hazor
Dilbaring domanini qutqargali xor qo‘lidan

¹⁷ Саp - бош

¹⁸ Ҳашр - машҳар

Har gulistonga tag'in yuz urki, kim boru – ne bor
Mard esang, g'ayrat damidir, izla yovni har nafas,
Domaniga tar guling yopishmasin tuhmati xor
Bir zamon Mehri falakda sayr etardi, endi boq,
Bu sababdan bo'ldi-ku ayoqlar ostida g'ubor.

1481–1512 yillari Amaseda shahzoda Ahmad hukmdorlik qilgan. Boyazid II ning o'g'li Ahmad san'atsevar bo'lib, o'z saroyiga olimlar, fuzalolar, musiqachilarni yig'ib tez-tez bazmlar o'tkazib turgan, o'zi ham she'rlar yozgan. Ahmadning shoirlarga hurmati ayniqsa yuqori edi.

Uning saroyida har yili mushoira o'tkazilib, g'olib shoir shu yilning eng yaxshi shoiri atalib, mukofotga sazovor bo'ladi. 1505 yildagi mushoirada Mehri Xotun birinchilikni oladi. Mana shu faktning o'zi shoira salohiyatiga, talantiga bahodir.

Zamondosh shoirlardan Guvohiy, Maqomiy, Oftobiylar bilan Mehri Xotun yaxshi munosabatda bo'lgan. Ijodkor sifatida Iso Najotiy (?–1509) ijodiga ergashgan va uning g'azallariga naziralar bag'ishlangan. Har bir baytlarida hayotsevarlik, tuyg'ular pokligi ko'rinib turgan Mehri muhabbatda o'zaro tenglik va ayol qalbini tushunishni kuylaydi.

“Nachora bechora ko'nglim bir dam o'lmas yorsiz”, “Do'st hajrida damo-dam bag'rim qon aylagan”, “Yo'lida jon bermogga jonona kelmish” deya yoza olish o'z davrida ayol shoira uchun jasorat edi. Mehri Xotun g'azallarida an'anaviy obrazlardan yangicha tashbehlar quradi. Yor sochining xalqa-xalqasini chovgonga o'xshatib, o'z boshini to'p kabi nisor qilishga tayyor. Tabiat go'zalligini, bahor nashidasini, bezangan ayyomni go'zal satrlarda chizadi:

Gul kabi keldi yana olam bahorila bu kun
Suratin kashf ayladi gulzora o'xshar shahriyor.

Shahar turmush tarzini yaxshi bilgan Mehri Xotun turk adabiyoti tarixida birinchilardan bo'lib shahar sha'niga qasida bitdi. Shoirning “Shahri Lodik” murabباسi Lodik shahri ta'rifiga bag'ishlangan:

Havosi mo'tadildir, suvi kavsar,
Daraxti narule sarv-u arar
O'ti rayhon-u sumbul hoki anbar
Ne xush yaylak emish bu shahri Lodik.

Turk shoiralari ichida she'rlarining samimiyligi va ravonligi bilan Mehri Xotun alohida ajralib turadi. Butun umri Amaseda yashab o'zini badiiy ijodga bag'ishlangan Mehri Xotunning devoni bir necha nusxada bizning davrimizgacha yetib kelgan. Uch nusxasi Turkiyada, Istanbul universitetida hamda Sulaymoniya va Ayosofiya kutubxonalarida. V.D. Smirnov tomonidan topilgan bir nusxasi Sankt-Peterburgdagi Osiyo xalqlari institutida saqlanadi.

Mehri Xotun g'azallaridan

Yo'liga jon bermoqqa jonona kelganlardanmiz,
Tolibi dard bo'libmiz, darmona kelganlardanmiz.

Boshimni to'p etmak uchun zulfining chavgonina,
Ishqing maydoniga mardona kelganlardanmiz.

Mehrini ko'ngilda muhkam tutmisham, haq so'zlaram,
Siddiq ila Mansurvash uryona¹ kelganlardanmiz.

Guliston husnining har ko'shasinda do'stman,
Bulbuligo'yo bo'lib afg'ona kelganlardanmiz.

Kelmisham, husning zakotindan ki shayulloh etay,
Bilma bu darveshni jonona kelganlardanmiz.

Ey tabibi dil, meni band ila darmon vaqtdir,
Zulfining zanjirina devona kelganlardanmiz.

Sha'mi ruxsorina jononning, ey Mehri doimo
Yonaylik parvonavash, chun yona kelganlardanmiz.

ISO MASIHIY (1470-1512)

XV asrning oxiri XVI asr boshlaridagi turk she'riyati olamidagi yorqin yulduzlardan biri – Iso Masihiy 1470 yil Albaniyadagi kichik shaharlardan bo'lgan Prishtinda tug'ildi. Iso Masihiyning oilasi haqida, ya'ni uning ota-onasi, qanday muhitda bolaligi kechgani to'g'risida deyarli ma'lumotlar yo'q. Shoir hayoti haqidagi asosiy

¹ Урйон – арқон, дор.

fikrlarni Latifiy va Oshiq Chalabiylarning (“Mashoir ush-shuaro”) tazkiralarga suyanib aytish mumkin.

Bo‘lajak shoir yoshligida Istambulga kelib, madrasada o‘qiydi. Shu bilan birga, xattotlikni o‘rganadi. Yaxshi xattot, qobiliyatli shoir bo‘lgan Iso Masihiy Boyazid II ning vaziri a‘zami Xodim Ali Poshoning nazariga tushadi va sulton devoniga ishga olinadi. Devon kotibi Iso Masihiyning daromadi yaxshi bo‘lib, tabiatan hissiyotli shoir Istambulda juda zavqli hayot kechiradi. Uning mehmondo‘stligi, ulfatbozligi tezda butun shaharga tarqaladi. Vazir Ali Posho shoir Isoning butun “erkaliklariga” ko‘z yumardikim, uning g‘azallarining ashaddiy muxlisi edi. 1511 yilda shialar bilan bo‘lgan to‘qnashuvda Ali Posho shahid bo‘lgach, Iso Masihiy homiysiz qoladi. Shoir shahzoda sulton Salim II ga, sadra‘zamga bag‘ishlab qasidalar yozadi, biroq hech biridan iltifot ko‘rmaydi. Keyinchalik Bosniyaga ketadi va o‘sha yerda vafot etadi.

O‘z davrining eng yaxshi lirik shoirlaridan bo‘lgan Masihiy g‘azallari tilining soddaligi, uslubining nafisligi, bayon qilish, tasvirlashning originalligi bilan o‘quvchisini o‘ziga tortadi. Shoir Masihiy deb taxallus tanlashi ham bejiz emas. U she‘riyatga yangi ruh bag‘ishlash, g‘azaliyotni yanada jonlantirib, yuqori pog‘onaga ko‘tarishni maqsad qilgan va bunga ma‘lum ma’noda erishgan ham. Shoir devoni qasidalar va g‘azallardan tashkil topgan. Sulton Boyazid II ga, Ali Poshoga, Husan Poshoga, Salim I ga bag‘ishlangan qasidalari mashhur. 1511 yil Ali Poshoning o‘limi munosabati bilan yozgan marsiyasi va ilk bahor tasviriga bag‘ishlangan murabباسi Iso Masihiy ijodining gultoji deyish mumkin. Murabباس XVIII asrdayoq avval lotin, so‘ng fransuz, olmon, ingliz, rus tillariga tarjima qilingan. She‘r quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Tingla bulbul qissasin kim keldi ayyomi bahor,
Qurdi har bir bog‘aro hangoma hangomi bahor
Bo‘ldi simafshon anga izhori bodomi bahor,
Ayshu no‘sh etgil, kechar, qolmas bu ayyomi bahor.

Masihiy g‘azallaridagi bosh mavzu sevgi, muhabbat edi. Shu bilan birga shoir tabiat ko‘rinishlarini ham nihoyatda ustalik bilan tasvirlardi. Tabiat hodisalaridan go‘zal poetik tashbehlar topardi. “Bahor tumanining namligi, tongda nozik uyqudagi gullarni

uyg‘otish uchun... tong nasimi bulbullarni sayrashga undayotgandek”. Shoir g‘azallarida har bir gul ma’lum bir ma’no, ramz tashiydi. Yasmin – yorug‘ kun timsoli, binafsha – qorong‘u kecha. Tabiat tasvirini shoir shunchalik nafis, tiniq tasvirlaydiki, go‘yo o‘sha tasvir rasmini ko‘rayotgandek bo‘lasiz. Shoir mahorati haqida adabiyotshunos olim V. Garbuzova shunday yozgandi: “Masihiy Boqiydan oldin yashagan lirik shoirlarning eng yaxshilaridan biri edi. Uning g‘azali uslubning haddan tashqari chiroyliligi, tilning nisbatan soddaligi va bayonning birmuncha originalligi bilan xarakterlanadi”.¹⁹ Iso Masihiy turk adabiyoti tarixida birinchi bo‘lib, “shaharangiz” yozgan shoirdir. Keyinchalik turk adabiyotida juda ko‘plab “shaharangiz”lar yozildi. “Shaharangiz” biror shahar tasviriga, shahar madhiga bag‘ishlangan she’riy asar. Masihiy o‘z “shaharangizi”da Edirna shahrini ulug‘laydi va kichikroq doston deyish mumkin bo‘lgan bu asarning kirish qismida shoir o‘z gunohlari uchun tangri oldida tavba qiladi. So‘ngra shahardagi turmush tarzi, ayniqsa hunarmandlar hayoti juda jozibali tasvirlanadi. Temirchi, ipakchi, paxta tozalovchi, hammom xodimi, tabib va boshqa kasb egalari haqida ma’lumotlar beriladi. Asarning tili ham jimjimador emas, keng xalq ommasi yaxshi tushunadigan tarzda yozilgan. Doston tez orada mashhur bo‘lib ketadi. Zamondosh shoirlar bu asarga taqlidan Istanbul, Bursa, Manisa, Eskishahar kabi o‘sha vaqtdagi yirik shaharlarga bag‘ishlab “shaharangiz”lar yozadilar. Lomiy, Niholiy, Faqiriylarning “shaharangiz”lari bunga misoldir.

Masihiyning “Guli sadbarg” deb nomlangan, nasrda yozilgan, 100 maktubdan iborat asari ham ma’lum. Insho tarzida yozilgan, tili ravon bu asarni o‘sha davr nasrining namunasi deyish mumkin. Asarda yozish san’ati haqida so‘z yuritiladi.

Masihiy haqida Latifiyning “Tazkira”sida, Ogoh Sirri Levendning “Turk adabiyotida shaharangizlar va shaharangizlarda Istanbul” kitoblarida ozmi-ko‘pmi ma’lumot berilgan.

Masihiy murabbasidan

Tingla bulbul qissasinkim – keldi ayyomi bahor,

¹⁹ Гарбузова В.С. Турк адабиёти классиклари. –Т., 1960. 74-бет.

Qurdi har bir bog‘aro hangoma hangomi bahor.
Bo‘ldi simafshon anga izhori bodomi bahor,
Ayshu no‘sh etgil, kechar, qolmas bu ayyomi bahor.

Qayta anvoi shukufi-la bezandi bog‘u rog‘,
Aysh uchun qurdi chechaklar sahni gulshanda o‘tog‘²⁰.
Kim bilir, to bir bahorga kim o‘lib, kim qoldi sog‘,
Ayshu no‘sh etgil, kechar, qolmas bu ayyomi bahor.

Qildi shabnam qayta javhardor tig‘i savsani,
Jolalar oldi havoyi to‘plari-la gulshani,
Kez, tomosho ersa maqsuding meni esla, meni,
Ayshu no‘sh etgil, kechar, qolmas bu ayyomi bahor.

Ruhlari rangin go‘zallardir gul ila lolalar,
Kim quloqlariga turli javhar osmish lolalar.
Aldanib, o‘ylama; bular shunda boqi qolalar,
Ayshu no‘sh etgil, kechar, qolmas bu ayyomi bahor.

Bu gulistonda ko‘ringan lola, gul nu‘man-la,
Bog‘ida qon oldi chaqmoq nishtari boron-la.
Orif ersang xo‘sh kechirgil bu dami yoron-la,
Ayshu no‘sh etgil, kechar, qolmas, bu ayyomi bahor.

Abri gulzor ustiga har subhi gavhar bor ekan,
Nafhai boda sahar pur nofai totor ekan.
G‘ofil o‘lma, olaming mahbubligi to bor ekan,
Ayshu no‘sh etgil, kechar, qolmas bu ayyomi bahor.

Oldi, gulzor ko‘rkin oldi bu siyoh bodi xazon,
Adl etib asta-sekin keldi yana shohi jahon.
Davlatida bodalar kom bo‘ldi soqi komiron,
Ayshu no‘sh etgil, kechar, qolmas bu ayyomi bahor.

(Mirtemir tarjimasi)

Masihiy g‘azallaridan

Agar afsuni ajal bog‘lamas ersa dahanim,
Jon berarda labining zikri bo‘lar har suxanim.

²⁰ ЎТОҒ – ўтов, уй, тураp жой.

Sen sanam chehra uchun gar meni davron etsa hok,
Yuzingning oqligiga shahodat bergay kafanim.

Xori hijroning sening oyog‘imga kirsanoq,
Parilar g‘amza o‘qi birla chiqargay tikanim.

Shunchalar to‘pu tufang²¹ otdi havodis mengakim,
Zahmidan ko‘p xaroba qal’aga do‘ndi badanim.

Ey Masihiy, men agar qo‘l yuvarsam bu olamdan,
Oftobim bo‘lsin xurshid, ham falak laganim.

* * *

Yashirmagin soching bo‘yini bizdan,
Ayo kutganimiz shumidi sizdan.

Aytdim boda dahani yor uchun roz,
Xabar ham yo‘lladim unga og‘izdan.

Sog‘inib yurarkan yo‘llar ustida,
Ahvoling so‘rardik yo‘ldan, izdan.

Sodiq emish magar zuhdiga so‘fiy,
Ki ko‘tarmas boshin xilvatda tizdan.

Raqibga, bilmadik, netdik Masihiy,
Ki hech olmayotir ko‘zini bizdan.

XVI asr turk adabiyotiga umumiy nazar

XVI asr turk mumtoz adabiyotining eng gullagan, yuqori cho‘q-qisiga chiqqan “oltin davri”dir. Bu “oltin davr”da usmonlilar imperiyasi siyosiy, harbiy jihatdan qudratli, uch qit’aga yoyilgan bir davlat edi. Usmonlilarning ulug‘ hukmdorlari ham shu davrda yetishib chiqdi. Imperiya sarhadlari shimolda Rus dashtlariga, Janubda Hind okeaniga, G‘arbda Yunoniston, Sharqda Ajam (arab) ichkarisigacha yetib borgan. Yevropa davlatlari ham turk sultoni bilan hisoblashardi. Davlat siyosiy nufuzining mustahkamligi, albatta

²¹ Тўфанг — милтиқ.

ilm-fan, san'at-madaniyat, adabiyot rivojiga zamin yaratdi. Savdo-sotiq ishlari rivojlangan, ko'plab xorijiy ellardan Istambulga karvonlar oqib kelar, bu o'z navbatida xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni kuchaytirardi. Diniy, irqiy nizolarga barham berilib, shaharu qishloqlarda osudalik hukm surdi. Istanbul adabiyot, milliy madaniyat gullab yashnayotgan shaharga aylandi. Sultonning va beklarning saroylarida ilmiy-adabiy munozaralar uyushtirilar, ijod ahliga e'tibor qilinardi. Istanbul, Bursa, Edirna, Manisa, Konya va boshqa yirik shaharlarda ko'plab jome, xonaqoh, madrasa, kutubxona karvonsaroylar qurilib, ajoyib me'morlik yodgorliklari bunyod etildi.

Turk mumtoz she'riyatining eng yorqin yulduzlari Mahmud Abdul Boqiy, Hayoliy, Ruhiy kabi shoirlar ham o'sha davrning adabiy, madaniy muhiti tufayli yetishib chiqdi. Istambuldagina emas, boshqa yirik shaharlardagi saroy va madrasalarda ham o'ziga xos adabiy guruhlar to'plandi. Imperiyaning madaniy markazlari bo'lmish Istanbul, Edirna, Bursa, Konya, Uskup, Diyorbakir shaharlarida adabiy muhit o'ziga xos tarzda rivojlandi. Endi turk shoirlari forsiy tilda ijod qilgan buyuk shoirlarga emas, Ahmad Posho, Najotiy kabi turkiy tilda ijod qilgan, aytish mumkin bo'lsa, o'z vatandosh ustozlari ijodiga ergashib ijod qila boshladilar. Devon she'riyati, asosan, aruz vaznida yaratilgani uchun she'riyatda arab, fors kalimalari nihoyatda ko'p qo'llanilardi. Bu davrda she'riyat tilini "turkiylashtirish"ga intilishlar ham shu sabablidir. "Turki basit", ya'ni sodda xalq turkchasi va xalq tushunadigan majozlarda she'r yozish tarafdorlari ham bor edi. Oydinli Visoliy, Edirneli Nazmiy kabilar. Ammo, bu yo'nalish tarafdorlari uncha muvaffaqiyatga erisha olmadilar.

XVI yuz yilda tazkirachilik, tarixchilik, masnaviy yozish borasida ham ijobiy siljishlar bo'ldi. Xalq hikoyalari yo'lida didaktik asarlar yaratildi. Ishqiy, axloqiy, diniy mavzularda, pand-nasihati, tarixiy voqealarni aks ettiruvchi asarlar, jumladan Ibni Kamolning "Yusuf va Zulayho", Qora Fazliyning "Gul va Bulbul", Toshlijali Yahyoning "Xamsa"si yaratildi.

Shaklan murabbaqa o'xshash, ammo sodda tilda, kuyga solib aytish uchun yozilgan, sharqiy nomini olgan she'rlar ham asosan shu davr mahsulidir. XVI asrda "Shaharangiz" janrida Istanbul, Bursa, Edirna, Diyorbakir kabi shaharlarga bag'ishlangan ko'plab asarlar vujudga keldi. Lomiyning Bursa ta'rifi keltirilgan "Shaharangiz"i

ayniqsa mashhurdir. Umuman XVI asrda avvalgi yuz yilliklardagi adabiy yoʻnalish yanada mukammallashib, turk klassik adabiyoti mazmunan ham, shaklan ham ancha boyidi. Bu davrda koʻplab gʻazalnavis, masnaviynavis shoirlar yetishib chiqib, turk adabiyoti sahifasini yanada bezadilar. Zotiy, Boqiy, Ishoq Chalabiy, Figʻoniy, Rahmiy, Hayratiy, Lomiy Haqqoniy, Nazmiy, Shohidiy, Shukriy, Jaloliy, Behishti, Sharifiy, Gʻazoliy, Shamsiddin Sivasii, Nihoni, Hotamiy, Vasfiy, Haylik Bey, Usuliy, Kamol Poshozoda, Bagʻdodli Ruhii XVI asr turk klassik adabiyotining eng koʻzga koʻringan vakillaridir.

MAHMUD ABDUL BOQIY (1526–1600)

Mumtoz turk adabiyotining, umuman turk devon sheʼriyatining eng yirik vakili Boqiydir. Uning otasi Fotih jomesining muazzini Mehmet Afandi ilmi kishi boʻlsa ham, moddiy jihatdan badavlat emas edi. Otasining istagi boʻyicha Boqiy hunar oʻrganib oilaga moddiy koʻmaklashishi kerak edi. Ammo ilmga boʻlgan chanqoqlik, tabiat bergan iqtidor tufayli madrasada oʻqiydi, oʻz davrining yirik ulamolaridan dars oladi. Keyinchalik oʻzi ham madrasada dars beradi. 25 aqcha maosh olib ishlab yurgan Mahmud keyinchalik juda yuqori lavozimlarga koʻtariladi. Boqiy Sulaymoniya madrasasining mudarrisi, Makka qozisi, Istambul qozisi, Anadoʻlu va Rumelida qoziaskar vazifalarida ishlaydi. Boqiy yashagan davr usmonlilar davlatining shon-shuhrati porlagan davr edi. Gʻazallari va ayniqsa “Sunbul qasidasi” bilan tanilgan shoirni sulton Sulaymon Qonuniy ham juda hurmat qilardi. Sultonning 1555 yilda Eronga yurish qilib zafar qozonishiga bagʻishlab qasida yozgach, uning obroʻsi yanada oshib ketadi. 1566 yil Sulaymon Qonuniy vafot qiladi. Qonuniydan keyingi sultonlar Salim II (1566-1574), Murod III (1574-1595) Mehmed III (1595-1602) ham Boqiyga yaxshi munosabatda boʻladilar, shoirga shohona ehsonlar berib, eʼzozlaydilar. Bir umr yuqori lavozimlarda boʻlgan Boqiy 70 yoshida isteʼfoga chiqadi. Shoir 1600 yil 7 aprelda 74 yoshida vafot qilgan. Boqiyning janozasi Fotih jomesida shayxulislom Sunulloh Afandi tomonidan oʻqilib, dabdabali dafn marosimi oʻtkaziladi.

Usmoniylar davlatida “shoirlar sultoni” deb tanilgan Mahmud Abdul Boqiy o‘z davrida boshqa sharq mamlakatlarida ham mashhur edi. Arabiston, Eron, Hindiston saroylarida ham Boqiy g‘azallarini o‘qishgan. Hatto Eron shohi Boqiyni o‘z saroyiga taklif qilganligi ma’lum. Boqiy Makka qozisi lavozimida turgan vaqtida ko‘plab musulmon mamlakatlaridan ziyoratga kelgan ilm ahli, shoirlar bilan uchrashgan, suhbatlashgan, bu ham shoirning mashhur bo‘lishining omillaridan biridir.

M. Boqiyning poetik ijodi o‘z davrida ham, undan so‘ng ham zo‘r qiziqish uyg‘otib, ko‘pgina turk shoirlari Boqiy ijodiga ergashganlar. Shoirni lirik she‘riyatning hoqoni, badiiy so‘z ustasi deb hurmatlaganlar. Ayrimlar Boqiy g‘azallarini, mashhur fors shoiri Hofiz Sheroziy g‘azallari bilan teng qo‘yganlar. Hatto shoir Nodim Boqiy g‘azallaridek g‘azal yozib bo‘lmaydi deya ulug‘laydi. O‘rta asrlarda yaratilgan deyarli barcha adabiy tazkiralarda Boqiy ijodi osmonga ko‘tarib maqtaladi. U turk she‘riyatida yangilik yaratgan, she‘riyat tilini eng yuqori cho‘qqisiga olib chiqqan shoir sifatida ta’riflanadi. Mana shunday voqeani ham aytadilar. Ijodini juda erta boshlagan Abdul Boqiy o‘z g‘azallarini, o‘sha vaqtdagi mashhur shoirlardan Zotiylga olib kelib ko‘rsatadi. Shoir Zotiyl yosh bir yigitchaning shunday ajoyib g‘azallar yozganiga ishonmaydi. Keyinchalik bu g‘azallarni o‘z devoniga kiritadi va bu ishi fosh bo‘lganda “ajoyib shoirdan” o‘g‘irlash ayb emasligini aytadi. Ko‘rinadiki Boqiyni katta-kichik zamondosh shoirlar birdek tan olganlar. Bunga Boqiy g‘azallarining yuksak badiiy saviyada yozilganligi birinchi sababdir. Adabiyotshunos olim Ahmad Qaboqli “Turk adabiyoti” darslik kitobida Boqiy adabiy san’atini yuksak baholab shunday yozadi: “Boqiyning san’ati, bir so‘zla aytganda mukammal bir san’atdir. She‘rlarida yuqori darajadagi jo‘shqinlik ilhom va badiiyat bor. So‘zlar tom ma’noda o‘z o‘rnida qo‘llanilib, mazmun chuqur ifodalangan. Zakovat va so‘z san’atlariga alohida e’tibor beriladi. Kalimalarida bir nechta ma’no bera oladigan, misralar ohangini eng yuqori darajaga ko‘taradigan shoirdir”²².

Boqiyning bizgacha yetib kelgan devoni asosan g‘azallar va qasidalardan iborat bo‘lib, mazmunan o‘sha davr adabiy muhitiga xos bo‘lgan tradision tarzdadir. Boqiy g‘azallaridagi bosh mavzu –

²² Аҳмад Қабоқли. Турк адабиёти. 2-жилд. –Истамбул, 1997. –Б.597.

sevgi. Badiiy obrazlar ham (gul, bulbul, may, bahor, kuz va boshqalar) ko‘proq an’anaviy. Lekin, shoir misralarida arab, fors, turk tilida birday qo‘llaniladigan so‘zlarni, masalan, muhabbat, sharob va hokazo, shunday ustalik bilan ishlatadiki, uning ayrim g‘azallarini uch til vakillari ham birdek o‘qib tushinishi mumkin. Boqiyning bu badiiy mahorati xususida, turk adabiyotining tadqiqotchisi prof. V.S. Garbuzova quyidagilarni aytgandi: “Boqiy tomonidan poetik misralarning bu qadar murakkablashtirilishi shuning uchun zohir bo‘ldiki, u uch tildagi (turk, fors va arab tillaridagi) so‘zlardan g‘oyat ustalik va katta qobiliyat bilan foydalanib, ko‘p sonli omonim va sinonimlarni vujudga keltirdi. Boqiy she‘rlarida shu qadar kutilmagan o‘xshatishlar, shu qadar murakkab metaforalar, shu qadar ko‘p nozik imo-ishoralar borki, ularni faqat o‘sha davrda juda katta bilimga ega bo‘lgan kishilargina tushunishlari mumkin edi”²³. Darhaqiqat Boqiy g‘azallarida va ayniqsa qasidalarida ko‘plab aniq fanlarga oid ma‘lumotlarni ham uchratamizki, shoir o‘z davrining ancha bilimdon ziyolilaridan bo‘lganiga ishonchingiz komil bo‘ladi. Uning Sulaymon Qonuniyga bag‘ishlangan qasidalaridan birida ko‘plab planetalarning nomi keltiriladi va bu hodisa badiiy san’atdagi timsol, o‘xshatish, qiyoslash vazifasini o‘taydi.

Masalan, qasidaning boshlanishidagi quyidagi misralarga e’tibor qiling:

Hangami shab kungarai qasri osmon
 Zayn bo‘lmish edi shu’lalanib sham’i axtaron;
 Xeli kavokab ichra yonib mash’ali qamar,
 Sahni samoda ravshan edi rohi qahkashon:
 Dast cho‘zmish edi kilki shahobga dabiri charx,
 Tugro navisi hukmi xudovandi insu jon.
 Bazmu falakda sozlar edi Zuhra sozga chang,
 Ayshu safoda xurramu, xandonu shodumon.
 Bu charx chanbarida tutib davr usulini,
 Daffori mehr qilmish edi chehrasin nihon,
 Bir tig‘i zar nishonila kirmishdi arsaga,
 Shamshir bozi ma’rakayi sahna osmon²⁴.

²³ Garbuzova B.C. Турк адабиёти классиклари. –Тошкент, 1960. –Б. 78-79.

²⁴ Ўша китоб. –Б. 80.

(Mirtemir tarjiması)

Boqiy she'r tuzilishiga juda e'tibor qilgan. o'rta asrlar she'riyatida urf bo'lgan tarix aytish yoki bir baytdan bir necha ma'no keltirib chiqarish mumkin bo'lgan g'azallar yozishda kamolot darajasiga ko'tarilgan. "Texnik she'riyat" sohasida ajoyib namunalar yaratgan shoir, bir-biriga zid bo'lgan tushunchalarni ustalik bilan bog'lardiki, bunda mazmun ham buzilmasdi, she'rning shakli ham go'zallashardi. Boqiy uchun asosiy estetik o'lchov – nafislik, nazokat va go'zallik edi. "She'riyat nafis va go'zal bo'lishi kerak" - deb yozgandi shoirning o'zi ham. She'r tuzilishi san'atini zargarona mahnatga qiyoslagan Boqiy, g'azal kompozitsiyasi, ritm tuzilishi, ohangdorlik, musiqiylikka alohida e'tibor beradi. Mumtoz g'azallarda uchraydigan an'anaviy obrazlarga shoir yangicha yondoshadi. Lolani may to'la qadahga qiyoslasa, mayxonani gulzorga, chamanga qiyoslaydi. "Sen gulzor istar bo'lsang mayxonaga kel, gul istar bo'lsang mana maykosa". "Bu dunyoning go'zalligi may va sevgi emasmi?" "O, Boqiy o'tkinchi dunyo g'amlarini unut, may to'la qadahni ko'tar" mazmunidagi misrlar shoir g'azallarida tez-tez uchraydiki, buni ramziy ma'noda tushunish kerak. Butun sharq she'riyatida bo'lganidek, Boqiy she'rlari ham tasavvufiy ruhdan mosuvo emas. Ammo, ko'proq shoir real hayotni kuylashni afzal ko'radi. Uning g'azallarida "Jahon afsonadir, aldanma Boqiy, jom-u shodlik, xayolu xoba benzar" kabi misralar uchrasa-da, tabiatan zavqli, go'zallikka oshno bo'lgan shoirning hayotsevarligi uning asarlariga ham ko'chgandir. Dunyo boqiy emasligi, o'tkinchi zamonda behuda g'am-anduhga berilmaslikka undash ma'lum ma'noda ijobiydir. Boqiy g'azallaridagi nafislik, go'zal tashbehlar o'quvchi zavqiga zavq qo'shib, uning hissiyatini tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Kutilmagan o'xshatishlar kishi zehni charxlaydi.

Sarv qomatlar iki yonin olurlar yo'lin,

Raxi gulzora ko'char yo'llari Istambulin.

Boqiy forma jihatdan yorqin misralarga nozik insoniy his-tuyg'ularni ham singdira olgan. Shoirning lirik ideali – "mukammallik dengizi, ilm kemasi, she'riyat maskanidir".

Mahmud Abdul Boqiy o'sha davr turk she'riyati tilini yana bir pog'ona ko'tardi. U turk tilini leksik jihatdan ham, grammatik

ji hatdan ham o‘zlashma arxaik so‘zlardan tozalashga harakat qildi. U she‘r shaklini mukammallashtirishga ko‘proq e‘tibor bersa-da, mazmunni unutgani yo‘q. An‘anaviy obrazlarga yangicha estetik yuk yukladi, chiroyli metaforalar, o‘xshatishlar topib, she‘riyat badiiyatini yanada go‘zallashtirdi. Mahmud Abdul Boqiy ijodi o‘rta asrlar turk she‘riyatidagi nihoyatda nafis va latif, ayni paytda murakkab tilli she‘rlarning eng yaxshi namunasidir.

Boqiy ijodidan namunalar

Orazing obi nobdir²⁵ go‘yo,
Dug‘oring bir habbobdir²⁶ go‘yo.
Dilda anvori mehri ruxsoring,
Obda mohitobdir go‘yo.
Bazmi g‘amda du chashmi purxuning,
Ikki shisha sharobdir go‘yo.
Naqshi husni xatingla safhayi dil,
Bir musavvar kitobdir go‘yo.
Tutdi mehri jahonni ul mohning,
Partavi²⁷ ofitobdir go‘yo.
Boqiyo holi anbarini oning,
Nofayi mushki²⁸ nobdir go‘yo.

Muhibbiy g‘azaliga taxmis

Jomayi sihhath Xudodan xalqqa bir xil‘at kabi,
Bir libosi foxir bo‘lmas jismga ul qisvat kabi.
Bor ekan baxtu saodat quvvatu qudrat kabi.
Xalq ichinda mo‘‘tabar bir narsa yo‘q davlat kabi,
Yo‘q erur davlat jahonda bir nafas sihhath kabi.
Ahli vahdat koinotning oqilu donosidir,
Mardi forig‘ olamning mumtozu mustasnosidir.

²⁵ Оби ноб – покиза сув.

²⁶ Ҳаббоб – сув устидаги қабариклар.

²⁷ Партав – зиё, порлоқлик.

²⁸ Нофайи мушки ноб – соф мушки анбарни оҳу.

Ko‘r na der ul, kim so‘zi go‘yo Masih anfosidir:
“Saltanat deganlari faqat jahon g‘avg‘osidir”
Bo‘lmagay baxtu saodat dunyoda vahdat kabi.

Toati Haq munisi bazmi baqodir oqibat,
Suhbati jonu badan sendan judodir oqibat.
Bodi sarsardir fano, olam habodir oqibat,
Qo‘y bu ayshu ishratni, chunkim fanodir oqibat
Yori boqiy istar ersang, bo‘lmagay toat kabi.

Olamni ko‘zdan kechirsang, aylasang bir yil rasad,
Davri ichinda turmasang, ko‘rsang hazoron neku bad.
Har tarafdin oqsa dunyo, moli kelsa loyu ob?
Bo‘lsa qumlar soni qadar umringga haddu adad.
Bo‘lmagay bu shishayi charx ichra bir soat kabi.

Manzili osoyishi uqboga istarsang vusul,
Hubbu dunyodan farog‘at kibi bo‘lmas to‘g‘ri yo‘l.
Shodmon arbobi uzlatdir hamon Boqiy Malul,
Gar huzur etmoq tilarsang ey Muhibbiy forig‘ bo‘l.
Bo‘lmagay vahdat maqomi g‘ussayi uzlat kabi.

XVII asrdagi ijtimoiy hayot va adabiy muhitga umumiy nazar

XVI asr usmonlilar davlatining katta o‘zgarishlarga yuz tutgan davri edi. Qonuniy Sulton Sulaymonning o‘limidan so‘ng taxtga o‘tirgan Salim II ham Qonuniy yo‘lini davom ettirdi. Davlatning iqtisodiy ahvoli, ichki va tashqi siyosat bir maromda saqlanib turdi.

XV asrda rivojlanishi bir oz susaygan devon adabiyoti XVI asrga kelib o‘zining eng yuksak cho‘qqisiga chiqdi va bu rivojlanish XVII asrda ham davom etdi.

Asr boshlarida turk-islom madaniyati hukm surgan joylarda o‘ziga yarasha muammolar paydo bo‘lgan edi. Markaziy Osiyoda yuz yillardan buyon hukm surib kelayotgan siyosiy vaziyatdagi ichki ziddiyatlar tugatilmagan, Oltin O‘rdadagi To‘xtamish o‘rtadan ko‘tarilgandan keyingi paydo bo‘lgan bo‘shliq to‘ldirilgan edi. Oltin O‘rda davlatidagi beqaror vaziyat chor Rossiyasining Hazar dengiziga chiqishi va O‘rta Osiyo tomon ilgarilashiga qulay vaziyat tug‘dirdi. Ispanlar tomonidan Amerikaning kashf qilinish, yangi

dengiz yo‘llarining ochilishi ham usmonli imperatorligini iqtisodiy buhronga olib kelgan omillardan biri bo‘ldi.

Garchand XVII asr boshida Sulton Mehmed III (1595–1603) “Xachova” jangida g‘olib kelib, Yevropada usmoniylarning mavqei biroz mustahkamlangan esa-da, 1606 yil Sulton Ahmad I (1603–1617) tomonidan, “Zitvatoron” shartnomasining imzolanishi usmonlilar Yevropada olg‘a siljishiga chek qo‘ydi. Davlatning ichidagi ziddiyatlar va ayniqsa Eron shohi Abbos I Turkiyaga urush ochishi imperiyaning yanada zaiflashtirdi. Ammo Turkiya uchun eng katta xavf Yevropaga nisbatan ilm-fan, madaniyat rivojining to‘xtab qolganligi edi. Yevropada renessansdan so‘ng shiddat bilan rivojlanayotgan madaniy va iqtisodiy holat Turkiyada aksincha edi. Sulton Ahmad I o‘limidan so‘nggi taxt talashishlar, davlat tepasidagi shaxslardagi beqarorlik, ichki nizolar davlatni yanada zaiflashtirardi. 1648 yil taxtga o‘tirgan Mehmed IV gina bu tanazzulni biroz to‘xtatishga muvaffaq bo‘ldi. XVI asrdagi usmoniylar shavkatini tiklash uchun qo‘lidan kelgancha urindi. Mehmed IVning onasi Turxan Volida Sulton siyosatda ham so‘zi o‘tadigan ayollardan bo‘lib, sadra‘zamlikka Ko‘prulu Mehmed Poshoni qo‘ydirishga muvaffaq bo‘ladi. Mehmed Posho davlat tizimida bir qancha o‘zgarishlar qiladi. Mehmed Posho vafotidan so‘ng uning o‘rniga sadra‘zam bo‘lgan o‘g‘li Fozil Ahmad Posho davlat miqyosida birmuncha ijobiy ishlarni amalga oshirdi. Yevropa siyosatini yaxshi bilgan, zamonaviy ilm-fandan xabardor Fozil Posho harbiy islohotlar qilib, Girid jangida zafar qozongandi. Bu bilan usmoniylarning mavqei biroz mustahkamlangandek bo‘ldi. Fozil Poshoning o‘limidan so‘ng, 1699 yilda imzolangan “Karlovcha” shartnomasi davlat va millat uchun ko‘p zararli shartnoma bo‘ldi.

1642 yilda Istambuldagi kuchli zilzila yoki 1645 yilda sodir bo‘lgan kun va oy tutilishlari ham afkor omma o‘rtasida turlicha fikrlar uyg‘otdi, hukumatga bo‘lgan ishonchni susaytirdi. Hatto usmonlilar davlatining tamomila tanazzuli haqida gap-so‘zlar ham bo‘ldi. Ana shunday ijtimoiy muhitda adabiyot, adabiy hayot o‘sishtan to‘xtab qolgani yo‘q. Fuzuliy va Boqiy kabi ustoz deya tan olingan shoirlarning an‘analari davom ettirildi. XVII asrda ham turk adabiyoti tarixida salmoqli o‘rni bo‘lgan shoirlar yetishib chiqdi. Bu davrda hukmronlik qilgan sultonlarning ko‘pchiligi shoir bo‘lganligi yoki adabiyotni juda sevganligi adabiyot rivojlanishidagi muhim

omillardan bo'ldi. Darhaqiqat XVII asrda hukmronlik qilgan sultonlar Mehmed III "Odiliy", Ahmad "Baxtiy", Murod IV "Murodiy" taxalluslarida ijod qilganlar. Istanbul ham siyosiy, ham madaniy-adabiy markaz bo'lib qolaverdi. Adabiyot asosan an'anaviy yo'lda rivojlandi. Oshiqlar ijodida ham, devon adabiyotida ham poeziya asosiy adabiy tur bo'lib qolaveradi. Bu asr adabiyotidagi o'ziga xoslik, poeziyadagi yangi janrlar-satirik va didaktik asarlarning yaratilishi bo'ldi. Aniq fanlarning rivojlanishi adabiyotga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Kotib Chalabiy taxallusi bilan mashhur bo'lgan Mustafo ibn Abdulla (1609–1657) geografiya, tarix, astronomiya, falsafa, adabiyotga oid o'nlab kitoblar yozdi. Ayniqsa, uning bibliografik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kitobida 8000 ga yaqin arab, fors, turk mualliflari haqida ma'lumotlar berilganligi ahamiyatlidir. Mashhur sayyoh Avliyo Chalabiy (1611–1670 yoki 1681) Suriya, Falastin, Misr, Mojariston, Polsha, Avstriya, Germaniya, Daniya, Fransiya, Ukraina, Moldaviya, Volga bo'yiga, O'rol, Kavkaz, Qrim va yana boshqa ko'pgina davlatlarda bo'lib, ko'rgan-kechirganlarini o'z "Sayohatnoma"sida aks ettirdi. XVII asrda ko'plab adabiy tazkiralarning tuzilishi, grammatikaga oid ilmiy asarlar yozilishi diqqatga molik.

Sodiqiy Kitobdorning "Majmuai Havas", (A. Navoiyning "Majolisun Nafois" asari ta'sirida yozilgan), Riyoziy Mehmed Afandining "Riyo'zush Shuaro", Sayyid Mehmed Rizoning "Rizo Tazkirasi" shular jumlasidandir.

XVII yuz yilda she'riy asarlar bilan barobar, ozroq bo'lsa-da nasriy asarlar ham yaratildi. Nargiziyning (?–1635) nasriy "Xamsa"si, yuqorida nomlari zikr etilgan Kotib Chalabiy, Avliyo Chalabiylarning "Sayohatnoma"lari bunga yaxshi misoldir. Bu davrda me'morchilik, rassomchilik va kitob bezagi san'ati ham ancha rivojlandi. Me'mor Mehmed Og'aning "Ahmadiya" masjidi rassom Naqshiyning asarlari o'z davrida dovruq taratdi. XVII asr turk she'riyatining yorqin yulduzlari Nafiy, Yusuf Nabi, Aloviddin Sobit, Ruhiiy, Vaysiylar ijodi o'rta asrlar turk nazmining eng yaxshi namunalari bo'lib qoldi.

NAFIY (1582–1636)

Asli ismi Umar bo'lgan XVII asrning mashhur shoiri Nafiy Arzirumga yaqin bo'lgan Hasanqal'a degan joyda tug'ilgan. Nafiy taxallusini unga do'sti, davrining taniqli tarixchisi Ali G'olib o'g'li bergan. Ijodining ilk davrida shoir Zarriy taxallusi bilan she'rlar yozgan.

Nafiyning otasi Qrim xonlari xizmatida edi. Yoshligidayoq iste'dodi namoyon bo'lgan bo'lajak shoirni Murod Posho Istambulga olib keltiradi. Sulton Ahmad I davrida poytaxtga kelgan Nafiy Usmon II, Mustafo kabi sultonlarga qasidalar yozgani ma'lum. Ammo Murod IV Nafiyga juda katta g'amxo'rlik qiladi. Shoirning eng ijodi gullagan davr ham Murod IV homiyligidagi vaqtdir. O'zi ham she'rlar yozgan Murod IV "she'r olamining sultoni bo'lgan bu toza so'zlovchi shoirga" ashaddiy muxlis bo'lgani ma'lum. Sulton shoirni xos majlislarga chaqirar, uzoq suhbatlar qurar, she'rlarini tinglab katta-katta ehsonlar berardi. Sultonning "erkatoyi" bo'lgan, juda yaxshi ma'lumotli, arab, fors tillarini bilgan Nafiy haqida tazkiralarda ma'lumotlar kamligi haqida savol tug'ilishi mumkin. Aytishlaricha Nafiy juda "achchiq tilli" shoir bo'lgan. U o'z satirik she'rlarida yirik amaldorlar, davlat miqyosidagi kishilarni ham hajv qilgan. Shuning uchun uning dushmanlari ham ko'p bo'lgan, balkim shu sabab zamondoshlari shoir haqida yozishni xush ko'r-magandirlar.

Murod IVning Nafiyga homiylik qilishini ularning tabiatan, bir-biriga o'xshashligi bilan izohlashadi, ayrim adabiyotshunoslar (Masalan: Ahmad Qaboqli). Shuning barobarida Murod IV avvalgi sultonlarga nisbatan adabiyot, san'atga e'tibor ko'rsatib, davlatda tinchlik-osoyishtalik hukm surayotganini isbotlamoqchi ham bo'ldi. XVII asrdagi tashqi va ichki nizolar usmonlilar imperiyasini ancha charchatib qo'ygandi. Murod IV davlatning avvalgi ulug'vorligini ilm-fan, adabiyot, madaniyatga rag'bat ko'rsatish bilan biroz bo'lsa-da tiklashga urindi. Murod IV shoirni qanchalik yaxshi ko'rmasin, gohida ranjigan vaqtlari ham bo'lgan. Lekin, bu uzoqqa cho'zilgan emas. Nafiyning satirik asarlari, sultonga yoqsa ham, tanqid qilingan shaxslarga yoqmasdi, albatta. Nafiy hajviy asarlarini to'plab "Sihomi qazo" ("Taqqir o'qlari") deb ataydi va sultonga taqdim qiladi. Murod

IV Beshiktoshi saroyida “Sihomi qazo”ni o‘qib o‘tirarkan, nogoh havo o‘zgarib, shohning yoniga yashin kelib tushadi. Bundan huzursizlangan va o‘zgacha ma’no kashf etgan sulton Nafiyni chaqirtirib keltiradi va unga bunday hajviy asarlar yozmaslikni tayinlaydi. Shoir ham so‘z beradi. Ammo biroz vaqt o‘tgach Nafiy, sultonning kuyovi vazir Bayram Posho haqida hajv yozadi. Bundan g‘azablangan Bayram Posho Nafiyni jazolashga sultonning roziligini olishga erishadi. Shoirni aldab saroyga chaqirtiradi va yerto‘lada bo‘g‘ib o‘ldirtirib jasadini dengizga uloqtirtirib yuboradi. Biroq Nafiy yozgan hajviy asarlar xalq o‘rtasida tezda mashhur bo‘lib ketgandi.

Nafiy adabiy merosini uch guruhga bo‘lish mumkin. **Birinchisi**, turk tilida yozilgan “Devon” bo‘lib, “so‘zim” radifli na‘t bilan ochiladi. “Devon”da Mavlono Jaloliddin Rumiya madhiya va 57 qasida bor. Shuningdek 119 ta g‘azal, tarkiband shaklida yozilgan “Soqiynoma” hamda qit‘a, ruboiylar bor.

Ikkinchisi, shoirning forscha “Devoni”dir. Devonda 8 na‘t, 8 qasida, 1 soqiynoma, 1 faxriya, 21 g‘azal, 171 ruboiy bor. “Devon”ning bir nechta nusxalari Turkiya va Yevropadagi kutubxonalardan topilgan. Adabiyotshunos olim Ali Nihod Tarlan bu nusxalarni qiyosiy o‘rganib, hamda turkchaga tarjima qilib, 1944 yilda Istambulda nashr ettirgan.

Uchinchisi, Nafiyning hajviy asarlarini to‘plagan “Sihomi qazo” majmuasidir. Bundagi asarlar saviya jihatidan bir xil emas. Ayrim nusxalari bir-biridan farq qiladi. Hajviy asarlarda asosan Nafiya zamondosh amaldorlar ob‘ekt qilib olingan. O‘sha davrda yashagan shoirlardan ayrimlari haqida ham Nafiyning salbiy fikrlari aks etgan.

Shuningdek, Nafiyning “Tuhfatul-ushshoq” nomli 97 baytdan iborat qasidasi ham bor. Bu asar Fuzuliyning “Anisul Qalb” dostoniga va shu mavzudagi asarlarga nazira tarzida yozilgani uchun, adabiyotshunoslar bu asarni mustaqil nazm namunasi sifatida sanamaydilar.

Davrining g‘azalnavis va hajvchi shoiri sifatida tanilgan Nafiy ijodida ko‘zga tashlangan o‘ziga xoslik she’rlardagi ko‘tarinki ohangdir. Shoir bu ohangni saqlash uchun turk, arab, fors so‘zlaridan ustalik bilan foydalanadi. Shu yo‘sinda Nafiy qasidalaridagi uslub, devon she’riyatida qoliplashgan uslubdur. Shoirning so‘z manbai boy bo‘lishi mumkin, lekin uni she’rda musiqiy bir tarzda berish ham

bor. Ishq, falak, hijron, visol mavzusidagi Nafiy gʻazallari bu borada muvaffaqiyatli chiqqan. Shoirning ijodiy diapazoni keng, u gʻazallari faqat ishqiy mavzularni emas, harb va qahramonlik, tasavvuf mavzularini ham mahoratla yoritgan. Shoir tanlagan mavzusini oʻzi istagandek tasavvur etar, uni yoritishda ham qiynalmasdi. U oʻzigacha hech qoʻllanmagan kalimalar va taʼbirlarni ustalik bilan sheʼr magʻziga singdirib yuborardi. Nafiyning sheʼrlarida yangicha bir ohang, xayol va hayot kuchi bordek. Masalan, shoirning urush tasviriga bagʻishlangan misralarini oʻqisangiz, qilichlarning jaranglanishini tuygandek boʻlasiz.

Nafiy ijodining yana bir oʻziga xosligi majozlarga boylik, kuchli va koʻtarniki ruhdur. Shoir gohida aruzning qatʼiy qoliplariga rioya ham qilmasdan, soʻzlarga oʻzgacha ohang bagʻishlashga intiladi. Boqiy singari sheʼr “texnikasi”ga emas, koʻproq soʻz ohangiga eʼtibor beradi.

Nafiy sheʼriyatni ulugʻ neʼmat deb bilgan. U shoirlarni sultonlardan yuqori qoʻyadi. “Shoirlar boʻlmasa, oʻtib ketgan shohlarni hech kim bilmasdi ham, eslamasdiyam ham” deya yozgandi Nafiy. Shoir gʻazallarida ayni paytda magʻrurona yozilgan misralarni ham uchratamiz. Gohida u oʻzini barcha zamondoshlaridan ustun qoʻyadi. Sheʼr aytganida hatto “hofiz ham jim turadi” tarzidagi oʻziga ishonch va bino qoʻyish ham bor.

Nafiyning hajviyoti ayniqsa oʻz davri uchun xarakterli boʻlib, shoir turk adabiyoti tarixida birinchilardan boʻlib, sulton saroyining ichki kirdikorlarini qalamga oladi. Undagi laganbardorlik, soxtalik, koʻzboʻyamachiliklarni fosh qiladi. Shuning uchunmi Nafiy hajviyoti xalq oʻrtasida tez tarqalardi. Xalq ham shoirga kerakli hurmatni koʻrsatardi. Tarixchi Kochubey Bayram Posho tomonidan oʻldirilgan shoirning jasadini dengizga tashlashini ham, xalqdan Nafiy oʻlimini yashirish uchun qilinganligini yozgandi.

Nafiy gʻazallari, ayniqsa satirik sheʼrlari bilan XVII asr turk sheʼriyatiga yangicha bir ohang olib kirgan shoir boʻlib qoldi.

Umar Nafiy gʻazallaridan

Oshiqqa hech taʼna qilmang, muhtalodir naylasin,
Odamga mehru muhabbat bir balodir naylasin.

Koʻngli dilbardan uzilmasa ajabmi oshiqning,

G'amzasila to azaldan oshinodir naylasin.

Zulfiga qolsa parishon aylamasdi dillarni,
Ani tahriq²⁹ aylagan bodi sabodir naylasin.

Netsin, bo'lsa muhtarib³⁰ holi dili ushshoqdan,
Siynasi oyinayi olam namodir naylasin.

Bo'lmasa Nafiy ne qilgay dilbasta zulfi dilbara,
Tab'i sho'xi doma tushmas bir humodir naylasin.

* * *

Bahor bo'lsa, yana sayru guliston bo'lganin ko'rsam,
Go'zal sayr aylamoq ushoqqa oson bo'lganin ko'rsam.

Latofatdan ko'rinsa osumonning aksi har yerda,
Chamanda o'zga bir olam namoyon bo'lganin ko'rsam.

Yana roz duxtarin³¹ paydo etib azmi qaror etsam,
G'aming xotirda nopaydoyu pinhon bo'lganin ko'rsam.

Qizarsa, gul-gul o'lsa, tobi maydan ro'yi so'zonim,
Ruhi jononi ham, gul ham guliston bo'lganin ko'rsam.

Safodan bir-birining siynasin chok etsa dilbarlar,
Go'zallar mast bo'lib dasti giribon bo'lganin ko'rsam.

Boqib goh siynayi jonona, goh jomi mayi noba,
Dili devona barru³² bahra sulton bo'lganin ko'rsam.

Muxassal³³ bundayin bir kun ko'rmasdan o'lsam, ey Nafiy,
Falak men o'lmayin hok ila yakson bo'lganin ko'rsam.

YuSUF NABIY (1640–1712)

XVII asrning ikkinchi yarmi XVIII asr boshlarida yashab o'tgan eng shuhratli turk shoirlaridan biri Yusuf Nabiylidir. Urfada tug'ilgan

²⁹ Таҳриқ – ёндирмоқ, сувсатмоқ.

³⁰ Музтариб – изтиробли, хаста, йиғлаган.

³¹ Духтари – қиз.

³² Барр – 1. ваъдасига содиқ, муҳсин, карамли. 2. Тупроқ, ер, ер юзи.

³³ Мухассал – хулоса, натижа, ниҳоят.

shoirning otasi Xoji G'affolzoda ismli kishi bo'lib, oilada ilmga, adabiyot va san'atga qiziqish kuchli edi. Bo'lajak shoirning bolaligi ilm havosiga to'yingan bir muhitda kechdi. Boshlang'ich tahsilni Urfada oladi. Muntazam ravishda ilmini oshirib borgan Nabiyl arab va fors tillarini she'r yozish darajasida yaxshi o'rganadi. 25 yoshida Istambulga kelib, vazir Mustafo Poshoning xizmatiga kiradi. Tezda Istambuldagi adabiy muhitda o'z o'rnini topadi. Davrining ustoz shoirlaridan bo'lgan Noiliyning e'tiboriga tushadi va hurmatini qozonadi. Yusuf Nabiga Mustafo Poshoning umrining oxirigacha homiylik qiladi. U vazirning devonida kotib, so'ngra turli yuqori lavozimlarda ham ishlaydi, hatto bir qancha harbiy yurishlarda vazirning yonida bo'ladi. 35 yoshida haj safarini ixtiyor qiladi. Hajdan qaytib "Tuhfat ul-haramayn" ("Ikki muqaddas shaharga sayohat") nomli asarni yozib sulton Mehmed IVga topshiradi. Geografik ruhdagi bu asarda Yusuf Nabiyning Makka va Madina shaharlariga qilgan sayohatlari, bu shaharlardagi ijtimoiy muhit o'qishli tarzda juda yaxshi ifodalangan. Kitobning Mehmed IVga sovg'a qilinishi ham bejiz emas. Sulton sevikli shoiri Yusuf Nabiyning haj safari uchun sharoit yaratib bergan, o'sha vaqtdagi Makka valiyisiga xat yozib, Nabiylga e'tibor qilishini ham buyuradi. Umuman Yusuf Nabiyl 72 yillik hayotida oltita sultonlar hukm surgan davrni ko'rdi. Bu hukmdorlarning barchasi (Ibrohim I, Mehmed IV, Sulaymon II, Sulton Ahmad II, Mustafo III, Ahmad III) Nabiylga yaxshi munosabatda bo'lib, iltifotlar ko'rsatib turgan. Haj safaridan so'ng Yusuf Nabiyl ulug' vazir Mustafo Poshoning bilan Moraga ketadi. 1685 yilda vazirning vafotidan so'ng Halab shahriga borib joylashadi. Halab valiyisi Baltoji Mehmed Poshoning shoirning do'sti va homiyi edi. Uzoq yillar Halabda yashab, Baltoji Poshoning bosh vaziri bo'lgach, 70 yoshida Istambulga qaytadi. Nihoyatda ilmiy va pok inson bo'lgan Nabiyl o'z vafoti kunini oldindan bashorat qilib, qit'a yozadikim "ketdi Nabiyl Afandi jannatga tek" misralari uning vafotini tarix sanasini anglatadi. 1712 yil 12 aprelda ko'z yumgan. Shoirning qabri Uskudardagi Qorajaahmad qabristonidadir.

Yusuf Nabiyl bilimdon va kamolotga erishgan shaxs edi. Uning zamondoshlari shoir haqida hamisha hurmat bilan yozadilar. Nabiylni fozil dindor, pok inson sifatida ta'riflaydilar. Sabr-toqatli, shirin so'zli, atrofida gilarining ishlariga aralashavermaydigan Nabiyning samimiy do'stlari ko'p edi. Turli mojarolardan o'zini olib

qochadigan, g'iybatlarga qo'shilmaydigan shoir xarakteri uning asarlarida ham aks etgandek. "Xayriyai Nabiyy" masnaviysi shoirning falsafiy, estetik qarashlarini o'zida jamlagan asarlaridan biridir. Nabiyning ikki o'g'li bo'lib, o'g'illari Abulxayr va Mehmed Eminlar Halabda tavallud topganlar. Umuman Nabiyy ijodining eng gullagan davri, Halab shahrida Baltoji Mehmed Posho homiyligida bo'lgan davridir. "Xayriyai Nabiyy"ni shoir o'g'li Abulxayrga bag'ishlab didaktik ruhda yozgan. Shoirning maqsadi ham o'g'liga nasihatlar tarzida yozgan dostoni orqali yoshlarga to'g'ri yo'l ko'rsatishdir. Dostonning har bir bobi ma'lum bir axloqiy kategoriyalarga bag'ishlangan. Asarda yaxshilik, saxiylik, aqllilik, sofdillik, hushyorlik madh etilsa, xasislik, qiziqqonlik, buzuqlik, yolg'onchilik, nopoklik singari kishi tabiatida bo'ladigan illatlar tanqid qilinadi. Yusuf Nabiyning o'zi bir umr saroy ahllariga yaqin bo'lib yashagan bo'lsa ham, o'g'liga sultonlardan uzoqroq bo'lishni nasihat qiladi. Saroydagi turli xil g'iybatlar, ikkiyuzlamachilik, shaxsiy manfaat yo'lida bir-birini sotishlardan hech qachon kishi qalbi oromda bo'lmaydi. Nabiyy o'z axloqiy prinsiplaridan kelib chiqib, o'g'liga tinch hayot kechirish yo'llarini ko'rsatadi. Dostonda o'sha zamonning ma'lum bir illatlari shoirona tilda, keng xalq ommasiga tushunarli qilib ifodalab berilgani uchunmi, asar tezda mushhur bo'lib ketadi. Dostonda maqol va matallar juda o'rinli qo'llangan, obrazlarga boy. Asarning bayon qilish usuli ham jozibali bo'lib, arabcha, forscha so'zlar nisbatan kam ishlatilgan. Nabiyy olg'a surgan bosh g'oyalardan biri ilm bilan muntazam shug'ullanishdir. Saodatga erishishning eng to'g'ri yo'li ilmda ekanligini uqtiradi shoir. Asar 1694 yilda yozib tugatilgan bo'lsa, XIX asrda Yevropa tillariga tarjima qilinadi. Fransuz sharqshunosi Pave de Kurtey masnaviyni farang tiliga tarjima qilib, 1857 yilda nashr qildiradi.

Yusuf Nabiyning ikkinchi dostoni "Hayrobod" ham Halabda yozilgan. Biroq bu asar ruhi va syujet tuzilishi jihatidan "Xayriya"dan tamoman farq qiladi. 1705 yilda yozib tugallangan bu asar ko'proq xalq ertaklarini eslatadi. Nabiyy asar syujetini F. Attorning "Ilohiynoma"sidan olganligi va o'zicha davom ettirganligini ochiq yozadi. Doston mazmunan ham, syujet qurilishi jihatidan ham qiziqarli. Yusuf Nabiyy asarning o'qishli bo'lishi uchun sharq adabiyoti an'analariidan, salaflar ijodidan unumli foydalangani seziladi. Bu haqda olim V.S. Garbuzovanning quyidagi fikrlariga

100

to'liq qo'shilish mumkin: "Doston bilan tanishilganda yozadi olima – shu narsa ma'lum bo'ladi, Nabi Attorning qisqa va nisbatan soddasiyujetini qayta ishlagan va ba'zi narsalarni Nizomiy hamda Navoiydan, ko'pgina narsalarni esa xalq ertaklaridan olib, bu syujetni davom ettirgan. Bundan tashqari doston voqealari Kichik Osiyoga ko'chirilgan va uning qahramonlari chinakam turklar sifatida taqdim qilingan"³⁴.

Dostoning bosh qahramonlari jurjoniylar shohi Xurramshoh, saroy shoiri Faxr, shohning quli Jovid va shahar o'g'rilarining boshlig'i Chalakdir. Voqea Xurramshoh saroyidagi bazmda shoir Faxrning she'r o'qishi va bundan mamnun bo'lgan shohning suyuqli quli Jovidni Faxrga hadya qilishi bilan boshlanadi. Ammo shoir Faxr shoh o'ziga kelgach, bu tuhfasiidan aynib qolajagini biladi. Shuning uchun ham bazm qatnashchilari uy-uylariga tarqalgan paytda Faxr bu qulvachchani yerto'laga qamab qo'yadi. Bu yerto'laga faqatgina taxtning tagidan yo'l bor edi, xolos. Yerto'laning kalitini esa ikki kishining guvohligida bir amaldorga beradi. Ertalab shoh kayfi tarqagach, shoirning qilgan ishidan xursand bo'lib, uni maqtaydi. Shoh kalitni olib yerto'laga tushadi. Biroq u yerda faqat bir uyum kulnigina ko'radi. Qulvachcha tasodifan chiqqan yong'indan halok bo'lgan bo'ladi. Xurramshoh shu qadar chuqur qayg'uga botadiki, dunyoviy ishlarning hammasidan voz kechib, tarki dunyo qiladi va o'z vaqtini hamisha toat-ibodat bilan o'tkazadi.

G'oyat qo'rqib ketgan shoir Faxr sahroga qochib ketadi, sargardonlikda yanada ajoyibroq she'rlar yozadi.

Attor asarining syujeti ana shu yerda tamom bo'ladi. Nabi esa uni quyidagicha davom ettiradi: aslida qulvachcha Jovid halok bo'lmagan ekan. Sham ag'darilib ketib, Jovid yotadigan to'shak yona boshlaganda bola uyg'onib qolgan va yordam so'rab baqirgan. Ko'p vaqtlardan beri shoh xazinasini o'g'irlashni orzu qilib yurgan va yerni kavlab taxt o'rnatilgan xonaga yashirin yo'l ochgan Chalak shu payt bolaga yordamga keladi. Ziyofat kechasida Chalak yerto'lada poylab yotgan bo'ladi va Jovidning baqirganini eshitib, yerto'la devorini darhol teshadi va bolani muqarrar o'limdan saqlab qoladi.

Chalak bolani qutqargach, Jovid uning gunohini kechirishni shohdan so'rab berishga va'da qiladi. Chunki, Chalak mamlakatdagi

³⁴ Гарбузова В.С. Турк адабиёти классиклари. –Тошкент, 1960. –Б.93.

barcha o'g'rilarning boshlig'i bo'lib, shohning odamlari uzoq vaqtlardan beri uning izidan quvib yurgan bo'ladilar. Jovid o'zini shoirga in'om qilib yuborganligi uchun shohdan xafa bo'ladi va unga araz qilib vaqtincha Chalakning uyida qolishga qaror qiladi.

Bu vaqtda Xurramshoh tarki dunyosini davom qilib hamma vaqtini toat-ibodat bilan o'tkazar edi. Bir kuni u tasodifan yerto'laga qaerdandir toza havo kirayotganligini sezib qoladi. Devorlarni sinchiklab ko'zdan kechirib chiqqan shoh bir joyning ustalik bilan teshilganini ko'radi. U tor yo'lakka chiqadi, yura-yura bir hovlidan chiqib qoladi, bu hovlida sersoya chinor tagida Jovid shirin uyquda yotganini ko'radi. Lahm shohni to'ppa-to'g'ri Chalakning uyiga olib chiqqan edi.

Jovidni ko'rgan shoh unga o'zini tashlaydi. Biroq uyqudan turgan zamon loy va tuproqqa belangan shohni taniy olmagan Jovid qocha boshlaydi. Xurramshoh esa Jovidning ketidan yuguradi. To'polon ovozini eshitib uydin chiqqan Chalak ham shohni taniydi va kimdir bolani xafa qilmoqchi shekilli deb o'ylab, bularning ketidan u ham yuguradi. Ularni shahar ko'chasida ko'rib qolgan saroy qo'riqchilari ham hayratda qolib, "ushlanglar, ushlanglar!" deya baqirishadi va ularni quvlaydi.

Olomon tez qochayotgan Jovidning ketidan yugurib bir xaroba masjid hovlisiga kirib keladi. Bu hovlida quduq va uning yonida serbutoq bir daraxt bo'ladi. Bola daraxtning ustiga chiqadi, biroq shox sinib ketib, Jovid quduqqa tushib ketadi. Shoh ham darhol arqonga osilib quduqning ichiga tushadi. Chalak ham shohning ketidan quduqqa tushadi. Soqchilar esa quduq yoniga kelib uning ichiga ketma-ket tosh tashlayveradilar. Biroq hech kim o'lmaydi. Quduq tubiga yiqilgan Jovid omon qoladi. U yiqilgan joyida baland darvozani ko'radi, darvoza orqali esa ajoyib boqqa kiradi. Bog' ichida Jovid go'zal qizga duch keladi. Qiz bu yerda o'zini xotinlikka olmoqchi bo'lgan dahshatli dev Temtemning tutquni ekan.

Jovid va uning ketidan yetib kelgan shoh qiz o'tirgan joyga yaqinlashar-yaqinlashmas ularni devning xizmatkorlari ushlab oladi. Dev ularning kimligini bilgach, bolani ham, shohni ham o'ldirishga azm qiladi. Daraxt shoxlari orasida yashirinib turgan Chalak Jovid bilan Xurramshohning boshiga qanday kulfat tushayotganini ko'radi. Kechasi u dev soqchilarining sharobiga bildirmay ko'knori aralashtirib qo'yadi. Shundan so'ng ularning hammasi qattiq uxlab

qoladilar, Chalak esa ularning boshlarini tanasidan judo qiladi. Temtem shu kecha go‘zal qizni o‘ziga bo‘ysundirmoqchi edi. Biroq Chalak paydo bo‘ladi va devni o‘ldiradi. Shoh bilan Jovid omon qoladilar.

Shoh Chalakka mardligi uchun minnatdorchilik bildiradi va uning oldingi gunohlarini kechadi. Jovid go‘zal qizni sevib qoladi. Shoh esa ularning qovushishlariga rozi bo‘ladi.

Hammalari behad xursand bo‘lgan holda bir-birlaridan rozi bo‘lib quduqdan chiqadilar.

Ana shundan so‘ng yana bir qator voqealar ro‘y beradi, ularning har birida Chalak goh shohni, goh Jovidni, goh butun mamlakatni kelgindi dushmanlar hujumidan omon saqlab qoladi.

Nihoyat, shoh yana katta ziyofat uyushtiradi. Bu ziyofatda sahodan olib kelingan shoir Faxr ham qatnashadi. Ziyofat vaqtida shoh o‘z sarguzashtlarini aytib beradi va ko‘pchilikning talabiga ko‘ra, Chalakni saxiylik bilan mukofotlaydi. Ziyofatdan so‘ng Chalak mamlakatdagi barcha o‘g‘rilarni o‘z hunarini tashlashga va halol turmush kechirishga ko‘ndiradi. Chalakning o‘zi esa Xurramshohning azaliy dushmani hukmronlik qilayotgan Kirmonga jo‘naydi. Chalak Kirmon shohini mast qiladi va oyoq-qo‘lini bog‘lab, Jurjonga olib keladi. Xurramshoh o‘z dushmanini o‘ldirmaydi, aksincha uning gunohini kechib, do‘stlashadi.

Doston ana shunday tugallanadi va uning oxirida Xurramshoh mamlakatini Xayrobod deb atashlarining sababi ochib beriladi. Chunki o‘shandan beri bu mamlakatda farovonlik va osoyishtalik hukm surar ekan.

Nabiyning “Xayrobod” dostoni optimistik ruhi, shu mavzuda o‘rta asrlarda yaratilgan ilk asar ekanligi bilan ham ahamiyatlidir.

Asarlarida yuksak badiiy mahorat namunasini bera olgan shoir adabiy merosi quyidagilardir.

1. Turk tilida bitilgan devonda 1 tavhid, 4 na‘t, Istambul buyuklariga bag‘ishlab yozilgan madhiyalar va qasidalar bor. 1 tarkiband, 1 muhammas, 3 tahmis, Mehmed IVga bag‘ishlab masnaviy shaklida yozilgan she‘rlar, ko‘plab g‘azallar hamda ruboiylar ham ushbu devondan joy olgan.

2. Forscha devonida 32 g‘azal, Rumiy, Hofiz, Jomiy, Salim I, Shifoiy, Naziriy, Shafqat, G‘aribiy, Tolibiy g‘azallariga tahmislardan iborat.

3. A. Jomiy forscha she'rga solgan 40 hadis mazmunini turk tiliga tarjima qilgan "Tarjimai hadisi Arbain" asari.

4. Nabiyning "Xayriya" va "Xayrobod" dostonlarining alohida nashrlari.

5. Surnoma. 587 baytdan iborat bo'lib, sulton Mehmed IVning farzandlari to'ylari poetik ifodalangan masnaviy.

6. Fotihnomasi Komanicha. Mustafo Posho buyrug'i bilan yozilgan tarixiy asar.

7. "Tuhfat al-Xaramayn" (Ikki muqaddas shaharga sayohat) geografik mazmundagi asar.

8. Zayli siyari Vaysiy. XVII asr nasr ustasi Vaysiy asariga ilova tarzida yozilgan.

9. Munshaot. Nabiylar maktublarini o'z ichiga olgan bu asar shoir hayoti va ijodi haqida qimmatli ma'lumotlar berishi bilan ahamiyatli.

Shoir ijodi haqida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari yaratilgan. Abdulqodir Qoraxonning "Nabiy" (1953, 1987) Ogoh Sirri Levendning "Nabiyning Surnamasi" (1944) monografiyalari shular jumlasidandir. Professorlar F. Ko'prulu, A.N. Tarlan, A. Qoboqlilar ham Nabiylar hayoti va ijodiga oid qimmatli materiallarni o'z ilmiy ishlarida yozib qoldirganlar.

Nabiy g'azaliyotidan

Odam asiri dasti mushayyat emasmidir?
Olam zabuni panjai qudrat emasmidir?
Bu pardaning duruniga boq, iztirobni quv,
Har mehnatning oqibati massarat emasmidir?
Bazmi hayot rohi muhabbatda oshiqqa
Taklif etilsa joniga minnat emasmidir?
Yo'q garchi sadman sitamingdan qocharimiz,
Ammoki dasti nozinga zahmat emasmidir?
Bir senmi komiyob bo'lajaksan zamonadan,
Ey tangi chashm, kor banavbat emasmidir?
Muhtoji rizqi xoliq ekan sarbasar jahon,
Maxluqdan niyoz mazollat emasmidir?
Nabiy, zaboni nutqim etgan xomai majoz
Mashshotal arusi haqiqat emasmidir?

* * *

Zavqi g'am dildamidir, dog'damidir, tandamidir,
Nasi'a bulbuldamidir, guldamidir, gulshandamidir.

Bo'ldi sarmayam hayrat menga biymu¹ ummid,
Bilmadim, aylayajak giryamidir, xandamidir.

Gul ham ochildi ham aroyishi dastor² bo'ldi,
Bulbuli bexabar ayo dag'i siyovandamidir.³

Ul tavozu ani mumtozi jahon etmishdir,
Nahli gul bog'da behuda sarafkandamidir.⁴

Durru marjon topilgaymish, tutaylik daryoda,
Bu qadar chini jabin⁵ sotmoqqa arzondamidir.

Xohu noxoh bo'lur avizayi go'shi ahhob,⁶
Nabiyo, har g'azaling bo'yla xushoyondamidir.

XVIII asrda adabiy muhit

XVIII asr usmonli imperiyasi uchun juda og'ir kechdi. Ichki isyonlar, iqtisodiy qiyinchilik, ayniqsa, imperiyaning tashqi siyosatdagi mavqei ketib, bir qancha yerlarni qo'ldan chiqarishi bu davr uchun xarakterlidir. Davlatning nainki XVI asrdagi buyukligi, hatto XVII asrdagi qudrati ham juda zaiflashib qoldi. 1699 yilda imzolangan "Karlovcha" shartnomasiga ko'ra, usmonlilar davlati Mojaristonning katta qismini Dolmachya va Mora yerlarini qo'ldan chiqardi. Garchi 16 yil davom etgan urush to'xtagan bo'lsa ham, imperiyaning Yevropadagi mavqei deyarli yo'qoldi. Uzoq davom etgan urushlar natijasida soliqlar ko'paydi. Bu narsa shusiz ham iqtisodiy qiyinchiliklarda yashayotgan xalqning joniga tegdi va bir necha isyonlar bo'ldi. Ispaniya va Chor Rossiyasi ham usmonlilarga qarshi tish qayrab turardi. 1712 yil, Istambul shartnomasi tuzildi. Bunga ko'ra Turkiya Mora va boshqa ba'zi qo'ldan ketgan yerlarni qaytarib oldi. Davlat bir oz qadrini rostlagandek edi. Ammo,

¹ Бийм – қўрқув.

² Оройиши дастор – салланинг беази.

³ Сиёванда – мотам фарёди.

⁴ Сарафканда – дунёнинг танланган (гўзали)

⁵ Чини жабин – қовоқ ошиш, кибрлиниш.

⁶ Авизайи гўши аҳбоб – дўстлар қулоғига сирға.

Avstriya urushi boshlandi. 1718 yil Pasarofcha sulhi tuziladi. Urushlar, isyonlardan charchagan omma bu sulhni yaxshi qabul qiladi. Eron shohi Ashraf bilan to'qnashuvni hisobga olmaganda, davlatda tinchlik o'rnatiladi. Lola davri deb atalgan bu 13 yilda adabiyot, san'at birmuncha rivojlandi. Lekin, bu davrda soliqlar ko'paygan va soliqlarni shohlar ayshu-ishratlarga sarflayotganini ko'rgan xalq isyon ko'taradi. Bunga 1729 yil turk qo'shinlarining Eron shohi Nodirshohdan yengilganligi va bunga sultonning e'tiborsizligi ham sabab bo'ladi. Sulton Ahmad III taxtdan ag'dariladi, Sadra'zam Ibrohim Posho o'ldiriladi, yangidan qurilgan binolarga, saroylarga o't qo'yiladi.

Taxtga Mahmud I o'tiradi. Biroq davlat idorasi isyonchilar boshlig'i yanichar Xalil va uning maslakdoshlari qo'lida edi. Ular asosiy mansablarga o'z odamlarini qo'yar, istagan amaldorni ishdan bo'shattirar edilar. Poytaxt Istambul o'zaro ichki mojarolar ichida qolgandi. Ahvolning bu tarzda davom etishi mumkin emasligini anglab yetgan sulton Maxmud I, bir bahona bilan Xalil va maslakdoshlarini saroyga chaqirtiradi hamda hiyla bilan qo'lga olib, qatl ettiradi. Bosh ko'targan askarlar isyonini ham bostiradi. Davlat boshqaruvini qo'lga oladi. Bu davrda usmoniylar G'arbda Avstriya va Rossiya bilan, Sharqda Eron bilan janglar olib borayotgan edi.

1756–1763 yillar sulton Mustafo III davri biroz osoyishta kechdi. Ruslar bilan urushlar, Mora isyoni natijasida 1774 yil usmoniylar Kichik Kaynarcha sulhini imzolashga majbur bo'ldilar, natijada Qrim mustaqil bo'ldi. Angliya va boshqa Yevropa davlatlari har xil bahonalar bilan usmonlilarning siyosatiga aralashishga harakat qilardilar. Tashqi urushlar, Misr, Suriya, Anado'lidagi ichki isyonlar asr oxirigacha oz moz uzilishlar bilan davom etdi.

XVIII asr usmonli taxtiga o'tirgan sultonlarning ko'pchiligi shoirtabiat, san'atsevar, tabiatan yumshoq ko'ngil edilar. Bu vaqtga kelib Yevropa esa avvalgidan ko'ra ilm-fanda ancha ilgarilab ketdi. Shu jumladan harbiy sohada ham XVIII asrda Turkiya har tomonlama Yevropadan orqada qola boshladi.

1703–1730 yillar hukmronlik qilgan sulton Ahmad III go'zal san'atlarni sevadigan, ko'ngilxushlikni yoqtiradigan kishi edi. Najib taxallusi bilan she'rlar yozar, davrining yaxshi xattotlaridan sanalardi. U bilimdon shaxslardan ayrimlarini chet ellarga jo'natadi. Masalan, Mehmet Chalabiy Fransiyaga borib, u yerdagi sharoitni

o'rganadi va Turkiyadagi ahvol bilan qiyoslab, sultonga taqdimnoma yozadi. Birinchi kitob bosish ishlari ham Ahmad III davrida boshlangan.

1730–1754 yillar hukm surgan Mahmud I armiyada islohot o'tkazishga, 1757–1774 yillarda taxtni egallagan Mustafo III iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga harakat qildi. Sulton Abdulhamid I (1777–1789), Salim III (1789–1808) davrida ham davlat miqyosida ba'zi bir o'zgarishlar qilishga harakat qilindi. Ammo bularning hammasi Usmoniylar imperiyasini Yevropa taziqidan qutqara olmadi. XVIII asr oxiriga kelib, davlat asr boshidagidan ham ko'ra zaiflashgan edi.

LOLA DAVRI

XVIII asrning birinchi yarmidagi 13 yil, ya'ni 1718–1730 yillar turk adabiyotida “Lola davri” deb yuritiladi. Bu atamani birinchi Yahyo Kamol qo'llagan. 1913 yil Ahmad Rafiq Oltinoy e'lon qilgan “Lola davri” nomli kitob bu davrning o'ziga xos o'rni borligini, adabiyotda, san'atda rivojlanish davri bo'lganligini ko'rsatadi. Sultonning kuyovi Ibrohim Posho bosh vazir bo'lgan bu davrda Istambulda obodonchilik ishlari olib borildi. Davlat odamlari yashash tarzida yevropaliklarga taqlid qila boshladilar. Yevropacha bog'lar barpo qilish, G'arbdan me'morlar chaqirib kelib imoratlar qurish urf bo'ldi. Parij bog'larida bo'lganidek hovuzlar, favvoralar qurildi. Bog'larda lolazorlar bunyod etildi. Masjidlar, kutubxonalar, ko'rkli saroylarning qurilishi ma'lum ma'noda adabiyot, madaniyat rivojiga turtki bo'ldi.

Sulton saroyida ham tez-tez mushoiralar, musiqa kechalari o'tkazilib turilardi. O'sha davrda “holva kechalari” deb nomlanib, tonggacha davom etadigan kechalarda, asosan shoirlar va mashshoqlar ishtirok etadilar, yangi-yangi qasidalar, g'azallar o'qilardi.

Lola, bu davrning eng sevimli va qimmatli guliga aylandi. Sulton Mehmed IV davridayoq Misr va Avstriyadan keltirilgan lolalar Istambulda nihoyatda ko'paytirilgan edi. Gollandiyadan, Sherozdan va dunyoning boshqa davlatlaridan lolalarning turli navlari keltirilar, yangi navlari kashf qilinardi. Istambulliklar lolaning 639 turini ekardilar. Lola haqida risolalar yozilib, lolazorlar yaratish bo'yicha

musobaqalar o'tkazilardi. Juda kam uchraydigan lola urug'ining (piyozi) 1000 oltinga sotilgani ma'lum. Hatto lolalarni baholash haqida "xatti humoyun" e'lon qilinadi.

Turk adabiyoti tarixida "Lola davri" deb atalgan bu davrning muhim voqealaridan biri Istambulda bosmaxonaning ochilishidir.

Parijga elchi sifatida jo'natilgan Mehmed Chalabiyning o'g'li Mehmed Said Afandi, asli mojar bo'lib, islom dinini qabul qilgan Ibrohim Mutafarrika bilan hamkorlikda sultonning va shayxulislomning roziligini olib, 1724 yili Istambulda birinchi turk nashriyoti quradilar. Ayrim qarshiliklarga qaramasdan nashriyot 1729 yili ishga tushadi. 1729–1742 yillarda tarix, geografiya, grammatika, lug'at, sayohatnomalar kabi 17 nomda kitoblar bosiladi. Bu madaniy hayotdagi katta voqea edi.

XVIII asr adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari

XVIII asr usmoniylar imperiyasi uchun muvaffaqiyatli kechmagan bo'lsa-da, adabiyot rivojlanishdan to'xtab qolgani yo'q. Saroy tomonidan shoirlarga ko'rsatilgan g'amxo'rlik har holda o'z samarasini berdi. Yuz yil boshlaridagi "Lola davri"da Nodim, asr so'nggida esa Shayx g'olib singari ajoyib shoirlar yetishib chiqdi. XVIII asrda Nabiylar ijodiga ergashib, uni o'ziga ustoz deb bilgan: Sobit, Durriy, Kamiy, Salim, Samiy, Izzat Ali Posho, Sayyid Vahbiy kabi shoirlar ijod qildilar. Fitnat xonim, Nabizoda Nozim o'ziga xos ovoz bilan adabiyotga kirib keldilar. O'sha davr shoirlariga ustozlik qilgan Xo'ja Nashot (?–1807) ajoyib g'azallar yozish bilan birga, yoshlarga fors tili va adabiyotidan saboq berdi. Bu davrda turk shoirlariga fors she'riyatining ta'siri yanada kuchaydi.

XVIII asr turk she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari Nabiylar, Nodim, Shayx g'olib ijodida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ldi. Yuqorida nomi zikr etilgan shoirlar ijodining ahamiyatli tomoni mahalliy kalorit ustunligi va xalq ijodiga yaqinlikdir.

XVII asrning oxirlarida Nabiylar va Sobit ijodida ko'ringan yerli unsurlarni tasvirlash XVIII asrda yanada kuchaydi. Xalq urf-odatlarini adabiyotda aks ettirish odat tusiga kira bordi. Endi shoirlar Bag'dod, Sheroz yoki boshqa bir xayoliy shaharlarni emas, Istambulni, yangi qurilgan binolar, bog'lar, o'sha davr muhitini qalamga ola boshladilar. Yerlilashtirma oqimi vakillari she'rlarida

ko'proq xalq maqol, latifalarini qo'llab, mahalliy turmush tarzini ifodalashga ahamiyat berdilar.

Devon adabiyotida ilk marta yozilgan sharqiylar ham yangilik edi. Xalq qo'shiqlari turku va koshma shakliga o'xshash "hijo" vaznida yoziladigan sharqiylarning eng yaxshi na'munasini Nodim yaratdi.

XVIII asr adabiyotining yana bir o'ziga xosligi mumtoz devon she'riyatining qat'iy qonun-qoidalaridan chekinishi bo'ldi. An'anaviy obrazlar yangicha talqin qilina boshlandi. Yor tasvirida ham, oshiq tasvirida ham o'xshatishlar o'zgardi. Yorning ko'z, soch ranglari tasviri, oshiqning hijron azobidagi holatlarini berishda shoirlar originallikka intildilar.

XVII asrda urf bo'lgan "hind tarzi" uslubining ta'siri oz bo'lsa-da, XVIII asr she'riyatida sezilib turdi.

Bu yuz yil she'riyatida ko'ringan o'ziga xosliklardan, sharqiy, tarix, naziralarning ko'plab ijod qilinganidir. Yozma adabiyotdagi murabba, xalq she'riyatidagi turku, koshmalarning qorishiq tarzi o'laroq yuzaga kelgan sharqiylarning Nodim ijodida keng o'rin olishi, shoirning 28 sharqiysi ko'plab yosh shoirlarga o'rnak bo'ldi. Tarix aytish turli munosabatlar bilan, navro'z, ramazon bayramlari, shahzodalarning tug'ilishi, harbiy g'alabalar, elchilarni qabul qilish va boshqa ko'plab hodisalarga bag'ishlab yoziladi. Hatto faqat tarix aytilgan she'rlarning devoni tuzila boshladi. Shokiriy va Foiz tuzgan "Majmuai tavorix" bunga misoldir.

Bu davrda nazira va taqlidiy asarlar ko'proq Fuzuliy, Navoiy, Nabi, Nafiy, Boqiy, Nodim g'azallariga nisbatan yozildi. Atif Afandi (?–1742), Izzat Ali Posho (?–1735) Hashmet (?–1768), Fitnat Xonim (?–1780) kabi shoirlarning naziralari ayniqsa mashhur edi.

XVIII asrda yaratilgan asarlar tili avvalgi asrdagilarga nisbatan xalq tiliga yaqin, murakkab izofalar kamroq, ancha soddalashgan edi.

XVIII asrda ko'plab tazkiralari, tarixiy asarlar, sayohatnomalar yaratildiki, bu o'sha davr nasrining o'ziga xos namunalaridir. Salim "Tazkira"si voqeanavis Shafiq Afandining "Shafiqnoma"si, Nabizoda Atoyining 1634–1712 yillarda hukmronlik qilgan sultonlar biografiyasini aks ettirgan "Shaka-ik Zeyli" asari, Latifiy, Oshiq Chala-biy va Hasan Chalabiylarning ajoyib tazkiralari davr uchun muhim voqea edi. Umuman olganda, XVIII asrda yetakchi adabiy tur hamon poeziya bo'lib, asosiy mashhur asarlar she'riyatda yaratildi.

AHMAD NODIM (1680–1730)

“Lola davri” adabiyotining eng yirik vakili Ahmad Nodim Istambulda, zodagon oilada tug‘ildi. Uning ona tomondan bobosi Husomiddin Qarochalabiy bo‘lib, o‘z davrida sultonning yaqinlaridan bo‘lgan. Otasi Mehmed Nodim Afandi qozi bo‘lib, yaxshigina ta’bi nazmi ham bor edi. Onasi Soliha Xonim ham o‘qimishli ayollardan bo‘lgan. Davlatmand xonadonda tug‘ilib, tarbiyalangan Nodim juda yaxshi bilim oladi. Zamonidagi atoqli ustozlardan ta’lim olib, madrasani tugatadi. Ebezade Abdulloh Afandi boshliq nufuzli hay’atga imtihon topshirib o‘zi ham mudarris bo‘ladi. She’rlari bilan ancha tanilib qolgan Ahmad Nodim ulug‘ vazir Ali Posho va Ibrohim Posholarga qasidalar yozib, yanada e’tibor topadi. 1720 yil vazir kutubxonasining mudiri etib tayinlanadi. Ayni paytda Nodim tarixiy asarlarni tarjima qilib ham ilm ahli o‘rtasida obro‘ qozonadi. Ahmad Nodim Ibrohim Posho uyushtirgan mushoiralarda, turli davlatlardan kelgan elchilarni qabul qilish marosimi va ziyofatlarda qatnashar, o‘zining “shirin kalomi” bilan tanilgandi. Sadra’zam Ibrohim Posho shoirni Sulton Ahmadga tanishtiradi. Bundan so‘ng Nodimning tole yulduzi yanada porlaydi. U Istambuldagi mashhur madrasalarda, 1727 yilda Mulla Kirimiy, Eski Nishonboshi, 1729 yilda Saxpi Setap, 1730 yilda Sekban Ali madrasalariga bosh mudarris qilib tayinlanadi. Bir umr zodagonlar davrasida, farovon hayot kechirgan Ahmad Nodimning umri fojeali tugaydi. 1730 yil admiral Halil boshchiligida ko‘tarilgan qo‘zg‘olonchilar Sulton Ahmadni taxtdan ag‘daradilar. Shohga yaqin bo‘lgan amaldorlarning ham uylariga o‘t qo‘yadilar. Nodim qo‘zg‘olonchilardan qochaman deb, tomdan yiqilib o‘ladi. Ramiz “Tazkira”sida yozishicha shoir vahima kasalidan vafot qilgan. Uning jasadi Uskudarga, onasi dafn qilingan qabristonga qo‘yiladi. Tarixiy manbalardan Nodim Ibrohim Chalabiyni qizi Ummigulsum Xonimga uylangani va ularning bir qizlari bo‘lib, Istambulning Beshiktosh dahasida yashaganliklari ma’lum.

Ahmad Nodim so‘zga chechan “toza dilli” shoir sifatida mashhur bo‘lgan. U Ibrohim Poshoning yaqin kishisi sifatida o‘sha davr ijtimoiy hayotida ham, adabiy hayotida ham faol ishtirok etgan. Davrning qaynoq voqealari ichida bo‘lgan. Adabiy muhitdagina emas, ilmiy muhitda ham o‘z so‘ziga ega bo‘lgan.

1726 yilda tashkil qilingan tarixiy asarlarni tarjima qilish guruhida Nodim ham bor edi. Arab tilidan munajjim boshi Darvesh Alining tarixiy kitobining 3 jildini turk tiliga o'g'irgan. Ahmad Nodimning asosiy adabiy merosi "Devon"dir. Bu devon shu kunga qadar Istambulda 5 marta nashr qilingan. "Devon"ning eng so'nggi nashrida 39 qasida, 159 g'azal, 2 mustahzod, 1 muhammas, 3 taxmis, 1 musaddas, 28 sharqiy, 1 turku, 1 tarkiband, 10 ruboiy, ko'pchiligi tarix aytish bo'lgan 82 qit'a, 1 tasdis, 2 tashmir, 3 ta masnaviy bor.

Devondagi qasidalarda Istambulning hayot tarzi, "lola davri"dagi ko'ngilxushliklar, sultonlar, vazirlar madhi o'z aksini topgan. Uning g'azal va sharqiylarida ham davrning ruhi, ya'ni zavq-shavqqa to'liqlik, ishq va yor vasli, sharob lazzati badiiy mahorat bilan yozilgan misralarda ifodalangan. Ahmad Nodim she'rlari nash'ali va jo'shqin bo'lib, undagi yor va oshiq obrazlari, o'rta asr tasavvuf she'riyatidagi muqobil obrazlardan ancha farq qiladi. Ayniqsa sharqiylarida davrning go'zallari va go'zalliklari yuqori pardalarda madh etiladi. Ahmad Nodim ijodining o'ziga xosliklarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Nodim she'rlarida zavq va jo'shqinlik bor. Hayotni ko'p-roq go'zal tomonidan ko'radi. Sog'inch, g'am-anduh, kudurat she'rlarida yo'q hisob. Otashin tuyg'ularni ko'proq qalamga olgan.

2. Nodim she'rlarida yashagan davrini aks ettirdi. Uning she'rlarida butun borlig'i bilan Istanbul ifodalangan. U she'riyatda birinchilardan bo'lib Istanbulni eng ko'p tasvir-lagan. Shoir shaharning ko'pgina dahalari va bu dahalardagi Sadobod, Xurramobod, Sharafobod, Xusravobod, Fayzobod kabi qasrlarni, Tavonli, Nafpaydo, Jisri surur nomli ko'priklarni, ko'plab chashmalar, hovuzlar, hammomlarni Istanbulning tarkibiy qismi sifatida tasvirlaydi.

3. Avvalgi asrlarda boshlangan mahalliyashtirish haraka-tini she'riyatda qo'llab-quvvatladi. Asarlarida xalq maqol-lari, iboralarini, umuman xalq tilida ko'proq ishlatiladigan kalimalarni qo'lladi. Nodim tili nozik, nafis va musiqiy Istanbul shevasi tili edi.

4. Nodim she'riyatidagi o'ziga xos shakl, ohang, zavqqa to'liq misralar, ko'plab shoirlarni uning ijodiga ergashtirdi. Nabiy va Nodim XVIII asrdagi eng mashhur shoirlardan bo'lib qoldi.

Nodim yashagan "lola davri" ruhi uning shaxsiyatiga hamda ijodiga ham ta'sir qilgan, albatta. Bu davrda usmonlilar avvalgi shuhratini tiklay olmasalar ham, uni saqlab qolishga urinardilar. Sul-

ton boshliq saroy a'yonlarining ko'ngilxush-likka berilishi, o'sha davrda zodagonlar, ziyolilarning ma'lum ma'noda fojeasi edi. O'tgan zamonlarni sog'inish iztirob-larini ular she'rdan, sharobdan, ishqdan, kayfu safodan ko'ngil xushlab unutishni istardilar. Ahmad Nodim ham muhitdan ayri tusholmasdi. Nodim she'rlari serzavq bo'lsada, shoirni yashirin bir iztirob qiynayotgani uning ayrim misralarida ko'rinib qoladi.

“Bu jahon bahorini bir dam bil, lolazorni o'yin sog'ariga tut” mazmunidagi satrlar bunga misoldir. Ammo, ko'proq shoir yashagan kunlik hayot tarzi uning asarlariga ham ko'chgandi. Mumtoz adabiyotda ko'p uchraydigan chehra, ko'z, qomat, soch unsurlari Nodim misralarida o'zgacha rang, ohang kashf etadi: “O sirma sochlara birdan sarildi sevdalar”, “Sirma kakul, sim gardon, zulfi tel-tel, inje bel”. Bu satrlarda doimo qora sifati ko'proq berilgan, yor sochi sirma-oltinrang soch tarzida ifodalanmoqda. Shoir sharqilarida yor bilan kechgan visol onlarining nihoyatda nafis ifodasini ko'p uchratamiz:

Sayr o'lub raqbi, yana dilbari mumtozlarin,
Yana afoqa chiqar nolalari sozlarin,
Jona otash beradur shu'lası ovozlarin,
Mujdalar gulshani kim vaqti charog'on keldi.

Nodim yor ta'rifini berishda ham, original o'xshatishlardan foydalanadi, tesha tegmagan qiyoslarni qo'llaydi:

Bo'ydan xush, rangdan pokizadir nozik taning,
Beslemish (oziqlanmish) qo'yningda go'yo-kim guli ra'no seni.

Davrining eng mashhur shoirlaridan bo'lgan Nodim ijodi haqida turk adabiyotshunoslari ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari yaratganlar. A.R. Oltinoyning “Lola davri” (1931) kitobi, F. Ko'prulining “Nodim” (1934), N. Yesirgilning “Nodim” 1953, S. Banarlining “Rasmlı turk adabiyoti” (2 tom 1983) kitoblari shular jumlasidandir.

Nodim she'rlaridan

Sevgilim, jamoling bir bor ko'rolmam,
Chiqmasin xayoling dili shaydodan.
Xoki poyingga-da yuz-ko'z surolmam,

Olayin payoming³⁵ bodi sabodan.

Moviy ko‘z berahm etdi nigohing,
Oshiqlarning ko‘kka chiqardi ohin.
So‘rdim gardaningdan, zulfi siyohing,
Bir xabar bermadi oqdan-qarodan.

Sevgilim, bandangga gar tushsa xizmat,
Eshitging va qullik – jonimga rohat.
Ko‘rsam edi senda bo‘yi muhabbat,
Istaganim shudir sen bevafo dan.

Nodimo, husningga bo‘lmishdir oshiq,
Shundayin bir ishqki qavlida³⁶ sodiq.
Karamga na qabar bo‘lmasa loyiq,
Or etmas, Afandim, shohlar gadodan.

* * *

Masti nozim, kim o‘stirdi buncha beparvo seni,
Kim yetishtirdi ajab, sarvdan bolo³⁷ seni.

Mushkdan xush, rangdan pokizadir nozik taning,
Parvarish qilmishdir go‘yo, kim guli ra‘no seni.

Guli zebo kiyding, ammo qo‘rqaram ozor berar.
Nozaninim, soyai xori guli zebo seni.

Bir qo‘lingda gul, bir qo‘lda jom kelding, soqiyo,
Qay birin olsam: gulni yohud ul jomni yo seni?

Go‘yo sendin bo‘lmish paydo favvorai obi hayot,
Shundoq ko‘rsatdi manga ul qaddi mustasno seni.

Sof ekan ayinai andomdin dilim, vo darig‘,
Olmadim bir bora ham og‘ushga sar to po³⁸ seni.

So‘rsam magar: “Buncha kim qildi Nodimni notavon?”
Ko‘rsatur angusht³⁹ ila majlisdagi mino⁴⁰, seni

³⁵ Паём – хабар.

³⁶ Қавл – сўз.

³⁷ Сарвдан боло – сувдан баланд.

³⁸ Сар то по – бошдан оёқ.

* * *

Ul pariroy oshuqa rom bo'lsa ham mone emas,
Kunduzing bo'lmasa, oqshom bo'lsa ham mone emas.

Kangul pok bo'lsin hamon, raybu⁴¹ riyodin zohido,
Qo'lda tasbehga badal jom bo'lsa ham mone emas.

Dilraboning xuni garm⁴² bo'lsin hamon, atvori narm⁴³,
Mubtaloyi jomi gulfom bo'lsa ham mone emas.

Sen to'la jomni ko'tar uch martaga, so'ngra sening
Vuslating muhtoji ibrom⁴⁴ bo'lsa ham mone emas.

Mushtoqman tashrifiga iydning, ikkinchi kun Nodim,
Kunduzing bo'lmasa, oqshom bo'lsa ham mone emas

* * *

Bir safo baxsh etaylik kel, shu dili noshoda,
Ketaylik sarvi ravonim, yurgin Sa'voboda.
Mana ko'r, uch juft qayiq bandargohda omoda,
Ketaylik sarvi ravonim, yurgin Sa'voboda.

Kulaylik, ham o'ynaylik, zavq olaylik dunyodan,
Mayi tasnim⁴⁵ ichaylik chashmayi nav payvodan.
Ko'raylik obi hayot oqqanin ajdarhodan,
Ketaylik sarvi ravonim, yurgin Sa'voboda.

Goh borib havz kanorinda xiromon bo'laylik,
Goh kelib Qasri Jinon⁴⁶ sayriga hayron bo'laylik.
Goho alyor aytibon, goh g'azalxon bo'laylik,
Ketaylik sarvi ravonim, yurgin Sa'voboda.

Bir sen-u bir men-u, bir obi pokiza ado,
Izning bo'lursa agar, shaydir Nadimi shaydo;

³⁹ Ангушт – бармоқ.

⁴⁰ Мино – жом, биллур.

⁴¹ Райб – шак-шубҳа, гумон.

⁴² Гарм – иссиқ.

⁴³ Нарм – юмшоқ.

⁴⁴ Ибром – қайта-қайта илтимос қилмоқ.

⁴⁵ Майи тасним – жаннат дарёларидан бири.

⁴⁶ Қасри Жинон – жаннат қасри.

G'ayri yoronni bugunlik etib, ey sho'x, fido,
Ketaylik sarvi ravonim, yurgin Sa'voboda...

ShAYX G'OLIB (1757-1799)

XVIII asr turk adabiyotining yirik namoyandalaridan bo'lgan Mehmed Asad G'olib – Shayx G'olib Istambulda, Yangikapi Mavlaviyxonasiga yaqin uyda tug'ildi. Uning otasi Mustaf o Rashid devonda kotib bo'lib, davrining taniqli mavlaviylaridan edi. Bo'lajak shoir ilk saboqni otasidan oladi. Keyinchalik arab va fors tillarini mustaqil o'rganadi. Tinimsiz mehnat, imlg a tirishqoqlik Shayx G'olibni bir umr tark etmadi. Yoshligidanoq mavlaviy sulukiga kirgan G'olib Galata mavlaviyxonasi shayxlari Nashod Afandi va Husayn Dadalar qo'lida tasavvufiy ilmlarni o'rganadi. Keyinchalik Konya shahriga kelib, mavlaviylikka asos solgan Jaloliddin Rumi y hayoti va ijodini o'rganadi. J. Rumi yning ijodiy ta'siri Shayx G'olib she'riyatida yaqqol sezilib turadi. Konyada Rumi y ta'limoti bilan chuqur tanishgach Istambulga qaytgan, G'olib "chilla o'tiradi" va so'ngra mavlaviy "dadalaridan" bo'ladi. "Chilla o'tirish" marosimi mavlaviylikda 1000 kun davom etgan. "Chillaga kirgan" G'olib 18 kun bir hujrada yolg'izlikda bo'lgach, uch yil davomida tekkadagi turli xizmatlarni bajarib, o'z nafsini o'ldirgan. "Chilla o'tirish" marosimini muvaffaqiyatli o'tkazgan G'olib 1787 yildan tasavvufga oid ilmiy ishlar yoza boshlagani ma'lum. 1791 yilda Galata mavlaviyxonasi shayxi Halil No'mon Dada Konyadan ruxsat olmay Uskudarda mavlaviyxona ochmoqchi bo'lgani uchun shayxlik vazifasidan bo'shatiladi. O'rniga tayinlangan shayx Abdullab Istambulga kelayotib yo'lda, Kutahyada vafot qiladi. Natijada yosh bo'lishiga qaramasdan Galata mavlaviyxonasiga 1791 yil 11 iyunda shayx etib Shayx G'olib tayinlanadi. Shu vaqtdan shoirning sulton Salim III bilan munosabati yaqinlashib, do'stlashib ketadi.

O'zi ham nozikta'b bo'lgan sulton Salim III Galata mavlaviyxonasiga kelib turar, Shayx G'olib uyushtirgan zikrlarda ishtirok etardi. Gohida Shayx G'olibni saroyga chaqirib, uning g'azallarini tinglar, adabiy suhbatlar qurardi. Shayx G'olib sultonga qasida yozib, tekkening juda xarobligini aytganda, Salim III bir yilda tekkexonani ta'mir qildirib beradi.

Shayx G'olib o'z davrida eng yosh "devon" tuzgan shoirlardan edi. U 24 yoshida "devon" tuzib, 26 yoshida "Husnu Ishq" dostonini yozib tugatadi. Sulton Salim III 3 ming oltin berib Shayx G'olib "Devon"ini chiroyli bezattiradi. Shayx G'olibni sulton Salimgina emas, uning singillari Hadicha, Boyxon Sultonlar ham tez-tez hadyalar bilan mukofotlab turgan. Shoir g'azallarida yuqorida ismlari zikr etilgan nomlarning uchrashi ham bejiz emas. Hatto Shayx G'olib Boyxon Sultonga pinhona oshiq bo'lganligi haqida ham mish-mishlar bo'lgan. Saroyda va el orasida hurmati baland bo'lgan shoir afsuski hayotdan erta ko'z yumadi. 1799 yili 42 yoshida Istambulda vafot qiladi. Shayx G'olib sil kasalligi bilan og'riganligi haqida ma'lumotlar bor. 1797 yilda Shayx G'olibning juda qadrdon do'sti hamda maslakdoshi bo'lgan Asror Dadaning vafoti ham shoirga og'ir judolik bo'lgandi. Shayx G'olib do'stiga bag'ishlab yozgan marsiya turk adabiyotidagi eng go'zal marsiyalardan. Shu voqeadan so'ng Shayx G'olib xastalanib qolgan edi. Shoir Sururiy "Kechdi G'olib Dada jondin yohu" deya shoir o'limi munosabati bilan tarix yozgandi.

Shayx G'olib shoir sifatida ijodini juda erta boshlagan. 1781 yil "devon" tuzgan bo'lsa, keyinchalik devonni yangi she'rlari bilan kengaytirgan. Bugungi kunda bu devonlarning 20 nusxasi topilgan. Devonda 26 ta qasida (qasidalar sulton Salim III, Boyxon Sulton, Shayxulislom Sharif va boshqa o'sha davrning taniqli shaxslariga bag'ishlangan) turk tilida yozilgan 331 ta g'azal, fors tilida 36 ta g'azal, 2 ta mustahzod, 4 ta tarkiband, 9 ta tarjiband, 7 ta musaddas, 4 ta muxammas, 17 ta taxmis, 68 ta tarix, 11 ta sharqiy hamda masnaviy, qit'a, ruboiylar bor. Ko'rinib turibdiki, Shayx G'olib o'rta asr turk she'riyatida ma'lum bo'lgan deyarli barcha janrlarda ijod qilgan. Shayx G'olib o'zidan avval o'tgan salaflaridan, ayniqsa, Jaloliddin Rumi, Fuzuliy, Boqiy, Noiliy, Nabi, Ahmad Nodim kabi shoirlarga ergashgan. Sharq adabiyotini yaxshi bilgan Shayx G'olib turk adabiyotida "hind tarzi" deb nomlangan "xayollar va majozlarga keng o'rin berilgan" she'riy yo'lining yorqin vakilidir. Uning boburiylar davri Hindistondagi she'riyatni yaxshi o'rganganligi haqida ma'lumotlar bor. Shayx G'olib "hind tarzi" yo'lida yozilgan har bir misradagi ma'lum bir majoz yoki timsol boshqa bir mazmun tashishini ham aytadi.

Masalan:

Agar dersamki, “havolar ochildi, keldi bahor”

Murod odurki: banimla muhabbat ayladi yor.

Yo so‘zlasamki: “chaman g‘unchalari zeyn o‘ldi.

Udur g‘arazki: tabassumla so‘zladi dildor”.

Shayx G‘olib g‘azallari badiiy san‘atlarga boyligi, shoirning so‘zga bo‘lgan beqiyos mehri bilan ham ajralib turadi.

Shayx G‘olib nomini yanada mashhur qilgan “Husnu Ishq” dostonidir. Tasavvuf mazmunidagi bu dostonni ijodkor 1782-83 yillarda 6 oyda yozib tamomlaydi. Aytishlaricha bir suhbatda Nabiyning “Hayrobod” dostoni juda maqtaladi va bunday doston yozish, hatto taqlidiy tarzda ham mushkulligi aytiladi. Yosh bo‘lishiga qaramasdan shuhrat qozongan Shayx G‘olib, doston kamchiliklardan xoli emas deb, bir nechta, masalan bosh qahramon Chalakning bir o‘zi shuncha oliyjanob ishlarni amalga oshira olishiga shubha bildiradi. Ayni paytda asarning tili murakkabligini ta’kidlaydi. Shunda kimdir Shayx G‘olibga doston yozishni maslahat beradi. Xullas, Shayx G‘olibning “Husnu Ishq” asari, Nabiyning “Hayrobod” masnaviysiga qasdma-qasd yozilgan asar deyish mumkin. Nima bo‘lganda ham o‘ziga yarasha mag‘rurligi bo‘lgan Shayx G‘olib yaxshi bir doston yarata olgan. Dostondagi obrazlar majoziy bo‘lib Husn – jamoli mutlaq, ya’ni Alloh, Ishq – ishq ilohiy yo‘lida, ilohiy go‘zallikka qovushmoq istagan Solih. Dostondagi boshqa obrazlar ham tasavvufiy mazmun tashiydi. Shayx G‘olibning bu dostonida Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy”si, Fuzuliyning “Layli va Majnun”i, Fariddidin Attorning “Mantiqut-tayr”, Shahobiddin Suhrovardiyning “Munisul ushshoq” asarlarining ta’sirini ko‘rish mumkin. Syujeti uncha murakkab bo‘lmagan dostonida Husnni sevgan Ishq hayot suvini (eleksir) keltirishi kerak. Hayot suvi Qalb qasrida saqlanadi. Hayot eleksirini izlab yo‘lga chiqqan Ishq boshidan ko‘plab sarguzashtlarni o‘tkazadi. Mangu sovuq mamlakat, olov dengizi, ajdarho, devlar tim-soli ham ramziy bo‘lib, bu inson fitratidagi illatlardir. Dostonda bosh qahramonning har xil to‘siqlarga uchrashi va ularni mardonavor yengishi, insonning o‘z nafsini yengib ishq ilohiyga yetishiga ishoradir. Qalb qasriga yetib kelgan Ishq, hukmdor Ilohiy Kalom bilan uchrashadi. Ilohiy Kalom go‘zallik, muhabbat har kimning o‘z qalbidan ekanligini tushuntiradi. Majoziy qilib aytganda, Jamoli Mut-

laq ishqida yurgan Solih o'zligini anglamas ekan, borliq olamni ham anglay olmasligi uqdiriladi. 2101 baytlik "Husnu Ishq" dostonining tili shirali, badiiy san'atlarga boydir. Dostonni V.M. Ko'jaturk nasrga o'girib, 1944 yil Istambulda nashr qildirgan.

O'rta asrlar Sharq adabiyotida bu mavzuda ko'plab asarlar yaratilgan. Fors shoiri Fattohiyning "Husnu Dil" dostoni turk shoir-lari orasida mashhur bo'lgan. Bu doston ta'sirida XVI asrda yashab ijod etgan turk shoir-lari Lomiy, Valiy, Axiylar ham asarlar yaratgan-lar. Shayx G'olib ham Fattohiy nomini tilga olib o'tadi.

Tasavvuf ruhida doston va g'azallar yozgan, ilmiy asarlarga sharhlar bag'ishlagan Shayx G'olib XVIII asr turk she'riyatining yirik namoyandasi edi. U tariqatda ham, she'riyatda ham Mavlono Jaloliddin Rumiya ergashdi, uning asarlarini qayta-qayta mutolaa qildi. Fuzuliy g'azallaridagi ta'sirchanlik, Noiliy misralaridagi has-soslik va noziklik, Nabiy satrlaridagi fikriy teranlikni G'olib ijodida ham ko'ramiz. Shayx G'olib she'riyatidagi tasavvuf zohiriy emas, ko'proq botiniydir. Uning she'rlarida hayolot juda rangli va ayni paytda jonlidir. Shu xususiyatlaridan kelib chiqib, Shayx G'olibni turk devon she'riyatining so'ngi ulug' shoir-laridan desak bo'ladi.

Shayx G‘olib g‘azallaridan

Xalqa-xalqa kokulingni dog‘-dog‘ bo‘ldi ko‘ngil,
Xush kelib devonalik dog‘ usti bog‘ bo‘ldi ko‘ngil.

Garchi rohi rost atvori suluki mustaqim,
Rahbarlar⁴⁷ kasratidan⁴⁸ gum surog‘⁴⁹ bo‘ldi ko‘ngil.

Gavhar aylar jolai gulzorini mohtobi ishq,
Kirmi shabto⁵⁰ erdi, emdi shabchirog‘ bo‘ldi ko‘ngil.

Oshinoyi surat o‘lmas ma’niyi anqo kabi,
Uzlat etdi eshitganlardan yiroq bo‘ldi ko‘ngil.

Kechdi sha’mi siynaga monandai fonusi nur,
Mehri mohdan koni gunji farog‘ bo‘ldi ko‘ngil.

To yetishgay G‘olibga fayzi dami Monloyi Rum⁵¹,
Nay kabi rohi nafasda ko‘z quloq bo‘ldi ko‘ngil.

* * *

Gul otash, gulbun⁵² otash, gulshan otash, juybor⁵³ otash,
Samandar⁵⁴ tiynatani ishqqa basdir lolazor otash.

Hamon ey, soqiy bir sog‘ar tutgil dasti dildora,
G‘azabla bazma keldi sha’mi majlisvash yonar otash.

Nasim otash chiqardi g‘unchayi bog‘i umidimdan,
Tashladi gulshani a’moliga barqu bahor otash.

Xayoli hasrati xolingga oh etganda ushshoqning,
Shab’i furqatda⁵⁵ har dam ahtaron⁵⁶ aylar nisor otash.

⁴⁷ Раҳбар – йўл кўрсатувчи.

⁴⁸ Касрат – кўпчилиқ.

⁴⁹ Гум сирог – адашиш.

⁵⁰ Кирми шабтоб – тилла қўнғиз.

⁵¹ Монлоий Рум – Жалолиддин Румий.

⁵² Гулгун – гул нигоҳи.

⁵³ Жуйбор – ариқ.

⁵⁴ Самандар – олов ичида яшайдиган, оловдан чиқса ўладиган ҳайвон.

⁵⁵ Шабъи фурқат – айрилиқ туни.

⁵⁶ Аҳторон – юлдузлар.

Menga do‘zaxdan ey moh, dam urar gulzorlar sensiz,
Daraxt otash, nihol otash, gul otash barqu bor otash.

Murakkabdir⁵⁷ vujudi to azal yakpora so‘zishdan⁵⁸,
Anosirdan⁵⁹ magar ushshoqa bo‘lmishdir duchor otash.

Charog‘i bazmi hajri⁶⁰ bo‘lg‘anim yopmish yoqishtirdim,
Ko‘ngul parvonasinda vuslat otash, intizor otash.

Bayoni so‘zish aylar har kim iste‘dodi fitratdan
Etar barjasta⁶¹ oshiq misrayi rangin chinor otash.

Magar kilki sabuk-javlning bo‘lmish garmrav⁶² G‘olib,
Zamin otash, zamon otash, butun naqshu nigor otash.

⁵⁷ Мураккаб – таркиб топган, вужудга келган.

⁵⁸ Сўзиш – ёниш.

⁵⁹ Аносир – унсурлар.

⁶⁰ Базми ҳажр – ҳижрон базми.

⁶¹ Баржаста – латиф.

⁶² Гармрав – иссиқ

XOTIMA

O'rta asrlar turk mumtoz adabiyotining shakllanishi va rivojlaniishi o'ziga xos tarzda kechdi. XIII–XVIII asrlarda Turkiyada ko'plab talantli ijodkorlar yetishib chiqdi. Asrdan-asrga adabiyot shakl va mazmun jihatidan takomillashib bordi. Xalq adabiyoti, devon adabiyoti, tekke shoirlari ijodida buni yaxshi his qilishimiz mumkin. O'rta asrlar turk adabiyotida poeziya janri yetakchilik qildi. G'azallarda shoirlar samimiy his-tuyg'ularini ifodasalar, yirik dos-tonlarda davr uchun muhim muammolarni (Yusuf Nabiy) ko'tardilar Shayxiiy, Nafiiy kabi shoirlar turk adabiyotida birinchilardan bo'lib satirik asarlar yaratdilar. O'rta asrlar turk she'riyatiga Sharqning buyuk shoirlari Firdavsiy, Nizomiiy, Hofiz, Jomiiy va Navoiylarning ijodiy ta'siri sezilarlidir. Ularning asarlari turk shoirlari uchun ilhom bulog'i bo'ldi. XV asr oxirlarida Hamidulla Hamdiy birinchilardan bo'lib "Xamsa" yaratdi. O'rta asrlarda yashab ijod etgan turk shoirlari til masalasiga alohida e'tibor berdilar. Turk tilini chet tillar ta'siridan saqlashga, adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirishga harakat qildilar. Ko'pgina shoirlar ikki tilda (fors, turk) ijod qildilar. XVII asrgacha ko'proq tasavvufiiy, ilohiiy ruhda asarlar yozishga intilish bo'lsa, bu asrdan adabiyot mazmun va shakl jihatdan ham dunyoviiyroq bo'la bordi. Adabiyotda yangi poetik janrlar paydo bo'ldi. O'rta asr turk mumtoz shoirlarida yaqqol ko'zga tashlanadigan jihatlardan biri she'r texnikasiga e'tibor qilishdir. Tarix aytish buning yaxshi misoli. O'rta asrlarda yaratilgan adabiy tazkiralalar qimmatli adabiy materiallar berishi bilan bugungi kunda juda ahamiiyatli.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlariga kelib turk klassik adabiyoti XVI asrdagi mavqei va shiddatidan biroz chekindi.

Umuman, o'rta asrlar turk adabiyoti J. Rumiiy, Yu. Emre, M. Boqiiy, Yu. Nabiiy, A. Nodim, Sh. G'olib kabi talantli shoirlarni yetishtirib, Tanzimot davri va XX asr turk adabiyotining rivojiga zamin yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O'zbekiston, 1998.
2. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifat dunyo bilan hamkorlik yo'li. –T.: O'zbekiston, 2003.
3. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. –Toshkent, 1991.
4. Alimbekov A. Turk adabiyoti tarixi xrestomatiyasi. –T.: ToshDU, 1983.
5. Alimbekov A. Ishq asiri bo'lgan jon. –T.: Ma'naviyat, 1996.
6. Alimbekov A. Turk adabiyoti tarixi. Ma'ruzalar matni. –T.: UzMU, 2000.
7. Alimbekov A. Ertaklar yaxshilikka yetaklar. //Sharqshunoslik jurnali, 2002, №2.
8. Alkayeva L., Babaev A. Tureskaya literatura. – Moskva, 1967.
9. Borolina I.V. Xrestomatiya po tureskomu folkloru. –M.: MGU, 1987.
10. Garbuzova V.S. Turk adabiyoti klassiklari. – Toshkent, 1960.
11. Garbuzova V.S. Poemi srednevekovoy Tursii. –Leningrad, 1963.
12. Jaloliddin Rumi. Uchmoqqa qanot yo'q vale uchgaymen. –Toshkent: G'.G'ulom nomidagi «Adabiyot va san'at» nashriyoti, 1994.
13. Jaloliddin Rumi. Ichindagi ichingdadir. –T.: Yozuvchi, 1997.
14. Jaloliddin Rumi. Ma'naviy masnaviy. –T.: Sharq, 1999.
15. «Jahon adabiyoti» jurnali. 1997, № 5.
16. Istoriya vsemirnogo literatury. 4–tom. –Moskva: Nauka, 1977.
17. Kudelin V.B. Poeziya Yunusa Emre. – Moskva: Nauka, 1980.
18. Literatura Vostoka v srednie veka. – Moskva: MGU, 1970.
19. Mashtakova Ye.I. Tureskaya literatura konsa XVII – nachalo XIX v. – Moskva: Nauka, 1984.
20. Mahmud As'ad Jo'shon. Yunus Emro va tasavvuf. –T.: Fan, 2001.
21. Navoiy asarlari lug'ati. –Toshkent: G'. G'ulom nomidagi «Adabiyot va san'at» nashriyoti, 1972.
22. Nasimxon Rahmon. Turk xoqonligi. –T.: «A. Qodiriy nomidagi xalq merosi» nashriyoti, 1993.
23. Radiy Fish. Jaloliddin Rumi. – Toshkent. «B. Bulom nomidagi Adabiyot va san'at» nashriyoti, 1986, 272 b.
24. Tureskaya ashikskaya poeziya. –M.: Xudojestvennaya literatura, 1983.
25. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. –T.: O'zbekiston, 1997.
26. Xurshid Davron. –T.: Qaqqus, 1987.
27. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1979.

Turk tilida nashr qilingan asarlar:

1. Ahmat Qabakli. Turk adabiyoti. – Istanbul, 1997. II jild.
2. Ali Chichekli. Yunus Emro. – Istanbul, 1971.
3. Devon adabiyoti antologiyasi. – Istanbul, 1983.
4. Adabiyot. Dars kitobi. – Istanbul, 1995.
5. Adabiyot lug‘ati. – Istanbul, 1973.
6. Buyuk turk klassiklari. – Istanbul, 1986.
7. Boqiy devonidan. – Istanbul, 1987.
8. Ixson Ishq. Turkiya yozarlari ensiklopediyasi. – Anqara, 2002.
9. Said Qorali o‘g‘li. Turk adabiyoti tarixi. I jild. – Istanbul, 1980.
10. Turkcha so‘zlik. I jild. – Anqara, 1988; II jild, – Anqara.
11. Turk ertaklari. – Anqara, 1992.
12. Fuod Ko‘prulu. Turk adabiyotida ilk mutasavvuf. 1984.
13. Xalq adabiyotiga kirish (tuzuvchi – Shukri Elchin). – Anqara, 1993.
14. Shayx G‘olib (hayoti va asarlari). 1984.
15. Yunus Emre. Devon. – Anqara, 1986.
16. O‘g‘izdan bugungacha. – Anqara, 1996.

V uchebnom posobii «Istoriya tureskoy literaturi" (XIII–XVIII v.v.) dotsenta Adxambeka Alimbekova dayotsya spetsificheskiy analiz tvorchestvu tureskix klassicheskix pisateley. Tak kak eto posobie yavlyaetsya pervim po teme «Tureskaya literatura srednix vekov» zdes avtor dayot kratkoe svedenie o tureskom folklоре.

V posobie dayotsya obshaya xarakteristika XIII–XVSh v, takje otdelno govoritsya o tvorchestve znamenitix pisateley po vekam.

Dani nauchnie svedeniya o jizni i tvorchestve takix znamenitix pisateley kak D. Ruda, S. Baled, Yu. Emre, Axmedi, Isa Nedjati, Mixri Xatun, Isa Mesixi, Maxmud Abdul Baki i dr.

Pri napisanii knigi bili ispolzovani istochniki tureskix literaturovedov F. Kuprilizada, A. Kabakli, O.K. Karaali ogli, a takje russkix vostokovedov akad. V. Gordlevskogo, A.B. Gorbuzova, I.V. Borolina.

V posobii delaetsya aksent na uzbeksko-tureskie literaturnie svyazi, v tom chisle na telu A. Navoi i tureskaya literatura. Vpervie poema «Gul ila Alisher» (ob A. Navoi) bila nauchno analizirovano.

V knige krome tvorchestvo pisatelya dani otrivki iz xudojestvennix proizvedeniy, dlya togo chtobi chitatel mog bolee polno poznakomitsya s tvorchestvom kakogo-libo pisatelya.

Posobie polnostyu sootvetstvuet programme kursa «tureskoy literaturi».

ALIMBEKOV A. Istoriya tureskoy literaturi (XIII–XVIII v.v.). - T.: Izd-vo TashGIV. 2004. – S.132.

The teaching aid “History of Turkish literature” (XIII–XVIII centuries) written by assistant professor Adhambek Alimbekov is devoted to famous and outstanding poets and creators in the Turkish classic literature. The author gives short information about Turkish folk-lore, because it is the first textbook about middle centuries Turkish literature.

In this teaching-aid you can find description about each century and information about life and creation of famous poets as Jaloliddin Rumi, Yunus Emre, Bakiy, Ahmad Posho, Mehri Hotun, Iso Masihiy, Hafi, Nodim, Shayh Golib and others.

The textbook is based on the Turkish literary sources and scientific researches of Turkish literary scholars as Fuad Kopruluzoda, Ahmad Kabokli, Ahmad Tappinar, Said Kamol Qoraali and Russian orientalist scientists as academician V. Gordlevsky, A.V. Garbuzova, I.V. Borolina and others.

In the textbook payed special attention to Uzbek and Turkish literary relationships and written about Alisher Navoi and Turkish literature. The poem “Gul and Alisher” about Alisher Navoi for first time is explaining from scientific point in this textbook. Passages from literary works gives an opportunity to get more information about creators.

This teaching aid is completely corresponds to programme of course “Turkish literature”.

ALIMBEKOV A. History of Turkish literature (XIII–XVIII centuries). Tashkent: Tashkent State Institute of Oriental Studies Press, 2004. –P.132.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
Tuk xalq og‘zaki ijodi haqida. Turku	7
Turku	8
Mani.....	8
Qo‘shma	10
Ilohiy.....	11
Manga san keraksan.....	12
Samoiy.....	13
Sharqiy.....	14
Ertaklar haqida.....	16
Latifalar	19
XIII-XV asrlarda Turkiyadagi ijtimoiy va adabiy muhit.....	22
Jaloliddin Rumiy (1207–1273)	25
Jaloliddin Rumiy ijodidan. Uch yo‘lovchi haqida rivoyat.....	28
G‘azal	29
Ruboiylar	30
Sulton Valad (1226-1312)	31
“Maorif” asaridan	32
Sulton Valad g‘azallaridan.....	33
Yunus Emre (1239-1321)	35
So‘rdim guldand, chechakdan	43
Ahmadiy (1329-1413)	45
Ahmadiy “Iskandarnoma”sidan.....	48
G‘azallaridan	49
Hoji Bayram (1352–1429).....	50
Hoji Bayram she‘rlaridan	53
Yusuf Sinon Shayxiy (1371–1422-29)	55
Shayxiy g‘azallaridan	57
Ahmad Posho (?-1497).....	57
Ahmad Posho g‘azallaridan.....	60
Alisher Navoiy va turk adabiyoti.....	61
“Gul ila Alisher” dostoni	66
Hamidulla Hamdi – Oqshamsiddin Chalabiy (1448–1509).....	70
“Yusuf va Zulayho”dan	72
Iso Najotiy (?-1509).....	74
Iso Najotiy g‘azallaridan.....	77
Mehri Xotun (1460-1506).....	78
Mehri Xotun g‘azallaridan.....	81
Iso Masihiy (1470-1512)	81

Masihiy murabbasidan.....	83
Masihiy gʻazallaridan	84
XVI asr turk adabiyotiga umumiy nazar.....	85
Mahmud Abdul Boqiy (1526–1600).....	87
Boqiy ijodidan namunalar.....	91
Muhibbiy gʻazaliga taxmis	91
XVII asrdagi ijtimoiy hayot va adabiy muhitga umumiy nazar.....	92
Nafiy (1582–1636).....	95
Umar Nafiy gʻazallaridan	97
Yusuf Nabiy (1640-1712).....	98
Nabiy gʻazaliyotidan.....	104
XVIII asrda adabiy muhit	105
Lola davri.....	107
XVIII asr adabiyotining oʻziga xos xususiyatlari	108
Ahmad Nodim (1680-1730).....	110
Nodim sheʼrlaridan	112
Shayx Gʻolib (1757-1799).....	115
Shayx Gʻolib gʻazallaridan	119
XOTIMA	121
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.....	126

Muharrir: ***Sh. SUBHONOV***
Taqrizchilar: f.fn., dotsent ***A. ULUG'OV***
f.f.n. ***A. TILOVOV***
Tex. muharrir: ***S. YUSUPOVA***
Komp.verstkasi: ***A. YUNUSOV***
Tex. xodim: ***I. ODILOVA***

2004 yil 26 iyunda Oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash Prezidiumi 43-sonli majlis bayoni bilan tegishli Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma ToshDShI O'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (№ 2 bayonnoma, 04.03.2004).

Bosishga ruxsat etildi 26.01.2005.

Bichimi 60x84 1/16 Shartli 8,25 b.t. 200 nusxada bosildi. Buyurtma №
Toshkent Davlat sharqshunoslik institutining kichik bosmaxonasi.
Toshkent, Shahrisabz ko'chasi, 25.